



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2021, № 6

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAA'dan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Nargiza RAXMANQULOVA
Xolboy IBRAGIMOV
Shavkat QURBONOV
Roxatoy SAFAROVA
Islom ZOKIROV
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir Akbarov

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksizta'lim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **M.M.Xolmuxamedov**
Professional ta'lim tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida modernizatsiya qilish
- 9 **Z.M.Ataullayev, X.M.Rajabov, R.A.Eshanov**
O'quvchilarning kimyodan mustaqil ishlarini tashkil etishga yangicha yondashuv muammolari
- 14 **G.A.Berdaliyeva**
Uzluksiz ta'lim jarayonida bolalarni innovatsion didaktik o'yinlar yordamida mustaqil fikrlashga o'rgatish
- 19 **Sh.M.Sodiqova**
Uzluksiz ta'lim tizimida o'tao'tkazuvchanlik hodisasini o'qitishda mediya texnologik interfaol metodlardan foydalanish
- 24 **V.Sh.Raximov**
Uzluksiz ta'lim tizimida sport-sog'lomlashtirish tizimi: muammolar va uni yechimlari
- 28 **X.B.Suyarov**
Jismoniy tarbiya fanini o'qitishda o'quvchilarda individual yondashuv asosida jismoniy sifatlarini rivojlantirish
- 31 **Z.T.Raximov**
Innovatsion yondashuvlardan foydalanishda umumiy o'rta maktab va oliy ta'lim tizimi bosqichlari o'rtasidagi uzluksizlik
- 36 **S.U.Ibraximov**
Ziddiyatlarning pedagogik mohiyati va ularga oid mavjud yondashuvlar
- 41 **O.A.Sharipova**
Uzluksiz ta'lim tizimida jismoniy tarbiya ta'limi va sport samaradorligini oshirish
- 45 **Z.Palibayeva**
Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi-yoshlarda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish
- 48 **M.N.Solayeva**
Uzluksiz ta'lim bosqichlarida matematika fanini o'qitilishi

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 52 **Yo.O.Abdullayeva**
Nutq kanchiligiga ega bo'lgan bolalarda lug'at boyligini shakllantirishda kompyuter dasturlarining ahamiyati
- 56 **P.X.Джусупов, Ф.Р.Бакеева**
Обучение будущих учителей информатики с использованием информационно-образовательных систем
- 61 **A.D.Askarov**
Uzluksiz ta'lim tizimida axborot xavfsizligi omili
- 65 **I.X.Abdullayev**
Sportchi o'quvchi hamda talabalarni ma'naviy-axloqiy rivojlantirishda ta'lim muassasasi, oila va mahallaning hamkorligi

MA'NAViy TARBIYA

- 69 **X.M.Tojiboyeva**
O'smirlarda «Ommaviy madaniyat»ga xos salbiy xususiyatlarni gender yondashuv asosida bartaraf etishning pedagogik jihatlari
- 74 **A.T.Turgunova**
Uzluksiz ta'lim tizimida kekxa avlod tajribasini tadqiq etish va uning amaliyotdagi holati
- 79 **N.M.Oymatova**
Mumtoz adabiyotda komil inson tarbiyasini o'rganishda uzviylik va uzluksizlik
- 84 **B.M.Caudoe**
К изучению понятия принципа природосообразности в народной педагогике

KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 89 **I.T.Chariyev**
Innovatsion yondashuv asosida o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish
- 94 **M.K.Raxmanova**
Pedagogik ta'lim klaster jarayonida talabalarining ijtimoiy faolligini rivojlantirish
- 99 **T.E.Eshqurvatov**
Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni nizolari profilaktikasi tizimini pedagogik hamkorlik asosida takomillashtirish

XORIJiy TILLARNI UQITIsh TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH – DAVR TALABI

- 103 **Sh.A.Atdjanova**
Uzluksiz ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish dolzarb masala sifatida
- 108 **Z.P.Dzygaeva**
Совершенствование непрерывной подготовки студентов к акмелингвистической компетентности



PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA MODERNIZATSIYA QILISH

M.M.XOLMUXAMEDOV,

*Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar
ta'limi boshqaruv hamda pedagog
kadrlarini qayta tayyorlash va
ularning malakasini oshirish instituti*

Mazkur maqolada mamlakatimizda yangi professional ta'lim tizimini zamon talablariga mos shaklda tashkil etish jarayonlari, uning ahamiyati, ko'zlangan asosiy maqsad va bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar bayon etilgan. Shuningdek, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda ularning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalari mazmunini zamonaviy yondashuvlar asosida ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *professional ta'lim, modernizatsiya, raqobatbardosh, innovatsiya, kasbiy kompetensiya, kvalifikatsiya, kreativ yondashish, intellektual, paradigma.*

This article describes the process of organizing a new system of vocational education in Uzbekistan in accordance with modern requirements, its importance, the main goals and objectives. Moreover, there are covered issues of developing and implementing the content of personal and professional competencies during the training of highly qualified personnel on the basis of modern approaches.

Key words: *Professional Education, Modernization, Competitiveness, Innovation, Professional Competences, Qualification, Creative approach, Intellectual, Paradigm.*


Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish hamda kadrlar malakasini xalqaro mehnat bozori talablariga moslashtirish maqsadida milliy malaka tizimi ishlab chiqish kabi ustuvor vazifalar professional ta'lim muassasalarining mutlaqo yangidan ilmiy-amaliy faoliyatini tashkil etish zarurligini belgilab beradi. Yangi professional ta'limning xalqaro andozalarga to'liq mosligini ta'minlash va ijtimoiy buyurtma asosida malakali kadrlarni tayyorlashda ularning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalari mazmunini zamonaviy yondashuvlar asosida ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy qilish professional ta'limni modernizatsiyalashga xizmat qiladi.

Professional ta'limning asosiy maqsadi yangi sifat va formatda inson resurlarini rivojlantirish, yoshlarda ichki va tashqi mehnat bozori talab qilayotgan amaliy kvalifikatsiyalarni shakllantirish, Vataniga, xalqiga sadoqat bilan xizmat qiladigan, iqtisodiy faol yoshlarni jamiyatga yetkazib berishdan iborat.

Tizim o'z oldiga hududlar va sohalar kesimida iqtisodiy yuksalishga munosib hissa qo'sha oladigan o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash, yoshlarni malakali mehnat orqali o'z hayot farovonligini ta'minlashga o'rgatish, o'z mehnat faoliyatiga innovatsion va kreativ yondashish, yaratuvchanlik, intellektual, madaniy, ma'naviy



potensialini rivojlantirish kabi vazifalarni qo'yadi. Ana shu xarakat va maqsadlarni ko'zlab, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, yangi professional ta'lim tizimini zamon talabiga mos formatda tashkil etish, shaklan va mazmunan mutlaqo yangi, uzluksiz professional ta'lim muassasalari tarmog'ini shakllantirishning yangi paradigmasi belgilandi.



1.-rasm. Yangi professional ta'lim tizimining tashkiliy-mazmunli paradigmasi

Hozirgi paytda har bir ish o'rni, har bir lavozimning mehnat funksiyalari tasnifi va uni samarali, muvaffaqiyatli bajarish uchun lozim bo'lgan ko'nikma, bilim va kompetensiyalar yoritilgan malaka talablarining yangi formatdagi me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Bunda professional ta'lim dasturlarining mazmuni, ta'lim natijalari va ta'limning sifati shu me'yoriy hujjatlarga muvofiq shakllantiriladi.

Bu tizim tayyorlanayotgan mutaxassislarning raqobat faktori ancha



murakkablashgan, mahalliy va xorijiy mehnat bozori o'zgarishlariga o'z vaqtida moslashib keta olishiga ham xizmat qiladi. Natijada ish beruvchi tasdiqlangan malaka daraja, baholangan kompetensiyalarni talab qilayotgan bir paytda har ikki tomonning ham maqsadlarini uyg'unlashtirishning yagona formati professional standartlarda o'z aksini topadi. Chunki ish beruvchi professional ta'limda ham buyurtmachi, ham pudratchi vazifasini bajaradi. Professional standart ish beruvchi tomonidan qo'yiladigan malaka talablarining barcha komponentlarini o'zida mujassamlashtiradi. Demak, mukammal professional standart bu – professional ta'lim sifati va samaradorligini belgilovchi “ijtimoiy buyurtma” hisoblanadi.

Darhaqiqat, iqtisodiyotni rivojlantirish uchun avvalo moliyaviy resurslar, keyin texnik, texnologik resurslar va albatta inson resurslari talab qilinadi. Shu ma'noda inson resurslarini rivojlantirish orqali yoshlar va xotin-qizlar masalalari, kambag'allikni qisqartirish, migrantlar masalasidagi yangi siyosatni amalga oshirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, pirovard natijada iqtisodiy yuksalish kabi jiddiy siyosiy vazifalar o'z yechimini topishi nazarda tutilmoqda.

Demak, xalqaro tajribalarga ko'ra, milliy malaka tizimini shakllantirish quyidagilarga imkon beradi:

- ta'lim tizimining uzluksizligi va uzviyligi (turli bosqichlarda o'qitiladigan va o'rganiladigan bilim va ko'nikmalar ketma-ketligini aniqlash)ni ta'minlaydi;

- “Hayot davomida ta'lim” strategiyasi doirasida o'quvchilarning ta'lim traektoriyasini ongli va mustaqil tanlashga imkon beradi;

- o'quvchilarning tez o'zgarib turadigan mehnat bozoriga moslashish qobiliyatini oshiradi;

- bitiruvchilarning raqobatbardoshligini ta'minlaydi;

- fuqarolarning o'z-o'zini rivojlantirish uchun kasbiy motivatsiya beradi va hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun imkon yaratadi;

- hukumatga malakalarni taqqoslash va ishonchli standartlarni belgilashda yordam beradi;

- malakalarning mehnat bozori talablariga mos o'zgaruvchanligini ta'minlaydi;

- ta'lim sifati ta'minlash mexanizmlarini yaratadi;

- ish beruvchilarga malaka va sifatni ta'minlash mexanizmlarini tavsiflashning barcha mezonlariga mos hamda tushunarli bo'lgan yagona formatini taqdim etadi;

- fuqarolarni ishga yollash vakolatining keng darajasini tavsiflashda (jumladan, Xalqaro mehnat bozorida ham) yordam beradi.

Milliy malaka tizimi yoshlarimiz potensialini oshiradi, ularning mehnat bozorida imkoniyatlarni kengaytiradi, raqobatbardoshlik darajasini oshiradi, professional ta'limda amalga oshirilayotgan islohotlarining kelgusi istiqboli, samarasi va natijasini belgilab beradi.

Birinchidan, 2020-2021 o'quv yilida professional ta'lim tizimida Respublika



bo'yicha jami 725 ta ta'lim muassasalari, ya'ni, 339 ta kasb-hunar maktablari, 211 ta kollejlari va 176 ta texnikumlar faoliyat ko'rsatishi belgilandi.

1-toifa – kasb-hunar maktablarida ta'limning Xalqaro standart tasniflagichining 3-darajasiga mos keluvchi 2 yillik ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilari boshlang'ich professional ta'lim oladi.

Kasb-hunar maktablarida ustuvor yo'nalish sifatida oilaviy biznes, tomorqa biznesi, qurilish, xizmat ko'rsatish, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik kabi iqtisodiyotimizda muhim o'rin egallagan 200 dan ortiq ishchi kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlanadi.

Kambag'allikka qarshi kurash doirasida eng avvalo, kam ta'minlangan oilalarning farzandlarida tadbirkorlikka, biznesga, pirovard natijada daromad olishga yo'naltiruvchi bilim, ko'nikma, malakalar hamda kompetensiyalar shakllantiriladi.

2-toifa - kollejlarda ta'limning Xalqaro standart tasniflagichining 4-darajasiga mos keluvchi, kasblarning murakkablik darajasidan kelib chiqib, 2 yilgacha bo'lgan muddatda o'qitishga mo'ljallangan ta'lim dasturlari asosida o'rta professional ta'lim mutaxassislari tayyorlanadi.

Vazirliklar, idoralar va tashkilotlar tasarrufida faoliyat ko'rsatadigan va shu sohadagi aniq ish o'rni uchun mutaxassislar tayyorlaydigan ushbu kollejlarga maktablarning 11-sinf bitiruvchilari hamda turli yoshdagi ta'lim olishni hohlovchilar qabul qilinadi. Kollejlarda Germaniya tajribasida yaxshi samara bergan «dual» ta'lim tizimi joriy etiladi: o'quvchilar haftaning ma'lum kunlarida kollejdagi nazariy bilim oladi, boshqa kunlari korxonaning o'zida birlashtirilgan usta rahbarligida to'g'ridan-to'g'ri kelajakda ishlaydigan ish o'rnida amaliyot o'taydi.

3-toifa – texnikumlarda ta'limning Xalqaro standart tasniflagichining 5-darajasiga mos keluvchi, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bilan integratsiyalashgan, kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida kamida 2 yil muddatga mo'ljallangan ta'lim dasturlari asosida 11-sinfni tugatgan yoshlar hamda turli yoshdagi ta'lim olishni hohlovchilar o'qitiladi.

Bitiruvchilar 2 yillik tahsildan so'ng o'qigan kasbi bo'yicha oliy ta'lim muassasasiga suhbat asosida o'qishga qabul qilinishi mumkin.

Ikkinchidan, kadrlar malakasini xalqaro mehnat bozori talablariga moslashtirish maqsadida milliy malaka tizimi ishlab chiqildi. Ya'ni, O'zbekistonda ilk bor Milliy kvalifikatsiya ramkasi, tarmoq kvalifikatsiya ramkalari, kasb va mutaxassisliklar bo'yicha professional standartlar hamda tabaqalashtirilgan ta'lim standartlari hamda dasturlar tasdiqlanib, joriy etilmoqda. Bu borada O'zbekiston-Shveysariya «O'zbekistonda kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish» loyihasi tomonidan yurtimizda professional ta'lim tizimini rivojlantirish mexanizmlarini amalga oshirishda o'zaro hamkorlik ham o'rnatildi.

Uchinchidan, o'qitish muddatlari o'zgardi.

Xususan, ilgari 3 yillik standartdan to'liq voz kechildi. Mutaxassisliklarning murakkablik darajasidan kelib chiqib, tabaqalashtirilgan o'qitish muddatlari joriy



qilindi. Qo'shimcha ravishda professional ta'lim muassasalarini tugatgan yoshlarimizga kelgusida oliy ta'limda o'qishini davom ettirish va butun hayoti davomida o'z malakasini oshirib borish imkoniyati berildi.

To'rtinchidan, ta'lim dasturlari va shakllari o'zgardi.

Endi ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashgan va mehnat bozori talablari asosida moslashuvchan kadrlarni tayyorlash yangi professional ta'lim dasturlari asosida joriy etiladi. Buning uchun ilg'or xorijiy tajribalar asosida Xalqaro standart tasniflagichining 3, 4, 5-darajalariga mos keluvchi professional ta'lim muassasalarida boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim mutaxassislari tayyorlanishi belgilandi. O'z navbatida ishchi kasblar bilan o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlash tizimi bir-biridan to'liq ajratildi. Endilikda ishchi kasblar va o'rta bo'g'in mutaxassislari alohida o'quv reja va dasturlar asosida o'qitilishi joriy qilindi. O'z navbatida kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shaklida 2 yilgacha muddatda o'qitish tizimi joriy etildi. Misol uchun, oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bilan integratsiyalashgan xalqaro "Associate degree" darajasida mutaxassislar tayyorlash bo'yicha kamida 2 yil muddatga mo'ljallangan ta'lim dasturlari amaliyotga joriy etildi. Ta'lim dasturlari yakunlari bo'yicha bitiruvchilarga razryad ko'rsatilgan sertifikat, guvohnoma va diplom beriladi.

Beshinchidan, ta'lim texnologiyalari o'zgardi. Bunda eng avvalo, Germaniya tajribasida yaxshi samara bergan «dual» ta'lim tizimi asosida 50 foiz nazariya, 50 foiz amaliyot joriy qilindi. Shuningdek, professional ta'lim jarayoniga o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo'llashga o'rgatadigan kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan ta'lim dasturlarini yaratish va tadbqiq etish boshlandi.

Oltinchidan, 2020-2021 o'quv yilidan boshlab, kollejlarda va texnikumlar mehnat bozorining xususiyatlari, ish beruvchilarning texnologik jarayonlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonida foydalaniladigan fan (modul) va amaliyot dasturlari ish beruvchilar bilan birgalikda ishlab chiqildi va joriy etildi. Bu degani, endi o'rta bo'g'in mutaxassislari oldindan aniq ish o'rniga ish beruvchi qo'ygan malaka talablari asosida tayyorlanadi va kelgusida o'sha ish o'rniga borib, joylashadi, degani. Shuningdek, O'zbekistonda ilk marta joriy o'quv yilidan boshlab, professional ta'lim muassasalarida tadbirkorlikka yo'naltirilgan o'quv rejalari tajriba sinov-tariqasida joriy etildi.

Yetinchidan, uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlar xususan, Nizom va ta'lim muassasalarining namunaviy ustavlari ishlab chiqildi, tasdiqlandi va amaliyotga joriy etildi.

Sakkizinchidan, davlatimiz rahbarining "Innovatsiya bo'lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmaydi", degan so'zlaridan kelib chiqib, Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida innovatsion muhit, yangi makon yaratildi.

Tizimda ishlaydigan xodimlarni islohotlar ijrosiga shay holatga keltirish, bilim, ong va tafakkurni rivojlantirish maqsadida innovatsion yondashuv asosida



aniq maqsadga yo'naltirilgan original ijro mexanizmlari ishlab chiqildi. Ushbu yangi muhitda ta'lim muassasalari direktorlari va o'rinbosarlari orasidan strategiya, innovatsiya va sifrovizatsiya mohiyatini anglagan, islohotlar ijrosini ta'minlashga, ongini o'zgartirishga qodir bo'lgan zahira kadrlar, kuchli metodist o'qituvchilar ma'lumotlar banki, portfoliolar banki yaratilmoqda.

Malaka oshirishning yangi 18 ta modullari joriy qilindi. Pedagogika prinsiplaridan androgogika prinsiplariga o'tildi. Malaka oshirishga kelgan tinglovchilar uchun ta'limni innovatsion rivojlantirishga doir 17 ta taqdimotlar tayyorlanib, taqdim etildi. 200 dan ortiq vizuallashtirilgan va raqamlashtirilgan yangi elektron ta'lim resurlari bazasi yaratildi. Bu muhitda o'qish, anglash, tafakkur qilish, bunyod etish, yangi g'oyalar, kreativlik, tashabbuskorlikka rag'bat uyg'otishning zarur shart-sharoitlar yaratildi.

Hulosa qilib aytadigan bo'lsak, professional ta'lim muassasalari hududdagi barcha aholi qatlamlari uchun, ayniqsa yoshlar hamda xotin-qizlarning munosib hayot kechirishi uchun daromad topish, o'zi, oilasi farovonligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, kichik biznes tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, pirovard natijada mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantiradigan, eshiklari barchaga ochiq bo'lgan texnologik markazlar sifatida faoliyat olib boradi. Shu ma'noda O'zbekistonda yangi professional ta'lim tizimi mamlakat iqtisodiyotining har bir sohasiga, jamiyatning har bir bo'g'iniga, har bir oila, har bir fuqaro hayotiga daxldor bo'lgan yirik ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy voqeadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va kunikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida" 2020 yil 15 maydagi 287-son qarori
3. Muslimov N.A. "Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini shakllantirish. Monografiya. - T.: Fan, 2004 - 126 b.
4. U.Inoyatov, B.Xodjaev. "Umumta'limiy kompetensiyalarni loyihalashtirishning konseptual asoslari". Xalq ta'limi jurnali. 2016. 2-son. 8 bet.
3. Исследование Гарвардского университета. "Soft skills и образование длиною в жизнь".
4. Безюлева Г.В., Иванова Н.В., Никитин М.В., Шеламова Г.М. Профессиональная компетентность: аспекты формирования / Под ред. Г.В. Безюлевой. - М, Московский психолого-социальный институт, Федеральный институт развития образования, 2005. - 82 с.



O'QUVCHILARNING KIMYODAN MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISHGA YANGICHA YONDASHUV MUAMMOLARI

Z.M.ATAULLAYEV,

UrDU "Kimyo" kafedrası o'qituvchisi,

X.M.RAJABOV,

UrDU "Kimyo" kafedrası dotsenti,

R.A.ESHCHANOV,

TVCHDPI "Kimyo" kafedrası professori

Ushbu maqolada kredit-modul asosida o'qitish tizimi, amalga oshirilayotgan faoliyatlar, maktabda kimyo fani o'qituvchilari sinfda va sinfdan tashqari vaqtlarda o'quvchilar bilan imkon qadar mustaqil ish tashkil etish talablari, umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyodan o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etishga yangicha yondashuvlari yoritib berilgan. Maktab o'quvchilariga mustaqil ishlash usullari tashkil etish uchun kimyo fanidan o'quv-uslubiy qo'llanmalar hamda boshqa yordamchi vositalar, hamda nostandart laboratoriya ishlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Kredit-modul tizimi, dars samaradorligi, mustaqil ish, individuallik, interaktiv o'quv qo'llanma, atamalar lug'ati, nostandart laboratoriya ishlari.

В статье рассказывается о внедрении кредитно-модульной системы обучения, выделены требования к учителям химии по самостоятельной работе с учениками на уроках и вне учебы, а также новые подходы к организации самостоятельной работы учеников по химии в общеобразовательных школах. Рассмотрены учебники химии и другие пособия, а также нестандартные лабораторные работы для организации самостоятельных методов работы школьников.

Ключевые слова: Кредитно-модульная система, результативность урока, самостоятельная работа, индивидуальность, интерактивный учебник, толковый словарь, нестандартные лабораторные работы.

The article describes the introduction of a credit-modular training system, highlighted the requirements for chemistry teachers to work independently with students in the classroom and outside of school, as well as new approaches to the organization of independent work of pupils in chemistry in general education schools. Chemistry textbooks and other manuals, as well as non-standard laboratory work for organizing independent methods of schoolchildren's work are considered.

Key words: Credit-modular system, lesson efficiency, independent work, individuality, interactive textbook, explanatory dictionary, non-standard laboratory work.

Kredit-modul tizimi mamlakatimizda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning yangicha tizimi sifatida, o'qitishning modulli texnologiyalari jamlanmasi bo'lib, u kredit o'lchovi asosida ta'lim oluvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni baholashning takomillashgan va ilg'or mamlakatlarda tajribada signalgan samarali modeli hisoblanadi.



Kredit-modul tizimida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi:

- talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash;
- talabalar bilimni reyting asosida baholash.

Kredit-modul tizimining oliy ta'limga joriy qilinishi o'qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaga barham berish, ta'lim oluvchining haqiqiy bilimini yuzaga chiqarish hamda talabani mustaqil o'qib-o'rganib, o'z ustida ishlashiga zamin yaratadi. Kredit-modul tizimining joriy etilishi o'qituvchi va talabani hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi. Ushbu tizimda pedagog tinglovchining o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. Talaba esa yo'naltirilgan obyekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg'u ham talabalarning mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi. O'quv jarayonida mustaqil ta'lim olishning ahamiyati ortadi va bu kelajakda mutaxassislarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi hamda faolligini oshirishga olib keladi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida asosiy e'tibor auditoriya mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabalardan mustaqil o'qib o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori zamonaviy talabalaridan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishga qaratilmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar, albatta, diqqatga sazovordir, biroq kredit-modul tizimi talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash orqali kasbiy rivojlanishi va kamolotini ta'minlashga yo'naltirilgan ekan, bizning fikrimizcha, jarayonni, avvalombor, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishdan boshlash muhim ahamiyatga ega bo'lar edi. Shu o'rinda aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ4805-sonli qarori o'z vaqtida qabul qilingan qarordir [3]. Ushbu qaror qabul qilingandan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 2-dekabrda 87-02-664 topshirig'i bo'yicha umumta'lim maktablarida ta'lim sifati va o'qituvchilarni kasbiy mahoratini oshirish va metodik qo'llab-quvvatlash maqsadida respublikaning 95 ta oliy ta'lim muassasalariga jami 634 ta maktablar birlashtirildi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyodan o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishga yangicha yondashishni kamdan-kam uchratish mumkin. Buning boisi maktab o'quvchilariga mustaqil ishlash usullari o'rgatilmagan va o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish uchun kimyo fani o'qituvchilari qo'lida o'quv-uslubiy qo'llanmalar hamda boshqa yordamchi vositalar yetarli emas. O'quvchilarga ham har xil turdagi topshiriqlarni bajarish, daftar bilan ishlash va darslikdan foydalanish texnikasi mahoratlarini o'rgatish kerak. O'quvchilarning mustaqil ishini materialni oddiy takrorlashdan tortib to to'liq tushunish va



bilimlarni yangi mashg'ulotlarda qo'llash qobiliyatiga qadar tashkil etish o'z-o'ziga ishonch ("Men qila olaman"), o'z-o'zini hurmat qilish ("Men bajaraman") tuyg'ularini rivojlantirishga yordam beradi. Shu tariqa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro ishonchli munosabatlar: "Menga qanday qilishni ayting ...", "Men juda yaxshi tushunganimni tekshiring ..." kabilar rivojlanadi asta-sekin, kimyo faniga qiziquvchi o'quvchilar orasida darsda va uyda faol ishlaydigan, o'ziga ishonadigan insonlar shakllanadi.

O'quvchilarning kimyo fanidan mustaqil ishi doimo ma'lum didaktik yo'nalishga ega. Ular quyidagilar:

1. Yangi materialni o'rganish;
2. Mavjud bilim ko'nikmalarni takomillashtirish;
3. Ta'lim natijalarini tekshirish.

Ko'p hollarda bir xil ish turi bir vaqtning o'zida bir nechta muammolarni hal qilish imkonini beradi. Masalan, o'quvchilar yangi materialni mustaqil o'rganganda, darslikni o'qiganda yoki laboratoriya tajribalarini bajarganda yangi bilimlarni idrok etish bilan bir qatorda mavjud bilimlari takomillashtiriladi, natijalar o'z-o'zidan tekshiriladi, ba'zi hollarda esa bu odatda test sinovi tarzida o'tkaziladi. Masalan, 8-sinfda noorganik moddalar orasidagi genetik bog'lanishlar ko'rib chiqilayotganda yangi materialni o'rganishda o'quvchilarga quyidagi vazifa berilishi mumkin: tegishli reaktivlar yordamida kalsiy asosida ularga kalsiy oksidi, undan kalsiy gidroksid olish uchun kerakli reaktivlar va sodir bo'luvchi reaksiya tenglamalarini yozing kabi. Topshiriq maktabda kimyo fanidan o'quvchilarning mustaqil ishini tashkil etishning eng keng tarqalgan turlari: 1. Darslik bilan ishlash. 2. Masala va mashqlar bilan ishlash. Bunda asosiy e'tibor quyidagi ishlarni bajarishga qaratiladi: namuna bo'yicha mashqlarni takrorlash; turli topshiriq va savollarni tuzish va ularni yechish; boshqa o'quvchilarning javoblarini ko'rib chiqish, ularning darsdagi faolligini baholash; amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan turli mashqlar; 3. Turli topshiriqlarni yechish va amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish; 4. Har xil mustaqil testlarni yechish; 5. Mavzularga mustaqil ma'ruza materiallar tayyorlash.

Ushbu mustaqil ish turlarining aksariyati o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatining turli darajalari uchun qo'llanilishi mumkin.

Mustaqil ishning jamoaviy shaklida o'quvchilarga "o'rtacha" qiyinchilikdagi vazifalarning bir yoki bir nechta shakli tashkil qilinadi. Masalan, 9-sinfda elektrolit moddalarning elektrolitik dissotsiatsiyasi uchun tenglamalar tuzish haqidagi bilimlarni mustahkamlash maqsadida o'quvchilarning mustaqil ishini quyidagicha tashkil qilish mumkin:

1. Tarkibida H^+ , Ca^{2+} , OH^- , Zn^{2+} , K^+ , SO_4^{2-} ionlari bo'lgan eritmada qaysi ionlar juftligi kam dissotsiatsiyalanuvchi birikmalar hosil qilishini aniqlashga oid mustaqil ish. Bunda o'quvchilarga sodir bo'luvchi ion almashinish reaksiya



tenglamalarini molekulyar, to'la va qisqartirilgan ion-molekulyar tenglamalarini tuzish topshirig'i beriladi.

2. Quyida formulalari keltirilgan birikmalarning dissotsilanish tenglamalarini yozishga oid mustaqil ish: H_3PO_4 , $Fe(OH)_2$, $BaCl_2$, K_2CO_3 , AgI , $Ca(OH)_2$.

Mustaqil ishning guruh shaklida o'quvchilarni 2 yoki 4 kishidan iborat guruhlarda birlashtiradi. Unda mustaqil ish sinfdagi barcha o'quvchilar tomonidan bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi, lekin har bir guruh a'zolari bir-biri bilan yaqindan ishlaydi.

Masalan, 9-sinf o'quvchilarining quyidagi topshiriqlari guruh ishiga misol bo'la oladi:

Mustaqil ishning individual shakli ham mavjud. Uning asosiy ajralib turadigan xususiyati - faqat topshiriqlarni bajarish emas, balki o'quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlashga yo'naltirilganligidir. Individual mustaqil ishning mohiyati shundan iboratki, topshiriqlar barcha o'quvchilar uchun bir xil bo'lib, murakkablikni oshirish tamoyiliga muvofiq tuzilgan ketma-ket topshiriqlar va mashqlarni o'z ichiga oladi. Topshiriqni bajarishni boshlagan o'quvchilar birinchi, eng oson savoldan boshlashlari va asta-sekin ikkinchi, uchinchi va hokazo topshiriq oxirida taklif qilingan eng qiyin vazifalarga o'tishlari mumkin. Bunday ish bilan o'quvchilar tabiiy ravishda bir-biridan farqlanadi. Ushbu topshiriq shaklini bajarish orqali o'quvchilar o'zlarining yutuqlarini to'g'ri baholaydilar, o'zlarining keyingi o'sish istiqbollari va imkoniyatlarini ko'radilar.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil qilingan mustaqil ishlash usullari hozirda oliy ta'lim muassasalariga ta'sis etilgan kredit modul tizimiga javob bermaydi. Aksariyat hollarda umumta'lim maktablarida o'quvchilarga mustaqil ta'lim tushunchalari darslikda berilgan masala va mashqlar bilan cheklangan xolos [6].

Maktab kimyo kursida o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishlari uchun maxsus rasmlari va lug'at ko'rinishdagi uslubiy qo'llanmalardan foydalanilsa, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari oshadi. Sababi uslubiy qo'llanmada kimyoviy tushuncha, atama, jarayonlar va laboratoriya jihozlarining umumiy tavsifi beriladi. Mazkur tavsiflar rasmlar bilan keltiriladi, bu esa o'z navbatida, maktab o'quvchilarining berilgan atamani uning tasviri bilan ham o'qib, ham ko'rib tushinish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, moddalarning ekstensiv va intensiv xossalari tushuntirishda ularning ta'rifi bilan bir qatorda rasmlari bilan keltirilgan uslubiy qo'llanmalardan foydalanish juda yaxshi samara berishi aniq [7]. Rasmlar bilan atamalarining izohi berilgan uslubiy qo'llanmadan fodalaniib mustaqil o'qigan har qanday o'quvchi kimyo faniga qiziqishi oshib, fan bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lishi tabiiy. Undan tashqari kimyo fanidan 3D texnologiyalariga asoslangan interaktiv o'quv qo'llanma yaratilib, undan o'quvchilar foydalansa, ularning kimyo fani bo'yicha bilim va ko'nikmalari yanada



oshishi aniq. Chunki bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalardan foʻydalaniish oʻquvchilarga qiyinchilik tugʻdirmaydi. Shuningdek, umumtalim maktab oʻquvchilari izohi berilgan rasmlil uslulbiy qoʻllanmalar, 3D texnologiyalariga asoslangan interaktiv oʻquv qoʻllanma va kimyo laboratoriya xonasi kimyoviy reaktivlar boʻlmagan sharoitda ham kimyoviy reaksiyalarni koʻrishi, yaʼni nostandard laboratoriya ishlari jamlangan oʻquv uslulbiy qoʻllanmadan foydalansa kimyo faniga qiziqishi yanada oshadi. Masalan, shamning yonishi natijasida koʻmirni olish mumkin. Buning uchun yonayotgan shamning olovli qismiga issiqlikka chidamli boʻlgan shisha boʻlagi tutib turiladi va shishani yuzasi qorayishini koʻrish mumkin. Bunday uslulbiy qoʻllanmalarning umumtaʼlim maktablarga joriy qilinishi taʼlim tizimida taʼlim-tarbiya jarayoni va ilmiy-tadqiqotlarning samaradorligi, avvalambor, taʼlim oluvchilarning ehtiyoji, oʻqituvchilar saviyasi, amalda foydalanilayotgan oʻquv adabiyotlarining mazmuni hamda taʼlim oluvchilarning darsda va darsdan tashqari vaqtlarda mustaqil taʼlimini shakllantirishga qaratilgan infratuzilma bevosita taʼminlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasining Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-5349-son Farmoni.

2. Tojiyev M. Mamadaliyev K. Xurramov A. Rivojlangan xorijiy mamalakatlar oliy taʼlim tizimi rivojlanishida kredit sisitemasining oʻrni va ahamiyati. Oliy taʼlim taraqqiyoti istiqbollari: toʻplam №3. Toshkent 2015. 52-b.

3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi “Kimyo va biologiya yoʻnalishlarida uzluksiz taʼlim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ 4805-sonli qarori.

4. Соболева Э. А. Организация самостоятельной работы с учебником. // Химия в школе, 2002, № 1. С.38.

5. Широ́ва М.Ф. Организация самостоятельной работы учащихся // Химия в школе, 2001, №9. С.38.

6. Атауллаев З.М. Важность формирования типа самостоятельной учебы студентов в высшей школе. Ж. Гуманитарный тракт, 2020, №98. С. 15-18. <https://idpluton.ru/vypusk-97-nauchnogo-zhurnala-gumanitarnyyj-traktat-2/>



UZLUKSIZ TA'LIM BOLALARNI INNOVATSION DIDAKTIK O'YINLAR YORDAMIDA MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH

G.A.BERDALIYEVA,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,

Innovatsion didaktik o'yinlarning ko'pchiligi bevosita ta'lim bilan bog'liq bo'lib, bolaga ma'lum bilimlarni o'zlashtirishda yordam beradi. Didaktik o'yinlar bog'cha yoshidagi bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos keladigan ta'lim metodlaridan hisoblanadi. Mazkur maqolada bevosita innovatsion didaktik o'yinlar, ularning mazmuni va foydalanish jihatlari e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: *bolalar, o'yin texnologiyalari, ta'lim vositalari, o'yinchoqlar, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, bola xarakter va psixologiyasi, o'yin faoliyati asosida tarbiyalash masalalari.*

Many of the innovative didactic games are directly related to education, helping the child to master certain knowledge. Didactic games are one of the teaching methods suitable for the age and abilities of children of kindergarten age. This article focuses directly on innovative didactic games, their content and aspects of use.

Key words: *children, game technologies, educational tools, toys, pupils of preschool educational institutions, child character and psychology, issues of upbringing on the basis of play activities.*

Bolalarning yoshlari ulg'ayib mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari ularning atrofidagi narsa va hodisalar ko'magida dunyoqarashi ham kengayib boradi. Maktabgacha yoshdagi bola atrofidagi voqea-hodisalarning xususiyatlarini bilish jarayonida ular bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa xarakterliki, bola bilishga tashnalgidan atrofidagi o'zining haddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalarga mansub bo'lgan, o'zining kuchi yetmaydigan, imkoniyati doirasidan tashqari ishlar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu tezroq katta bo'lish ichki istagining tashqi ko'rinishidir.

Bolalar o'yin jarayonida o'z ixtiyorlaridagi narsalarni, o'zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo'lgan faoliyatga aylantirib xohlagancha harakatda bo'ladi. Bolalarning o'yinlari ularning ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan uyg'un rivojlanishlari manbaidir. Bolalarning o'yinlarida kattalarga xos bo'lgan mehnat ham, turli narsa va hodisalar haqida tafakkur qilish, xayolparastlik, dam olish, xushchaqchaqlik manbalari ham mujjasamdir. Ya'ni bu jarayonlarning barchasi o'yin faoliyatida namoyon bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish o'rinliki, o'yin faqat tashqi muhitdagi narsa-hodisalarni bilish emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. O'yinlarda bolalarning barcha ruhiy jarayonlari bilan birgalikda ularning individual hislatlari ham shakllana va rivojlana boradi.

Demak, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya ishlarining



muvaqqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tarzda tashkil qila bilishga bog'lik. Shuni ham aytib o'tish kerakki, fan-texnika mislsiz rivojlangan hozirgi zamonda yaratilayotgan, hayratga soladigan yangiliklar bolalarga bir mo'jizadek ko'rinadi. Natijada ular ham o'zlarining turli o'yinlari jarayonida o'xshatma qilib (analogik tarzda) har xil mo'jizalarni o'ylab topadilar (uchar ot, uchar mashina, gapiradigan jonivorlar va hk.). Bundan tashqari, bola xayoliy dunyosida ehtiyojlari talab kilayotgan narsa-hodisalarni ham aks ettiradi. Ularning o'yin faoliyatlarida har xil afsonaviy obrazlarni yaratishlari odamning (shu jumladan bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirishi faol, ijodiy, o'zgaruvchan tafakkuri jarayonidir.

O'yinlar bolalarning jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyasida, ularda mustaqil fikrlash ko'nikmasining shakllanishda katta ahamiyat kasb etadi. O'yinlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan mashg'ulotlar, ularning kundalik hayotidagi kuzatishlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyat ham kasb etadi. Bolalarning o'yinlari o'zining rang-barangligi, har birining o'z mazmuni va tashkil etish yo'siniga, bu jarayonda foydalaniladigan jihozlarning turlari hamda o'miga ko'ra ham xilma-xillik kasb etadi. Shu asnoda maxsus adabiyotlarda bolalarning o'yinlari turkumlashtirilgan. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi ilmda o'yinlarni ikki katta guruhga bo'linishi ta'kidlanadi: ijodiy va qoidali o'yinlar.

Ijodiy o'yinlarning mazmunini bolalarning o'zlari o'ylab topadilar va ularda o'z taassurotlari, borliq haqidagi tushunchalari, bilimlari hamda unga munosabatlarini aks ettiradilar. Ijodiy o'yinlarda bolalarning tevarak-atrofdan, kattalar orasidagi muomala-munosabatdan olgan taassurotlari aks ettiriladi. Ijodiy o'yinlarda bolalarning erkinligi, mustaqilligi, tashkilotchiligi va ijodkorlik qobiliyatlari to'raligicha namoyon bo'ladi.

Qoidali o'yinlar esa kattalar tomonidan yaratiladi va bola hayotiga tatbiq etiladi. Bunday o'yinlar o'z mazmuni va qoidalarining sodda yoki murakkabligi darajasiga asoslangan holda bolalarning yoshlariga qarab taqdim etiladi. Kattalar tomonidan belgilab qo'yilgan qoidalar asosidagi o'yinlarning ko'pchiligini xalq o'yinlari tashkil etadi. Ya'ni avloddan-avlodga o'tib, bizgacha yetib kelgan ko'cha o'yinlaridir.

Har ikkala turdagi o'yinlar o'zining xilma-xil ko'rinishlariga ega. Masalan, ijodiy o'yinlar sirasiga suyuqlik roli o'yinlarni kiritish mumkin. Didaktik va musiqiy o'yinlarni esa qoidali o'yinlar safiga kiritish o'rinni bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan har bir o'yinning o'ziga xos jihatlari, bajarilish shartlari bo'lgani holda, hammasi uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar ham bor: maqsad, vazifa va xulosaning mavjudligi, rejali harakatlar va hk. Bolalarning rivojlanishiga qarab, ularning o'yinda o'z oldilariga qo'yadigan maqsadlari ham o'zgarib boradi. Bolalar o'yinda maqsadga erishish uchun sheriklar tanlaydilar, zarur o'yinchoqlarni topadilar, o'yin davomida muayyan harakat va qiliqlar qiladilar. Boshqa faoliyat turlarida bo'lgani singari o'yin jarayonida ham bolalarning



shaxsiyati, psixik bilish jarayonlari, irodasi, hissiyoti, ta'sirchanligi, ehtiyoj va qiziqishlari jalb etiladi, o'yinda bolalar faol harakat qiladilar, muloqotda bo'ladilar, o'z bilimlaridan foydalanadilar.

Ma'lumki, o'yin bolalarning shaxsiy tashabbusiga ko'ra vujudga keladigan, ularning faol ijodiy yo'sindagi, yuksak ta'sirchanlik ruhi bilan ajralib turadigan erkin va mustaqil faoliyatdir. Pedagogik adabiyotlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinlarni ertalab nonushtagacha va nonushtadan keyin, mashg'ulotlar o'rtasida, ochiq havoda, uyqudan keyin o'tkazish maqsadga muvofikligi aytiladi. Ertalab rolli o'yinlar, qurish-yasash, harakatli o'yinlarni tashkil qilish tavsiya etiladi. Mashg'ulotlar o'rtasida esa harakatli, qoidali o'yinlar o'tkazilishi yaxshi samara berishi ta'kidlanadi.

Ochiq havodagi o'yinlar – yugurish, otish, sirpanish bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar, qoidali o'yinlar bolalarning jismoniy taraqqiyotiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Kunduzgi uyqudan keyingi o'yinlar sirasiga: sahnalashtiriladigan rolli o'yinlar, qurilish o'yinlari, ertak bo'yicha didaktik o'yinlar va hk. kiradi va ular bolalarning aqliy, ahloqiy, estetik tafakkurini takomillashtiradi.

Syujetli-rolli o'yinlar o'z mazmuni, bolalarning birgalikdagi xatti-harakati, o'zaro munosabatlari asnosida voqea-hodisalarning rivojlanishi bolalar ruhiyatida minnatdorlik hissini paydo qiladi, yaxshi kayfiyat uyg'otadi, bola jismi faoliyatini yaxshilaydi. Inson tabiatan shundayki, unga nima qiziq bo'lsa o'sha narsa uning ruhiyati, ongi va jismi uchun foydali hamdir. Shuning uchun ham odamzod o'ziga yoqqan faoliyat turi bilan shug'ullanishdan charchamaydi. Jumladan bolalar ham o'zlari yaxshi ko'rgan faoliyati bilan uzoq shug'ullana oladilar. Bu ularga hech malol kelmaydi.

Sahnalashtirilgan innovatsion o'yinlarning o'ziga xosligi shundaki, bolalar biror bir ertak yoki hikoya syujeti asosida ma'lum bir rolni bajaradilar. Yoki «Mehmon keldi», «Doktor huzurida», «Bozorda» singari o'ylab topgan rolli o'yinlarida ham o'zlari belgilab olgan rollarni sidqidildan bajaradilar. Sahnalashtirilgan innovatsion o'yinlar bolalarga eshitgan asarlari yoki ertaklaridan olgan tasavvurlarini mustaqil ifodalash yoki mashq qilish imkonini beradi. Bu o'yinlar bolalarda iroda, intizom, o'z harakatlarini boshqalarning harakatlariga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi. Sahnalashtirish bolalarni qayta so'zlashga o'rgatish usullaridan biridir.

Bunday innovatsion o'yinlarda bolalar o'zlarini o'sha asardagi qahramon o'rnida his etib, uning his-tuyg'ulari dunyosiga chuqurroq kirib boradi. Badiiy asarlarni qahramonlar tilida so'zlab berish bolalardagi xayol va tasavvurni rivojlantirishga yordam beradi hamda asar qahramonida mavjud bo'lgan jasurlik, o'z-o'ziga ishonch, mustaqillik kabi xarakter-xususiyatlarni o'zlashtirishga intiladi. Sahnalashtirilgan o'yinlarga tarbiyachi rahbarlik qiladi. Ertak yoki hikoyadagi mazmun bolalarga yaqin, ularning yoshi va qiziqishiga mos, tushunarli bo'lib



bola unga kirishib keta olsagina, asardagi obrazlar, harakatlar o'yinda to'g'ri aks ettiriladi. Sahnalashtirilgan innovatsion o'yinga tayyorlanish uchun ma'lum vaqt ajratiladi va har bir mashg'ulotda aniq bir masalalar hal etib boriladi. Didaktik o'yinlar ta'lim-tarbiya vositasi sifatida keng qo'llaniladi.

Innovatsion didaktik o'yinlarning ko'pchiligi bevosita ta'lim bilan bog'liq bo'lib, bolaga ma'lum bilimlarni o'zlashtirishda yordam beradi. Didaktik o'yinlar bog'cha yoshidagi bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos keladigan ta'lim metodlaridan biridir. Didaktik o'yinlardan passiv bolalarni jamoaga aralashtirish, ularning har xil vazifalarni qo'rqmasdan bajarishlari maqsadida ham foydalaniladi. Innovatsion didaktik o'yinlar, o'z navbatida, bolalarning birgalikda o'ynab, o'z manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishlari, bir-biriga ko'maklashish muvaffaqiyatidan xursand bo'lish kabi yaxshi munosabatlarni tarkib toptirishga yordam beradi. Ular shaxsning sofdillik, rostgo'ylik kabi ijobiy xislatlari shakllanishiga ham imkon yaratadi. Didaktik o'yinlar bolalarning amaliy faoliyatidir. Unda bolalar mashg'ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadilar. Shuning uchun ham didaktik o'yinlar bolalarning aqliy faoliyatlarini, mustaqil tafakkurini kuchaytiradi, olgan bilimlaridan har xil usullarda foydalanishlari uchun zaruriy shart-sharoit yaratib beradi.

Shuningdek, didaktik o'yinlar bolalarni tevarak-atrof to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Shaxsiy tajribalari va mashg'ulotlarda olgan bilimlarini amalda qo'llay bilishga o'rgatadi, ulardagi mustaqil fikrlash qobiliyatlari, ijodiy imkoniyatlarini rivojlantiradi, olingan bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga yo'naltiradi. Innovatsion didaktik o'yinlar bilimlarni o'zlashtirishning yengilroq, qiziqarliroq kechishiga yordam beradi. Bolalar yoshlariga mos qiziqarli faoliyat orqali o'yinda amalga oshiriladigan aqliy tarbiya vazifasini juda osonlik bilan, yaxshi o'zlashtiradilar. Didaktik o'yinlar kattalar tomonidan bolalarning aqliy rivojlanishi va mustaqil fikrlashini ta'minlash maqsadida yaratiladi. Unda o'yin elementlari qancha ko'p bo'lsa, bolalarga u shuncha ko'p quvonch bag'ishlaydi. Didaktik o'yinlarning eng muhim jihati uni o'tkazishdan ko'zda tutiladigan maqsaddir. O'yin o'z mazmun-mohiyati bilan bolalarda qiziqish uyg'otadi, ko'pincha o'yindagi yetakchi fikr didaktik o'yinning bosh sababi bo'ladi.

Bolalar o'yin faoliyatining yana bir ajoyib xususiyati shundan iboratki, bu jarayonda ularning hatti-xarakatlari va bajaradigan rollari, ko'pincha, umumiy xarakter kasb etadi. Ya'ni bola o'zining turli-tuman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lgan biron bir mutaxassisning xatti-harakatlarini emas, balki umuman faoliyatni aks ettiradi. Albatta, hayotiy tajribasi va faoliyati cheklangan kichik yoshdagi bolalar (ba'zan kichik guruh bolalari ham) o'zlarining o'yinlarida ma'lum shaxslar va ularning (masalan, onasi, otasi, akasi, tarbiyachisi va hk.) xarakatlarini aks ettiradilar. O'rta va katta yoshdagi bolalarning o'yinlarida bunday obrazlar umumiylik xarakteriga ega bo'la boshlaydi. Maktabgacha yoshidagi bolalarning



o'yinlari atrofidagi narsa va hodisalarni bilish quroli bo'lish bilan birga yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham egadir.

Interfaol didaktik o'yin bolalarda tez fikrlash ko'nikmasini shakllantiradi. U «Tez javob berish» deb nomlanadi. Bunda tarbiyachi har xil mavzularni o'rtaga tashlaydi. Bolalar shu mavzuga doir so'zlarni sanab beradilar. O'yinning sharti shundayki, har yo'nalish bo'yicha kim ko'p so'z topsa u yulduzcha olaveradi. Oxirida yulduzchalari ko'p bo'lgan bola g'olib bo'ladi. Masalan, tarbiyachi: «Uy hayvonlari», deydi. Bolalar: «Sigir, echki, buzoq...». Tarbiyachi: «Multifilmlar», deydi. Bolalar: «Maugli», «Alisa ajoyibotlar mamlakatida»...». Tarbiyachi: «O'quv qurollari» deydi. Bolalar: «Ruchka, qalam, sirkul...». Tarbiyachi qushlar, yovvoyi hayvonlar, multiklarning qahramonlari, osmon jismlari va hk.larni o'rtaga tashlayveradi. Bolalar javob topaveradilar. Ularning fikrlashi tezlashadi, so'z boyligi ortadi, xotirasi charxlanadi, bilimi ortadi.

Xullas, bolalarda mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish va ularni bunga yo'naltirishda badiiy asarlar bilan bir qatorda har xil didaktik o'yinlarning ham o'rni beqiyosligiga yuqorida taqdim etilgan o'yinlar misolida amin bo'lish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizova Z. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. –T.: O'qituvchi, 2010.
2. Аксенова А.К., Якубовская Е.В. Дидактические игры на уроках русского языка в 1-4 классах вспомогательной школы. –Москва: Просвещение, 1991.
3. Milliy o'yinlarda bola shaxsini shakllantirishning psixologik asoslari. Ped-psix. fan. nomz...diss. –T., 1996.
4. Михайленко Н.Я. Формирование сюжетно-ролевой игры в дошкольном детсаде. Автореф. дисс. ...доктора пед.наук. –Москва, 1987.; Проблемы дошкольной игры. /Под ред. Н.Н.Поддякова. –Москва: Педагогика, 1987.
5. Миндлина Т.Я. Дошкольное воспитание во Франции. –Москва: Педагогика, 1984. –С. 26.
6. Аксенова А.К., Якубовская Е.В. Дидактические игры на уроках русского языка в 1-4 классах вспомогательной школы. –Москва: Просвещение, 1991–С.149.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'TAO'TKAZUVCHANLIK HODISASINI O'QITISHDA MEDIATEXNOLOGIK INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Sh.M.SODIQOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti

Maqolada barcha ta'lim bosqichlarida o'tao'tkazuvchanlik hodisasi ya'ni, diamagnetiklar, paramagnetiklar, ferromagnetiklar, domenlar nazariyasi, gisterezis, o'tao'tkazgichlarning magnit xossalari o'qitishda mediatexnologik interfaol metodlarini qo'llash va ularning afzalliklari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: o'tao'tkazuvchanlik, diamagnetik, paramagnetik, ferromagnetik, domen, gisterezis, magnit singdiruvchanlik, Kyuri nuqtasi, o'tao'tkazgichlarning magnit xossalari, mediatexnologik interfaol metod.

The article describes the phenomena of superconductivity at all stages of learning, that is, diamagnetics, paramagnets, ferromagnets, domain theory, hysteresis, the use of interactive media technology methods in teaching the magnetic properties of conductors and their advantages

Key words: superconductivity, diamagnet, paramagnet, ferromagnet, domain, hysteresis, magnetic permeability, Curie point, magnetic properties of conductors, interactive method of media technologies.

В статье описаны явления сверхпроводимости на всех этапах обучения, то есть диамагнетики, парамагнетики, ферромагнетики, доменная теория, гистерезис, использование медиатехнологических интерактивных методов в обучении магнитным свойствам проводников и их преимущества.

Ключевые слова: сверхпроводимость, диамагнетик, парамагнетик, ферромагнетик, домен, гистерезис, магнитная проницаемость, точка Кюри, магнитные свойства проводников, интерактивный метод медиа-технологий.

Uzluksiz ta'lim jarayonida samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan ilmiy-metodik ta'minotni yaratishda mediatexnologiyalar innovatsion axborot manbai bo'la oladi. Ta'lim jarayoniga innovatsion dasturiy didaktik majmuani qo'llash quyidagi ta'limiy afzalliklarga ega:

– o'qitishning ijodiy muhiti yaratiladi;

– talaba sifatli va ishonchli o'quv-didaktik intellektual ma'lumotlar bilan ta'minlanadi, ya'ni ular o'zi shug'ullanayotgan sohasi bo'yicha ilm-fan va zamonaviy texnika-texnologiyalarni eng so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'ladi. Mediatexnologik ta'lim jarayonining asosiy maqsadi – mediasavodxonlikni takomillashtirish va insonlarni jamiyatdagi ijtimoiy mavqei oshishiga xizmat qilishdan iborat. Quyida hozirgi zamon fizikasining dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lgan "O'tao'tkazuvchanlik fizikasi" misolida ko'rib o'tamiz.

Ma'lumki, magnit maydonida joylashtirilgan har qanday jismning o'zi ham magnit



maydoni manbaiga aylanadi. Tashqi va xususiy magnit maydoni kuchlanganliklar nisbatlariga (μ) qarab, moddalar quyidagi turlarga bo'linadi [3, 287-289b]:

Diamagnetiklar. Diamagnetiklarning ko'pchilik atomlari xususiy magnit momentlariga ega bo'lmay, ularning magnit momentlari tashqi maydon ta'sirida vujudga keltiriladi. Bu jarayon qutublanmagan dielektrlarda elektr momenti vujudga kelish jarayoniga o'xshaydi. Vujudga keladigan magnit maydon induksion tashqi maydon $\vec{V}_o$ ga proporsional ekanligini hisobga olib, yozish mumkin ya'ni, $\vec{V}_o = \mu \vec{V}_a$.

Bu yerda, diamagnetiklar uchun $\mu < 1$, chunki tashqi maydon ta'sirida vujudga kelgan mikrotokning magnit momenti tashqi maydonni kuchsizlantirish tomonga yo'nalgan bo'ladi. Diamagnetikning xususiyatlari temperaturaga bog'liq emas, chunki atomlarning issiqlik harakatlari atom ichida vujudga kelgan toklarning yo'nalishlarini buza olmaydi. Diamagnetik effekt barcha moddalarga xos xususiyatdir. Diamagnetiklarning asosiy vakillari sifatida *suv, marmar, oltin, mis, simob* va *inert gazlarni* keltirish mumkin [2, 288-292b].

Ma'ruza jarayonida muammoli vaziyatlar vujudga keltirilib, muammoli savollar orqali talabalar hamkorligida yechib boriladi. Ya'ni,

1. Diamagnetiklar deb qanday moddalarga aytiladi? Degan muammoli savol navbatdagi muammoli savollarni keltirib chiqaradi.

2. Diamagnetiklarning atomlari xususiy magnit momentlariga egami?

3. Atomlarning xususiy magnit momentlari qanday vujudga keladi?

4. Vujudga keladigan magnit maydon induksiyasi nimaga teng?

5. Diamagnetikda tashqi maydon ta'sirida vujudga keladigan mikrotoklarning magnit momenti tashqi maydonni qanday o'zgartiradi?

6. Diamagnetikning xususiyatlari temperaturaga bog'liqmi?

7. Diamagnetiklarga misollar keltiring?

Paramagnetiklar. Paramagnetiklarning molekullari noldan farqli xususiy magnit momentlariga ega. Magnit maydoni bo'lmaganda bu momentlar betartib joylashgan bo'lib, jisimning magnitlanish vektori nolga teng bo'ladi. Paramagnet tashqi maydonga kiritilganda alohida atomlar va molekullarning magnit momentlari maydon bo'ylab joylashib qoladi. Natijada paramagnetiklarning xususiy maydoni tashqi magnit maydonini kuchaytiradi, ya'ni tashqi magnit maydonning kuchayishi ro'y beradi ($\mu > 1$).

Paramagnetiklarning magnitlanishi temperaturaga bog'liq bo'ladi. Temperatura ortishi bilan magnit singdiruvchanligi yomonlashadi. Chunki, issiqlik betartib harakati natijasida atom va molekular magnit momentlarining tashqi maydon ta'sirida egallagan o'zaro joylashuvlarining buzilishidir. Paramagnetiklarning magnit singdiruvchanligi, diamagnetiklarniki kabi tashqi magnit maydon induksiyasiga bog'liq emas. Paramagnetiklarga *kislorod, alyuminiy, platina* va *ishqor* hosil qiladigan metallar kiradi [2, 292-297b].



Ma'ruza jarayonida muammoli vaziyatlar vujudga keltirilib, muammoli savollar orqali talabalar hamkorligida yechib boriladi. Ya'ni,

1. Paramagnetiklarning molekulari xususiy magnit momentiga egami?
2. Tashqi maydon paramagnetiklarga qanday tasir ko'rsatadi?
3. Paramagnetiklarning xususiy maydoni tashqi maydonni qanday o'zgartiradi?
4. Paramagnetiklarning magnitlanishi haroratga bog'liqmi? Bunga sabab nima?
5. Paramagnetiklarning magnit singdiruvchanligi tashqi maydon induksiyasiga bog'liqmi?
6. Paramagnetiklarga misollar keltring?

Ferromagnetiklar. Ferromagnetizm – paramagnetizmning chegara holi hisoblanadi. Ferromagnetiklar – kuchli magnetiklar hisoblanib, o'z-o'zidan magnitlanib qolishi mumkin ($\mu > 1$). Hattoki tashqi magnit maydon bo'lmaganda ham ular magnitlanish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Ularning yana bir alohida xususiyatlari magnitlanishlarining (1-rasm,3) tashqi maydonga bog'liqligining murakkab xarakterga ega ekaligidir.

Agar diamagnetik va paramagnetiklar uchun magnitlanishning tashqi maydon kuchlanganligiga bog'liqligi chiziqli bo'lsa, ferromagnetiklar uchun ancha murakkabdir. Dastlab magnitlanish tez ortadi, so'ngra sekinlashib ma'lum qiymatga ega bo'lgandan so'ng o'zgarmay qoladi. Magnitlanishning bu qiymatiga to'yinish qiymati deyiladi. Bunday bog'lanishni quydagicha tushuntirish mumkin. Tashqi maydon kuchayishi bilan molekular magnit momentlarining maydon bo'ylab joylashib qolishi ortadi. Magnit momentlari maydon bo'ylab joylashmagan molekular soni kamaygan sari magnitlanishning o'sishi ham kamaya boradi va nihoyat barcha magnit momentlari maydon bo'ylab joylashib bo'lgandan so'ng magnitlanishning to'yingan qiymatiga erishiladi.

Ma'ruza jarayonida muammoli vaziyatlar vujudga keltirilib, muammoli savollar orqali talabalar hamkorligida yechib boriladi. Ya'ni,

1. Ferromagnetiklarning alohida xossalarini ayting?
2. Ferromagnetiklar magnitlanishi tashqi maydonga bog'liqmi?
3. Magnitlanishning to'yinish qiymati deb qanday qiymatga aytiladi?
4. Ferromagnetiklarga misollar keltiring?

Kyuri nuqtasi. Ferromagnetiklar yana bir ajoyib xususiyatiga egadirlar. Har bir ferromagnetik uchun Kyuri nuqtasi deb ataluvchi ma'lum temperatura mavjud bo'lib shu temperaturadan boshlab u o'zining magnit xususiyatlarini yo'qotadi. Agar magnitlangan mix qattiq qizdirilsa, u o'ziga temir buyumlarni tortmaydigan bo'lib qoladi. Kyuri nuqtasidan yuqoriroq temperaturadagi ferromagnetiklar paramagnetiklarga aylanadi [2, 302-304b]. *Temir* uchun Kyuri nuqtasi 1043 K, *Kobolt* uchun 1393 K, *nikel* uchun 631 K.

Ma'ruza jarayonida muammoli vaziyatlar vujudga keltirilib, muammoli savollar orqali talabalar hamkorligida yechib boriladi. Ya'ni,



1. Kyuri nuqtasi deb qanday haroratga aytiladi?

2. Kyuri nuqtasiga misollar keltiring?

Gisterezis. Biz yuqorida ferromagnetiklarning magnit singdiruvchanligi χ tashqi maydon kuchlanganligi H ga bog'liqligini ko'rdik.

Endi magnit induksiyasi B va H orasidagi bog'lanishni ko'raylik. Magnitlanishda ferromagnetik ichidagi magnit maydoni B dan H ning ma'lum qiymatigacha ortib boradi (4-rasm). Ferromagnetikdagi induksiya qiymatining o'zgarishi ΔB chiziqli bilan xarakterlanadi. Agar N kamaysa, induksiyaning kamayishi ΔB chiziqli bilan ifodalanadi. $B=0$ bo'lganda ham induksiya noldan farqli bo'ladi. Qoldiq magnitlanishni yo'qotish uchun esa oldingisiga teskari yo'nalishda maydon qo'yish kerak bo'ladi. Maydon kuchlanganligining $B=0$ dagi qiymati tutuvchi yoki **koersitiv kuch** H_k deyiladi. Maydon o'zgarishi bilan induksiya ham 4-rasmda ko'rsatilgandek o'zgaradi. Hosil bo'lgan chiziqqa **gisterezis** deyiladi. Koersitiv kuchlarning qiymatiga qarab ferromagnetiklar yumshoq va qattiq ferromagnetiklarga bo'linadi [3, 289-290b].

Yumshoq ferromagnetiklar uchun gisterezis sirtmog'i ingichka va koersitiv kuchlarning qiymati kichik bo'ladi. Ularga *temir*, *permalloy* va boshqalar misol bo'ladi. Yumshoq ferromagnetiklardan transfor- mator, generator, elektrodvigatellarning o'zaklari yasalanadi.

Qattiq ferromagnetiklar uchun gisterezis sirtmog'i keng va koersitiv kuchlarning qiymatlari ham katta bo'ladi. Shuni takidlash lozimki, gisterezis sirtmog'ining yuzasi ferromagnetikni magnitlash uchun bajarish kerak bo'lgan ishini xarakterlaydi.

1-rasm. Moddalarning xususiyatiga qarab gisterezis sirtmog'i.

Qattiq ferromagnetiklarga po'lat va uning qotishmalari kirib, odatda ulardan doimiy magnetiklar tayyorlashadi.

Ma'ruza jarayonida muammoli vaziyatlar vujudga keltirilib, muammoli savollar orqali talabalar hamkorligida yechib boriladi. Ya'ni,

1. Gisterezis chizig'i deb qanday chiziqqa aytiladi?

2. Koersitiv kuchlar deb qanday kuchlarga aytiladi?

3. Gisterezis sirtmog'i barcha ferromagnetiklar uchun bir xilmi?

4. Gisterezis sirtmog'ining yuzasi nimani ko'rsatadi?

Shunday qilib, ma'ruza jarayonida muammoli vaziyat vujudga keltiriladi va talabalarning ijodiy hamkorligida bu muammolar yechiladi.

O'tao'tkazgichlarning magnit xossalari. O'tao'tkazgichlarning diamagnetik xossaga ega ekanligini birinchi bo'lib, 1933 yilda nemis fizik olimlari V.Meyssner, R.Oksenfeld va F.Xaydenreyx kuzatdilar [1, 19-24b]. O'tao'tkazuvchan metall magnit maydonida joylashtirilsa, u o'tao'tkazuvchan holatda bo'lganda magnit maydoni undan itarilar ekan. Masalan, biror shar shaklidagi o'tao'tkazgichni olib, $T > T_k$ bo'lgan sharoitda tashqi magnit maydonida joylashtirilsa, uning ichidan magnit maydoni kuch chiziqlari kesib o'tishini kuzatishimiz mumkin. Agar haroratni kamaytirib, $T < T_k$ bo'lgan qiymatga erishilsa, tashqi magnit maydoni kuch chiziqlari o'tao'tkazgich hajmidan siqib chiqariladi



va uni aylanib o'ta boshlaydi. O'tao'tkazuvchan sharning ichida magnit maydoni bo'lmashligini magnit maydoni qayd etgichlari, ya'ni magnit datchiklari yordamida ham katta aniqlik bilan aniqlash mumkin [4, 73-81b].

O'tao'tkazgichlardan magnit maydonining itarilish hodisasini birinchi bo'lib Meyssner kuzatganligi uchun uning nomi bilan bu hodisa ko'pgina adabiyotlarda "Meyssner effekti" deb yuritiladi.

Demak, o'tao'tkazgichlar ideal diamagnitlar ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari shuni ham e'tiborga olmoq zarurki, o'tao'tkazgich magnit maydoni bilan o'zaro ta'sirlashganda tashqi magnit maydoni ma'lum bir kritik qiymatga erishganda o'tao'tkazgich normal holatga o'tadi [7, 26-29b].

Ya'ni harorat o'zgaramaganda ham o'tao'tkazgichni normal holatga o'tkazish mumkin ekan. Magnit maydonining bunday qiymatini o'tao'tkazgichning kritik magnit maydoni (N_k) deb qabul qilamiz. Kritik magnit maydonining qiymati namunaning haroratiga uzviy bog'liq bo'lib turli o'tao'tkazgichlar uchun mos ravishda o'ziga xos qiymatlarga egadir.

O'tao'tkazgichlar tashqi magnit maydoni bilan o'zaro ta'sirlashishlaridagi xossalari qaraib bir biridan farq qiladi. Mazkur farqqa qaraib o'tao'tkazgichlar I va II turlarga bo'linadi. Masalan, I tur o'tao'tkazgichdan tayyorlangan sterjen tashqi magnit maydonida joylashtirilsa, mazkur sterjenning magnitlanish qobiliyati bilan magnit maydoni va uning ichidagi magnit maydon bilan tashqi magnit maydon orasidagi bog'lanishlarni ifodalovchi ko'rinishda bo'ladi.

Mavzuga oid mediatexnologiya asosida yaratilgan elektron slaydlar va multimedialangan elektron qo'llanma ma'ruza jarayonida axbrot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Talabalarda mediasavodxonlikni oshirishning samarali tomoni internet va kompyuter orqali axborotni yig'ish hamda undan o'rinli foydalanishdir. Bu esa o'z navbatida talabalarda tadqiqotchilik, kreativlik xislatlarini kasbiy yo'nalganlik axbrot ta'minoti tamoyillari asosida yanada rivojlantiradi [6, 86-98b].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Содиқова Ш.М. Ўрта ўтказувчанлик назариясининг ривожланиш тарихи.

Ж.Физика, математика ва информатика. № 1. -Т.:2017., 19-24 б.

2.Матвеев А.Н. Электричество и магнетизм. -М.: Высшая школа, 1983, 463 с.

3.Фаниев А.Г., Авлиёқулов А.К., Алмардонова Г.А. Физика.-Т.: Ўқитувчи, 2002, 368 б.

5.Содиқова Ш.М. Ўтаўтказгичларнинг магнит хоссалари. Ж.Физика, математика ва информатика. № 1. -Т.:2016., 73-81 б.

6.Қурбонов М. Физикадан намоёиш экспериментларини услубий функцияларини кенгайтиришнинг назарий асослари. -Т.: Фан, 2008, 116 б.

7. Jo'rayev D., Sodiqova Sh.M. Kamerling Onnes tajribasi. J.Fizika, matematika va informatika. № 1. -Т.:2015.26-29б.



UZLIKSIZ TA'LIM TIZIMIDA SPORT-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI: MUAMMOLAR VA UNI YECHIMLARI

V.SH.RAXIMOV,
O'z MU p.f.n., dotsent

В данной статье проводится анализ недостаточного развития спортивно-оздоровительного туризма в Узбекистане, а также определяется роль и значимость менеджера в его развитии в системе непрерывном образовании.

Ключевые слова: непрерывное образование, здоровье, спортивно-оздоровительный туризм, социально-педагогическое развитие, менеджер, планирование.

Ushbu maqolada O'zbekistonda sport-sog'lomlashtirish turizmining yetarli darajada rivojlanmaganligi tahlil qilinib, uzluksiz ta'lim tizimida menejerning uning rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati ham belgilab berilgan.

Tayanch so'zlar: salomatlik, sport-sog'lomlashtirish turizmi, ijtimoiy-pedagogik rivojlanish, menejer, rejalashtirish.

This article analyzes the insufficient development of sports and health tourism in Uzbekistan, and also determines the role and importance of a manager in his development in the system of continuous education.

Key words: health, sports and health tourism, socio-pedagogical development, manager, planning.

Bugungi kunda sport-sog'lomlashtirish turizmi sohasini rivojlantirish yangi O'zbekistonni shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari sirasiga kiradi. O'zbekiston Prezidentining 2020 yil 30 oktabrda "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6099 farmonida aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yomon odatlardan voz kechish, sog'lom turmush tarzi tamoyillariga amal qilish to'g'ri ovqatlanish, tiklanish va reabilitatsiya ishlarini tizimli va samarali tashkil etish, jismoniy faollik uchun ommaviy tadbirlar, tegishli infratuzilmani yaratish va boshqa zarur shart-sharoitlar belgilab qo'yilgan [2]. Shu bilan birga, turizm, sport va madaniy meros sohalarida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, ushbu hududlarda infratuzilmani jadal rivojlantirish, obyektlardan samarali foydalanish va aholi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida ilg'or xorijiy tajribalar asosida mustahkam meyoriy-huquqiy baza shakllantirildi. Buning negizida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 apreldagi "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6199-son farmoni qabul qilingan [3].

Farmon asosida O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligining turizm sohasidagi asosiy vazifalari va faoliyatidan biri sifatida quyidagilar belgilandi: turizm



turlarini diversifikatsiya qilish, birinchi navbatda, turizmni rivojlantirish ziyorat, ekologik, etnografik, ishbilarmonlik, sport-sog'lomlashtirish, gastronomik, tibbiy, o'quv va ilmiy turizmni, shuningdek, ularning infratuzilmalarini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish; turizm sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni yuqori saviyada tashkil etish, tarmoq turizmi fanini rivojlantirishga ko'maklashish va boshqalar [3].

Sport-sog'lomlashtirish turizmi zamonaviy jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olgan muhim ijtimoiy hodisa sifatida uning hayotining asosiy sohalariga keng ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning asosiy bo'g'ini sport tashkilotlari bo'lib, ularning faoliyati aholini jismoniy tarbiya va jismoniy rivojlantirishga, shuningdek, sport zaxiralarini tayyorlashga qaratilgan [4].

Sport-sog'lomlashtirish turizmi jamiyatning muhim qismi bo'lib hayotning mustaqil, ijtimoiy yo'naltirilgan sohasidir; tabiatga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, xalqlar va millatlar o'rtasida o'zaro tushunish va hurmatni tarbiyalash orqali shaxsni ma'naviy va jismoniy kamolotining samarali vositasidir.

Haqiqatan ham sport-sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlashga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish muammosi zamonaviy tadqiqotlarning etishmasligi ko'zga tashlanmoqda. Bu masala prinsipial jihatdan yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Bu holat biz ko'rib chiqayotgan muammoning nazariy va uslubiy darajada dolzarbligini belgilaydi. Shunday qilib, hozirgi vaqtda tadqiqotimizning dolzarbligi quyidagi qarama-qarshiliklarni hal qilish zarurati bilan bog'liq:

- sport-sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirish zarurati va ushbu muammoni tashkiliy-amaliy hal qilish uchun zarur shart-sharoitlarning yo'qligi;
- sport-sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish muammosi bo'yicha keng qamrovli materiallar hamda jismoniy tarbiya va sport voqeligini aks ettiruvchi zamonaviy tadqiqotlarning etishmasligi;
- sport-sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirishning prinsipial yangi dasturini ishlab chiqish zarurati va bu yo'nalishda uslubiy ishlanmalarning yo'qligi;
- usliksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlariga kerakdi bo'lgan sohaning yetuk mutaxassislariga bo'lgan extijojning mavjudligi.

Sport-sog'lomlashtirish turizmining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish shuni aytishga imkon beradiki, jismoniy tarbiya va sport sanoatida turizmning ushbu turi yetarli darajada faoliyat ko'rsatmasligiga sabab bo'ladigan ikkita bir yo'nalishli tendensiyalar mavjud [4,6].

Birinchi tendensiya sport-sog'lomlashtirish turizmini moliyalashtirish va davlat tomonidan tartibga solish darajasini pasaytirishda, bir vaqtning o'zida ularga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini berishda namoyon



bo'ladi. Davlat sport inshootlaridan qisman tijorat maqsadlarida foydalanish, treninglar va mahorat saboqlari o'tkazish, esdalik sovg'alari sotish, ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish, homiylarni jalb qilish va hokazolar orqali tadbirkorlik imkoniyatlarini amalga oshirish huquqini beradi, bunda raqobatdosh ustunlikni yaratadigan asosiy afzalliklar imidj va boshqalar hisoblanadi. Shunday qilib, davlat tomonidan tartibga solinadigan tartibga solish sport-sog'lomlashtirish turizmining ijtimoiy, iqtisodiy va sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan bir qator muammolarini hal qilishga to'sqinlik qiladi.

Ikkinchi tendensiya jamiyatning ajralmas qismi sifatida bolalar va yoshlar o'rtasida sport-sog'lomlashtirish turizmiga qiziqishning yetarli darajada emasligida namoyon bo'ladi. Ushbu holat ushbu turdagi faoliyatning barcha resurslaridan to'liq foydalanishga imkon bermaydi, bu uning ijtimoiy, iqtisodiy va sog'lomlashtirish samaradorligini sezilarli darajada kamaytiradi [6].

Sport-sog'lomlashtirish turizmi sohasidagi zamonaviy mutaxassis bir qator vakolatlarga ega bo'lishi kerak, ular orasida:

- tashkiliy va boshqaruv (sport-sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda ishtirok etish);
- tashkilot va bo'limlar faoliyatini rejalashtirish va boshqalar;
- axborot-tahliliy (boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish);
- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash;
- tadbirkorlik (biznes loyihalarini ishlab chiqish; tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish) [5].

Bundan tashqari, mutaxassis sport-sog'lomlashtirish turizmini ishlab chiqarish faoliyatiga qo'shishning qaysi variantlari ma'lum bir yo'nalish uchun eng mos kelishini yuqori aniqlik bilan aniqlashi kerak. Ushbu shartlar tashkilot xodimlari bilan to'g'ridan-to'g'ri shaxsiy aloqalar asosida, so'rovnoma va korxonaning ichki ish tartibi bilan bir qatorda tashkiliy jarayonlarning ishlash xususiyatlarini tushunish orqali aniqlanadi. Shu bilan birga, xodimlar uchun ta'lim faoliyatini olib borish uchun imkoniyatlar mavjudligi uchun tashqi muhitni tahlil qilish kerak [5].

Sport turizmi bo'yicha klublar va tegishli tashkilotlarda jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini rejalashtirishda birinchi va eng muhim qaror bu tashkilotning maqsadlarini tanlashdir. Sport-sog'lomlashtirish turizmining asosiy umumiy maqsadi – axolining barcha qatlamlarini sog'lomlashtirish. Sog'lomlashtirishni amalga oshirish uchun strategik rejalashtirish jarayonining muhim qismi bo'lgan maqsadlar ishlab chiqiladi, agar ular to'g'ri shakllantirilsa, aholi o'rtasida sport va jismoniy tarbiyani ommalashtirish kerak bo'ladi.



Xodimlar faoliyati samaradorligini baholashda quyidagilar hisobga olinadi: bajarilgan ishlar hajmi; taqdim etilayotgan xizmatlar sifati; vazifalarning murakkabligi; tayinlangan funksional vazifalarning xususiyatlari; ish natijalari.

Sport-sog'lomlashtirish turizmini samarali rivojlantirish uchun sport-sog'lomlashtirish turizmi bo'yicha sport menejeriga alohida o'rin berilgan. Maxsus adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, menejer o'z ishini quyidagicha muvofiqlashtirishi kerak:

jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini xodimlar bilan birgalikda rejalashtirish va uni barcha darajalarda takomillashtirish (butun sport muassasasining umumiy, mutaxassisliklar, guruhlar, individual darajalar doirasida); sport-sog'lomlashtirish turizmining xo'jalik faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, uning natijalari uchun javobgar bo'lgan tashkiliy tuzilmani yaratish; sport-sog'lomlashtirish turizmining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi uslubi, axborot va psixologik ta'minotni rivojlantirish; xizmatlar mijozlari bilan ishlashda shaxsga yo'naltirilgan, insonparvarlik, faoliyatga yo'naltirilgan, ijtimoiy-madaniy, ijodiy va kommunikativ kabi uslubi yondashuvlardan foydalanish [5].

Ma'lumki, sport-sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirishning asosiy sharti turizm profili bo'yicha mutaxassislar tayyorlashning samarali tizimini shakllantirish hisoblanadi. Shu munosabat bilan uzliksiz ta'lim tizimida sport-sog'lomlashtirish turizmi sohasini yanada rivojlantirish dasturining ham, yetakchi vazifasi sifatida turizm mutaxassislarini tayyorlashda o'quv jarayonini tashkil etishni takomillashtirish, turistik ta'lim-pedagogik tizimini shakllantirish, ularning kasbiy va ishbilarmonlik fazilatlarini shakllantirish vazifasi ilgari surilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommaviylashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktabrdagi «Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PF-6099-son Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 06.04.2021 yildagi PF-6199-son Farmoni.

4. Савенкова, М. С. Спортивно-оздоровительный туризм: принципы и условия организации [Текст] / М. С. Савенкова // Спортивная педагогика: новости, мнения, обучение. – 2013. – №3. – С. 20–27.

5. Полат, Е. А. Менеджмент в спорте [Текст]: учебное пособие / Е. А. Полат. – Санкт–Петербург: Питер, 2015. – 314 с.



JISMONIY TARBIYA FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARGA INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH

X.B.SUYAROV,

NavDPI 1-kurs doktoranti

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'sishi va rivojlanishida jismoniy tarbiya fanining ahamiyati, jismoniy tarbiya o'yinlari vositasida o'quvchilarning harakat faoliyatini shakllantirishga noan'anaviy yondashishning o'ziga xos o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya jismoniy madaniyat, jismoniy tayyorgarlik, ma'naviy yetuklik yondashuv asosida ish olib borish.*

O'zbek xalqining ming yillar davomida yaratgan, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy boy, axloqiy pok, jismoniy barkamol qilib tarbiyalash bugungi kunda pedagogika fani oldidagi muhim masalalaridan biridir. Buning ustiga maktab dasturida o'rin olgan sport turlari vositasida yosh avlodning jismoniy sifatlarini rivojlantirish juda qulay.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish, Vatan ravnaqini ta'minlaydigan yosh avlodni voyaga yetkazish masalalariga jiddiy e'tibor berilmoqda. Yuksak ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarni o'ziga jam qilgan, har tomonlama yetuk barkamol insonni yetishtirish, o'sib kelayotgan yosh avlod salomatligini mustahkamlash borasida hukumatimiz tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Millatning eng muhim strategik boyligi– fuqarolarning salomatligi hisoblanadi. O'quvchi-yoshlarning sog'ligini saqlash va mustahkamlash, ularning jismoniy kamolatga erishishda jismoniy tarbiyaga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish o'quv muassasalarining ulug'vor vazifalaridandir.

Jismoniy tarbiyaning muhim muammolaridan biri harakat faoliyatiga o'rgatishning yangi uslub va shakllarini yaratishdan iboratdir. Shu bilan birga jismoniy tarbiya fani ham o'quvchilarning jismoniy tarbiya bilan muntazam olib boriladigan mashg'ulotlar orqali jismoniy tarbiyaga ehtiyoj va qiziqishni uyg'otish muammolariga hamisha diqqat qilib kelmoqda.

Insonni har tomonlama va barkamol rivojlanishi umumiy tizimida maktab yoshidagi o'quvchini jismoniy tarbiyalash alohida o'rin tutadi. Aynan mana shu yoshida mustahkam sog'lik, yuksak ish bajarish qobiliyatiga moslashtiriladi: shu yillarda harakatlanish faoliyati hamda jismoniy sifatlarini dastlabki tarbiyalash sodir bo'ladi.

Ilmiy ma'lumotlardan harakatlari yetishmasligi o'quvchilarning faqat sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, balki ularning aqliy ish bajarish



qobiliyatlarini ham pasaytirishi, umumiy rivojlanishini ortda qolishi, o'quvchilarni atrofda qilarga befarq qilishi ma'lum. O'quvchilar kundalik hayotlarida ham, mashg'ulotlarda ham ko'p harakatlanishlari kerak.

Harakatsiz o'quvchi sog'lom o'smaydi. Harakat–bu turli kasalliklarni, ayniqsa, qon-tomir, nafas olish, asab sistemasi kasalliklarini oldini olish demakdir.

Harakat – bu samarali davolash vositasi. Maktab yoshida tarbiyalash inson mohiyati shakllanishi umumiy jarayonida juda muhim rol o'ynashini aytib o'tish kerak. Uni bu yoshida turli qobiliyatlari ancha jadal rivojlanadi, jismoniy sifatlari shakllanadi, xarakter belgilari ishlab chiqiladi. Aynan mana shu yoshida o'quvchining barkamol rivojlanishi uchun mustahkam poydevorga asos solish kerak.

O'quvchilarda jismoniy faollikning yetishmasligi organizm funksiyalari va uning faoliyatiga salbiy ta'sir qiladi, oqibatda harakat malakalar va asosiy jismoniy sifatlarning rivojlanishini susaytiradi.

Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy tarbiya darsini samaradorligini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, o'quvchilarni harakat faolligini oshirish bilan jismoniy tarbiya darslarini samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda biz tanlagan mavzuning dolzarbligi va muhimligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Maktabda jismoniy tarbiya jarayonini individuallashtirish ta'limning salomatlikni shakllantiruvchi funksiyasini amalga oshirishda eng muhim boshlang'ich qoidalardan biri hisoblanadi. Ushbu holda individuallashtirish mashg'ulot ta'sirlari ustivorligini tan olish muhim o'rin egallaydi.

Nazariy va amaliy nuqtai nazardan o'rta maktab yoshidagi o'quvchilarning jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etishda individuallashtirish yondashuvni ishlab chiqish hamda o'quvchilarining jismoniy sifatlari tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shu boisdan, o'quvchilarni jismoniy tarbiya darslarida individuall yondashish muammolarini ilmiy ishlab chiqish, ularning jismoniy sifatlari yaxshilash bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borish zarur.

Mazkur ishning dolzarbligi muammoning mavjudligidan dalolat beradi, uning mohiyati jismoniy tarbiya bo'yicha ta'lim jarayonining nazariy, metodologik va tashkiliy asoslari yetarli ishlab chiqilmaganligi, uning boshlang'ich sinf o'quvchilarini harakat faolligini oshirish bilan jismoniy tarbiya darslarini samaradorligini oshirishdan iborat.

Yuqorida qayd etilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar asosida amalga oshiriladi:

- jismoniy madaniyat va sport sohasida o'quvchilarning dastlabki harakat faolligini oshirish, bilimlari, qiziqishlari va qobiliyatlari, jamoali harakatlarda faol ishtirok etishi;

- o'quvchilarda harakat faoliyati to'g'risida zaruriy tasavvur yaratish va



harakat texnikasini asosini o'rgatish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini tahlil etish;

- jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarni harakat faolligini oshirishda jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish orqali jismoniy tekzorlik sifatlarini tarbiyalashning samarador usullari, shakllari, yo'llarini aniqlash.

- umumta'lim maktabidagi boshlang'ich sinf o'quvchilarning jismoniy rivojlanish jarayoni.

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarni jismoniy tarbiya darsida harakat faolligini oshirishda o'quvchilarda jismoniy sifatlarini, ko'nikma va malakalarni shakllantirish sharoitidagi faoliyati.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiya darsida harakat faolligini oshirishda jismoniy vositalarni qo'llash orqali ularni jismoniy sifatlarini tarbiyalashni nazariy hamda tajriba yo'li bilan asoslab berildi.

- Jismoniy tarbiya darslarida jismoniy vositalar orqali o'quvchilarni harakat faolligini oshirishda to'liq va har tomonlama foydalanilsa; har bir o'quvchining jismoniy tayyorgarligi va jismoniy sifatlari muvaffaqiyatli rivojlanishiga tez va oson erishish mumkin.

- umumta'lim maktablaridagi boshlang'ich sinf o'quvchilarning jismoniy tarbiyasida jismoniy vositalarni qo'llash jismoniy tarbiya samaradorligini oshiruvchi, o'quvchilarning harakat faolligini oshirish hamda jismoniy sifatlarini tarbiyalovchi vosita sifatida asoslab berish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarning jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda harakat faolligini oshirishda jismoniy mashqlardan foydalanish usullarini ko'rsatish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. O'zbekiston" – 2017 y.

2. Sh.Mirziyoev Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston". NMIU, 2016 y.

3. Sh.Mirziyoev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2016y.

4. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni. 1.Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1997.

5. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi, 7-maxsus son. T.: Sharq, 1999.



INNOVATSION YONDASHUVLARDAN FOYDALANISHDA UMUMIY O'RTA MAKTAB VA OLIY TA'LIM TIZIMI BOSQICHLARI O'RTASIDAGI UZLUKSIZLIK

Z. T. RAXIMOV,

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti professori,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Innovatsion yondashuvlardan foydalanishda umumiy o'rta maktab va oliy ta'lim tizimi bosqichlari o'rtasidagi uzluksizlikni ta'minlash hamda ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda yangiliklar kiritish mazmuni, usullari, shakllari, an'anaviy va innovatsion yondashuvlarning qiyosiy tavsifi va tahlili, ta'lim oluvchilarning yosh, psixologik, fiziologik imkoniyatlaridan kelib chiqib ularda innovatsiyalarga intiluvchanlikni rivojlantirish masalalari talqin qilingan.

Kalit so'zlar: *Innovatsiya, yondashuv, sifat, mazmun, usul, shakl, tahlil, natija, imkoniyat, motivatsiya, uzluksizlik.*

В использовании инновационных подходов, содержании, методах, формах, сравнительном описании и анализе традиционных и инновационных подходов для обеспечения преемственности между этапами общеобразовательной средней школы и системой высшего образования, а также внедрения инноваций в эффективную организацию учебно-воспитательного процесса, решаются вопросы развития в них стремления к инновациям, основанного на принципах

Ключевые слова: *Инновация, подход, качество, содержание, метод, форма, анализ, результат, возможность, мотивация, непрерывность.*

In the use of innovative approaches, the content, methods, forms, comparative description and analysis of traditional and innovative approaches to ensure continuity between the stages of the general secondary school and the higher education system, as well as the introduction of innovations in the effective organization of the educational and educational process, the issues of developing the aspiration for innovation in them, based on the.

Key words: *Innovation, approach, quality, content, method, form, analysis, result, opportunity, motivation, continuity.*

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2019 yil 24 may kuni O'zbekiston Milliy universitetida oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari bilan bo'lgan uchrashuvda ta'kidlaganidek: «Ilmni, tarbiyani to'g'ri qilsak, hamma sohalarini malakali mutaxassislar o'zlari rivojlantiradi»[1], – ana shundan kelib chiqqan holda, ta'lim ustuvorligi, ta'lim mazmuni va tuzilishi o'zgarmoqda, yangi standartlar joriy etilmoqda, ta'lim sifati rivojlanishning yangi, yanada yuqori bosqichiga ko'tarilmoqda.

Bugungi kun uchun eng muhim va zarur omil-bilimlarni mustahkamlash va amalda ro'yobga chiqarish usullarini o'zlashtirishga ko'maklashish bo'lib, bu faqat amaliy mashg'ulotlar davomida amalga oshirilishi mumkin. Amaliy mashg'ulotlarning maqsadima'ruzada olingan bilimlarni umumlashgan shaklda chuqurlashtirish, kengaytirish,



detallashtirish, talabalarning bilish qobiliyatlarini, mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatini rivojlantirish hamda kasbiy mahoratni rivojlantirishga hissa qo'shishdan iborat. Amaliy mashg'ulotlarda talabalar ma'ruzachi va opponentlar sifatida harakat qilishga o'rganishlari, intellektual muammo va vazifalarni, isbotlar va munozaralarni yuzaga keltirish va hal qilish ko'nikma va malakalarini egallashlari, o'z nuqtai nazarini himoya qilishlari, erishilgan nazariy tayyorgarlik darajasini namoyish etishlari lozim. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishning samarali innovatsion usullariga quyidagilarni kiritishi va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishning yuqoridagi innovatsion usullarining barchasi quyidagi kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bilan birga olib borilishi shart:

– yangi axborot texnologiyalariga muvofiq talabalar tomonidan tayyorlangan multimedialiy taqdimotlarni loyihalash;

– hisobotlarni taqdimotlar bilan uyg'unlashgan holda loyihalash.

O'quv-bilish jarayonining samarali tashkil etilishi bir qator omillarga bog'liq. Mazkur omillar orasida ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish faolliklari innovatsion yondashuvlar asosida tashkil qilinayotgan o'quv mashg'ulotlari jarayonida bilimlarni puxta o'zlashtirish, ularni amalda qo'llash ko'nikma, malakalari ega bo'lishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli uzluksiz ta'limning turli bosqichlarida ta'lim berishga innovatsion yondashish, o'quvchi va talabalarda o'quv-bilish faolligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish taqozo etiladi.

Umumiy o'rta maktab ta'limi tizimida:

Uzluksiz ta'limning ushbu bosqichida o'quv jarayoniga innovatsion yondashish asosida o'quvchilarda dars mashg'ulotlariga nisbatan mas'ullik munosabati to'laqonli rivojlanadi. Shu sababli ularda yuqorida qayd etilgan o'quv-bilish faolligi negizida namoyon bo'luvchi harakatlarning barchasini tashkil etish imkoniyati mavjud. Shu sababli umumiy o'rta maktablarda fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlarini tashkil etishda ushbu holatni inobatga olishlari zarur. Buning muhim jihati – o'quv materialiga oid yangi axborotlar izlashning samarali bo'lishini ta'minlovchi (axborot izlash) ko'nikma, malakalarini shakllantirishdan iborat.

Ma'lumki, zamonaviy sharoitda o'quvchilar o'zlashtirilayotgan mavzuga doir qo'shimcha ma'lumotlarni bosma adabiyotlardan emas, balki internet xalqaro axborot tarmog'i orqali izlashni ma'qul ko'radi. Shuning uchun o'quvchilar fanlarining o'qituvchilari bilan o'zaro hamkorlikka erisha olishlari zarur. Hamkorlik asosida o'quvchini axborotlarni samarali izlashga o'rgatish quyidagilarni kafolatlaydi:

- 1) qanday ma'lumotni izlash zarurligini aniq biladi;
- 2) izlanishi zarur bo'lgan axborotning aynan qaysi saytlardan topish mumkinligi to'g'risida aniq tushunchaga ega bo'ladi;
- 3) diqqati boshqa materiallarga chalg'imagidi;
- 4) zarur, kerakli va muhim axborotlarga ega bo'ladi;
- 5) vaqti tejiladi.

Yangi axborotlarni samarali izlash o'quvchilarning o'quv faolligini



rivojlantirish bilan birga ularda mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatini ham o‘stiradi.

Umumiy o‘rta maktablarda o‘quvchilarni xotirada saqlash, qayta yodga tushirishni talab etuvchi topshiriqlar bilan birga raqam va ma’lumotlar bilan ishlashda oddiy fikriy operatsiyalarni taqozo etuvchi, keyinchalik esa raqam va ma’lumotlar bilan ishlashda murakkab fikriy operatsiyalarni taqozo etuvchi topshiriqlar bilan ishlashga o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Ijodiy mahsulot sifatida o‘quvchilar referat, esse, ijodiy insho kabilarni tayyorlashlari mumkin. O‘qituvchilar referatning ijodiy xarakter kasb etishiga, unda o‘quvchilarning o‘rganilayotgan masalaga nisbatan o‘z munosabatlarini bildirib olishlariga e’tiborni qaratishlari zarur.

Umumiy o‘rta maktablar o‘quvchilarining o‘quv-bilish faolligini rivojlantirishda o‘qituvchilar tomonidan interfaol metodlarni qo‘llashga asoslanuvchi topshiriqlardan foydalanishlari ham samarali natijalarni beradi.

1-jadval. O‘qitishda an’anaviy va innovatsion yondashuvlarning qiyosiy tavsifi

O‘qitishda an’anaviy va innovatsion yondashuvlarning qiyosiy tavsifi	
An’anaviy yondashuv	Innovatsion yondashuv
- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib kelish; - ilgari egallangan bilimlarni ham inobatga olish; - o‘qish jarayoni tezligini muvofiqlashtirish; - talaba tashabbusi va majburiyatini qo‘llab quvvatlash; - amaliyot orqali o‘rganish; - ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta’minlash; - o‘qish jarayonini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish; - o‘qituvchi – talabalar uchun o‘quv jarayonini engillashtirish bo‘lib qolishi; - o‘quv jarayonini baholash.	- o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirib borish; - o‘z vaqtida aloqalarning ta’minlanishi; - tushunchalarni amaliyotda qo‘llash uchun sharoitlarni yaratilishi; - o‘qitishusullarining turli xil ko‘rinishlari akif etilishi; - motivatsiyaning yuqori darajada bo‘lishiga erishish; - o‘tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi; - muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishi; - o‘z-o‘zini baholashning o‘sishi; - o‘quvchilarning predmetni mazmuniga, o‘qitish jarayoniga bo‘lgan ijobiy munosabati.

Oliy ta’lim tizimida

Uzluksiz ta’limning ushbu bosqichi barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha talabalarning ta’lim jarayonidagi faolligini samarali oshirishning eng qulay davr sanaladi. Bu davrda ta’lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil qilish, talabalarni o‘quv loyihalarini tayyorlashga jalb etish, ilmiy maqola, taqdimotlarni tayyorlashga o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta’lim talabalarining ta’lim jarayonidagi faolligini rivojlantirish ularning kelgusida kuchli raqobatga bardoshli kadrlar bo‘lib etishishlarini ta’minlaydi. Ana shu maqsadda oliy ta’limda muayyan shart-sharoit yaratish, shuningdek, talabalarda ta’lim innovatsiyalaridan foydalana olish qobiliyatini rivojlantirish samaradorligini



ta'minlovchi yo'llardan foydalanish talab etiladi. Talabalarning ta'lim jarayonidagi faolligi ularning yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlari, jismoniy imkoniyatlarining ifodasi sanaladi. Turli yosh davrida ta'lim oluvchilarning faolligini rivojlantirish o'ziga xos yondashuvni taqozo etadi. Shu sababli ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar uzluksiz ta'limning turli bosqichlari xususiyatlari, shuningdek, ta'lim oluvchilarning yosh, psixologik, fiziologik imkoniyatlaridan kelib chiqib ularda innovatsiyalarga intiluvchanlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

2-jadval. Ta'lim jarayoniga an'anaviy va innovatsion yondashuvlar qiyosiy tahlili

№	Ta'lim jarayoni asoslari	An'anaviy yondashuv	Innovatsion yondashuv
1	Kasb va mutaxassislik-larning malaka talablari	Sohalar bo'yicha muayyan talab va ehtiyojlarga mos holda yo'naltirilganligi	Fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanish tendensiyasi hamda ish beruvchilar talablariga muvofiq yo'naltirilganligi
2	O'quv reja va dasturlari	Kasbiy tayyorgarlik yo'nalishlarida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar hajmi, joylashish tartibi va qisqacha mazmuni	Kredit-modul tizimi asosida o'quv fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar hajmi, joylashishi va qisqacha mazmuni tartibga solish
3	Ta'limni tashkil etish shakllari	O'quv mashg'ulotlarini guruh (jamoaviy) shaklda o'tkazish	O'quv mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilar faoliyatini juftlikka yoki kichik guruhlariga ajratgan holda yoxud jamoaviy munozara shakllarida tashkil qilish
4	Ta'limni tashkil qilish jarayonida qo'llaniladigan texnologiya va metodlar	O'qitish jarayonini o'qituvchi rahbarligi ostida nazariy va amaliy shakllarda tashkil qilish	O'quv jarayonini innovatsion ta'lim texnologiya va metodlari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida samarali tashkil qilish
5	Nazorat va baholash	Savol-javoblar va uya vazifa natijalarini (5 -a'lo, 4-yaxshi, 3-qoniqarli mezon bo'yicha) baholash	Innovatsion texnologiya va metodlari qo'llanilishida yuzaga kelayotgan no'anaviy topshiriqlar, keyslar, nostandart testlar, kreativ topshiriqlar kabilarning natijalarini (kreativ (yuqori), produktiv (o'rta), reproduktiv (quyi) mezon va darajalar asosida) baholanishi



Zamonaviy sharoitda ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishda ham psixologik omillarga tayanish pedagogik faoliyatning ijobiy natijaga ega bo'lishini kafolatlaydi. Shunga ko'ra oliy ta'lim talabalarida ta'lim jarayonidagi faolligini rivojlantirishda ham psixologik omillar beqiyos ahamiyat kasb etadi. Zero, faollikning o'zi ham qobiliyat [3] sifatida psixologik xususiyatga ega. Qolaversa, faollik, eng avvalo, ehtiyoj, qiziqish hamda doimiy harakat (faoliyat) negizida yuzaga keladi. Shunday ekan, ta'lim jarayonida talabalarda o'quv-bilish faolligini rivojlantirishda dastlab bunga nisbatan ehtiyoj va qiziqishni uyg'otish, so'ngra bu yo'lda amaliy harakat, faoliyatni tashkil etishga unday olish muhimdir.

Oliy ta'lim talabalarida o'quv faolligini rivojlantirish jarayoni har qanday bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishidagi kabi quyidagi o'quv-intellektual mexanizmlar yordamida kechadi:

1) timsol (assotsiya)larning shakllanishi (bu mexanizm alohida bilimlar va tajriba qismlari o'rtasidagi vaqtinchalik aloqaning o'rnatilishi asosiga quriladi);

2) anglash (asosan ko'nikma va malakalarning shakllanishi uchun asos sifatida namoyon bo'ladi);

3) qismlarga ajratish va qismlarni umumlashtirish (tushunchalarning asta-sekin shakllanishi bilan bog'liq);

4) insayt (o'ylash, fikrlash; bunda axborotlarning mohiyati noma'lum ma'lumotlarning ma'lum bilimlar, avvalgi o'zlashtirish tajribalarga tayangan holda o'rganilishi ro'y beradi);

5) ijodiy yondashuv (yangi bilimlar, predmetlar, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi).

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish umumta'lim maktablari va oliy ta'limda o'quv jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi [2].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. 2019 yil 24 may kuni O'zbekiston Milliy universitetida oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari bilan bo'lgan uchrashuvidan. <https://president.uz/uz/2592>.

2. Azizxodjaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2006 62-70- betlar.

4. Muslimov N.A., Raximov Z.T., Xo'jaev A.A., Yusupov B.E. Ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent "Voris" nashriyoti, 2020. 192 b.

5. Erkaboeva N. Yangilangan fikrlarning mohiyati va uning ustuvor yo'nalishlari. // Xalq ta'limi, 2005 yil, 6-son, 19-20 betlar.



ZIDDIYATLARNING PEDAGOGIK MOHIYATI VA ULARGA OID MAVJUD YONDASHUVLAR

S.U.IBRAXIMOV,
O'zPFITi doktoranti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ushbu maqolada ziddiyatlarning pedagogik mohiyati va ular oid mavjud yondashuvlari haqida fikr yuritilgan bo'lib, pedagogik jarayonda ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan o'ziga xos jihatlar bayon etilgan.

Tayanch so'z va iboralar: pedagogik ziddiyatlar, kasbiy mahorat, ziddiyat tushunchasi, shaxslararo munosabat.

В статье рассматривается педагогическая природа конфликтов и существующие подходы к ним, а также описываются специфические аспекты разрешения конфликтов в педагогическом процессе.

Ключевые слова: педагогические противоречия, профессиональные навыки, понятие противоречия, межличностные отношения.

The article examines the pedagogical nature of conflicts and the existing approaches to them, and also describes the specific aspects of conflict resolution in the pedagogical process.

Key words: pedagogical contradictions, professional skills, the concept of contradiction, interpersonal relations.

Bo'lajak mutaxassislarda yuksak kasbiy mahoratni shakllantirish jarayonida ularning sportchilar orasida vujudga keladigan ziddiyatlarni bartaraf eta olish layoqatini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ziddiyatlar nazariyasini konfliktologiya fani o'rganmoqda. Shunga ko'ra, pedagogik konfliktologiya tadqiqotchilarda alohida qiziqish uyg'otmoqda. Bu sohada yirik tadqiqotlar amalga oshirilmaganligi uchun ham olimlar uning mazmunini turlicha talqin qilmoqdalar.

Masalan, falsafiy nuqtai nazardan konfliktologiya – jamiyat va davlat hayotidagi ziddiyatlarni oldindan ko'ra olish, u haqida ogohlantirish va ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan fandır.

Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan konfliktologiya – alohida shaxslar va guruhlar orasidagi ziddiyatlarni oldindan ko'ra olish, ular haqida ogohlantirish, ziddiyatlarni bartaraf etish va munosabatlarni uyg'unlashtirish yo'llari va usullarini tadqiq etishga yo'naltirilgan ilm sohasidir.

Tibbiy nuqtai nazardan esa, konfliktologiya – shaxslararo munosabatlar gigienasi, ular orasidagi ruhiy psixosomatik kamchiliklar haqida ogohlantiruvchi ilmiy bilimlar sohasi hisoblanadi.

Pedagogik nuqtai nazardan konfliktologiya – ta'lim jarayonida sodir bo'ladigan o'quvchi va talabalar orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish yo'llari, usullari haqidagi pedagogik-psixologik bilimlar majmuidir.



Biroq, mutaxassislar orasida konfliktologiya tushunchasi turlicha talqin etilmoqda. Masalan, A.Ya. Ansupov va A.I. Shipilovlar uni mujassamlashgan ilm sohasi sifatida tavsiflaydilar. Aksariyat mutaxassislar konfliktologiyani ijtimoiy ziddiyatlar dinamikasining sabablari, shakllari hamda mazkur ziddiyatlar haqida ogohlantirish yo'llarini mujassamlashtiruvchi ilm sohasi sifatida e'tirof etganlar. Bu doiraga mansub mutaxassislar shaxslararo munosabatlar gigienasi va psixologiyasidagi ziddiyatlarni ham kiritganlar. Ziddiyatlarni keng miqyosda tadqiq qilgan mutaxassislar X.Kornelius, Sh.Feyrlar ham uni mustaqil fan sifatida e'tirof etishga intilganlar. Ularning ta'biricha, konfliktologiya sotsiologiya, psixologiya hamda psixiatriya negizida ularning uyg'unlashuvi asosida vujudga kelgan. Ba'zi bir mutaxassislar esa, konfliktologiyani amaliy faoliyat sohasini o'rganuvchi fan sifatida talqin etganlar. Shu tariqa, konfliktologiya ilmiy bilimlarning yangi sohasi sifatida endigina vujudga kelib, o'zining taraqqiyot jarayoniga kirishganligi uchun ham unga nisbatan turli-tuman yondashuvlar mavjud.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunga qadar konfliktologiya sohasida to'plangan tajribalar va ilgari surilgan yondashuvlar sportchi o'quvchi va talabalar orasidagi ziddiyatlarni aniqlash, tahlil qilish, ularning tabiatini tushunish va bartaraf etish mexanizmlari, yo'llari, usullarini tadqiq etishda nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Biz ham o'z tadqiqotimiz doirasida bo'lajak sport murabbiylarini sportchi o'quvchi va talabalar orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish yo'llari, usullari, mexanizmlarini aniqlashda xuddi mana shu metodologik asosdan foydalanishga harakat qildik. Shuning uchun ham pedagogik konfliktologiya birinchi navbatda pedagogikaning tushunchalar apparati va metodologik asoslariga tayanadi.

"Ziddiyat arabcha so'z bo'lib, O'zbek tilining izohli lug'atida, mazkur so'z quyidagicha tavsiflangan, ziddiyat – dushmanlik, qarshi chiqish, bir-biriga xiloflik, fikriy qarama-qarshilik, akslik ma'nolarini anglatadi"(1).

Pedagogika ensiklopediyasida "Pedagogik ziddiyatlar (arabcha – dushmanlik, qarshi chiqish) – ta'lim jarayoni sub'ektlari orasidagi qarama-qarshiliklar, nomuvofiqliklar, fikriy to'qnashuvlarni ifodalovchi tushuncha" tarzida talqin qilingan(2).

Shaxslar orasidagi ziddiyatlar jarayonida ularning qarashlariga xos bo'lgan nomuvofiqlik, o'zaro muvofiq kelmaydigan ikki xil mulohaza, nuqtai nazar namoyon bo'ladi. Bu shaxslar, fikrlar orasidagi kurashni ifodalaydi. Ziddiyatlar birinchi navbatda tafakkur taraqqiyotining manbai, harakatga keltiruvchi kuchi, ichki mazmuni sifatida e'tirof etiladi. Har qanday taraqqiyot ziddiyatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va bartaraf etilishini taqozo qiladi. Bunday rivojlanish shaxslararo ziddiyatlarni bartaraf etish jarayonida ta'lim oluvchilar tafakkurida ham ro'y beradi. Sportchi o'quvchi va talabalar orasida vujudga keladigan ziddiyatlar pedagogik nuqtai nazardan antagonistik bo'lmagan ziddiyatlar



murosaga keltiriladigan, bartaraf etiladigan bo'lib, u murabbiyning pedagogik ta'siri, qo'llab-quvvatlashi va ko'magi yordamida bartaraf etiladi.

Sport to'garaklarida ta'lim oluvchilar orasida vujudga keladigan ziddiyatlar pedagogik usullar, vositalar, metodlar yordamida bartaraf etiladi. Bunga ziddiyat jarayoni sub'ektlarini o'zaro kelishtirish, murosaga keltirish, hamjihatlik va hamkorlik muhitini tashkil etish orqali erishiladi.

Konsensus (o'zaro kelishuv) usuli ham sportchilar orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishda alohida ahamiyatga ega. Konsensus usuli ilk bor Gegel tomonidan taklif etilgan bo'lib, tomonlarni murosaga keltirishning samarador usuli sifatida e'tirof etilgan. Uni bartaraf etish uchun murabbiylar ziddiyatlarning turlarini o'zaro farqlashlari lozim. Sportchi o'quvchi va talabalar orasida vujudga keladigan ziddiyatlarga e'tibor bilan qaragan holda aniq yondashish, ziddiyatlar namoyon bo'ladigan pedagogik vaziyatlarni hisobga olish talab etiladi.

Ziddiyatlar jarayonida o'zaro muvofiq kelmaydigan ikki xil mulohaza, nuqtai nazar namoyon bo'ladi. Bu shaxslar, fikrlar orasidagi kurashni ifodalaydi. Ziddiyatlar birinchi navbatda, tafakkur taraqqiyotining manbai, harakatga keltiruvchi kuchi, ichki mazmuni sifatida e'tirof etiladi. Har qanday taraqqiyot ziddiyatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va bartaraf etilishini taqozo qiladi. Bunday rivojlanish o'zaro ziddiyatlarni bartaraf etish jarayonida sportchi o'quvchi va talabalar tafakkurida ham ro'y beradi.

Ko'rinib turibdiki, ziddiyat tushunchasi qadimiy bo'lib, uni pedagogik jihatdan talqin etish va tavsiflashga oid yondashuvlar o'tgan 20 asrning oxirlarida boshlangan. Chunki sobiq sovet pedagogikasida ta'lim oluvchilar orasida ziddiyatlar mavjud emas, degan noto'g'ri qarash hukmron edi. Ayniqsa, so'nggi yillarda pedagogik ziddiyatlarni ilmiy jihatdan asoslashga bo'lgan qiziqishlar kuchaydi. Nazariyotchi pedagoglar oldiga ziddiyatlarni ilmiy pedagogik tushuncha sifatida tavsiflash vazifasi qo'yilmoqda.

Biz quyida ziddiyat tushunchasining tavsifi ustida fikr yuritamiz. Mazkur tavsif jamiyatshunoslar, ruhshunoslar tomonidan bir qadar tan olingan va asoslangan. O'tmishda ziddiyat tushunchasiga asosan siyosiy nuqtai nazardan baho berilgan. Bugungi kunda esa, mavjud tushunchaning haqqoniy tavsifini aniqlash ehtiyoji vujudga keldi. Pedagogik tadqiqot doirasida mazkur tushunchaga murojaat qilish qanday o'ziga xos maqsad va vazifalarga ega, degan savolga javob izlash ayniqsa muhimdir.

Jamiyatshunoslar ziddiyatni nuqtai nazarlar, qarashlar, intilishlar orasidagi qarama-qarshilik sifatida tavsiflaydilar. Barcha mavjud lug'atlar va ensiklopediyalarda ziddiyatga xuddi shunday ta'rif berilgan. Shu tariqa ziddiyat so'zining ma'nosi keng ko'lamda qarama-qarshilik tushunchasi bilan bog'liqdir.

Ziddiyat tushunchasiga ruhshunoslar bir-biriga mos kelmaydigan o'zaro qarama-qarshi qarashlar majmui sifatida yondashadilar. Ziddiyat inson qiyofasida



alohida namoyon bo'ladigan holatlar, shaxslararo hamda guruhlararo o'zaro mos kelmaydigan munosabatlar demakdir. Bunday munosabatlar kishilarning salbiy nuqtai nazarlari, hissiyotlari, qarashlari asosida vujudga keladi. Bu muloqot jarayonidagi ziddiyatlar sifatida namoyon bo'ladi. Bunga muloqotga kirishgan shaxslarning ob'ektiv hamda sub'ektiv nuqtai nazarlari, o'zaro salbiy munosabatlari ta'sir ko'rsatadi. Bunday psixologik tavsif ziddiyatning pedagogik mohiyatiga ham xosdir. Buning asosiy negizi muloqot ko'rinishlari va hissiy kechinmalarda namoyon bo'ladi.

Mutaxassislarning ta'biricha, pedagogik ziddiyatlar mohiyatan ijtimoiy ziddiyatlarga yaqin turadi. Chunki ijtimoiy ziddiyat tushunchasi ostida ijtimoiy qarama-qarshiliklar yotadi. Bunday ziddiyatlar turli xarakterdagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida vujudga keladi. Ijtimoiy ziddiyatlar turli guruhlar yoki shaxslar orasidagi baxslashuvlar negizida tarkib topadi. Ziddiyatlarning ijtimoiy tavsifi asosida ilmning boshqa sohalaridagi tavsifi aniqlanadi.

Pedagogning muhim vazifalaridan biri, xuddi mana shu oqibatlarni oldindan his etish va bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

A.Zdravomyslovning ta'biricha, ziddiyatlarni namoyon qilishga bo'lgan intilish qarama-qarshiliklarning ko'proq keng ko'lam kasb etishi shaxsiy ziddiyatli munosabatlariga bepisandlik bilan qarashga asos bo'ladi (3). Shuning uchun ham, ziddiyatlarga nisbatan yondashuvlar yetarlicha qaror topmagan. Bunday yondashuvlarning ko'pchiligi noto'g'ri qarashlar negizida shakllangan.

Aksariyat olimlarning fikrlariga tayangan holda shuni ta'kidlash lozimki, ularning ziddiyatlarga bo'lgan munosabatlari juda ko'p va serqirralidir. Ziddiyatlarga nisbatan 3 ta nuqtai nazarni alohida ajratib olib tahlil qilish mumkin.

Birinchi nuqtai nazar olimlarning ziddiyatlarga bo'lgan bir xildagi qarashlarni o'zida ifodalaydi. Bunda ziddiyatning markaziga ob'ektlar, qarama-qarshiliklar, to'qnashuvlar qo'yiladi. E.Giddensning fikriga ko'ra, qarama-qarshilik tushunchasi bir qator tuzilmalarga taalluqli bo'lib, uning tarkibida nozik o'rinni egallaydi (4). Ijtimoiy tizim tarkibida zaif o'ringa ega bo'lgan qarama-qarshiliklar kishilarning turli guruhlariga bo'linishiga sabab bo'ladi. Qarama-qarshiliklar har doim o'zida ziddiyatlarni ifodalayvermaydi. Qarama-qarshiliklarni ziddiyatlarga aylantirish uchun xulq-atvor mayllari va qiziqishlarning qarama-qarshi jihatlarini anglash muhimdir. Bunday holat mavjud bo'lmagan vaziyatlarda ziddiyatlar vujudga kelmaydi.

Ikkinchi nuqtai nazarga ko'ra, ziddiyat bu his-hayajonli holatlar, mavjud rivojlanishdan chekinishdir. U rivojlanishning ikkita o'zaro qarama-qarshi holati natijasida vujudga keladi: 1) hayajonli, bosim ko'rsatadigan munosabatlar vujudga kelgunga qadar; 2) bunday munosabatlardan keyin namoyon bo'ladi.

Uchinchi nuqtai nazar, ziddiyatning markazida sub'ektlarning qo'yilishi va uning vaziyat sifatida namoyon bo'lishi, mazkur jarayonda shaxsga o'zaro qarama-



qarshi kuchlar va munosabatlar ta'sir ko'rsatadi. Bunday vaziyatda shaxs ziddiyatni anglaydi, idrok etadi va undan himoyalаниshga harakat qiladi. Chunki bunday ziddiyatli vaziyatlar uning manfaatlariga zarar yetkazadi. Shu tariqa, shaxs vaziyatning boshqa tomonlari haqida fikrlaydi va uni uyg'unlashtiradi.

Turli nazariyalarning mavjudligiga asoslangan holda ziddiyat tushunchasini oydinlashtirish uchun, shaxslararo munosabatlar va boshqa bir qator mezonlarga tayanish lozim.

Bugungi kunga qadar ziddiyatlarni tasniflashga oid turli-tuman yondashuvlar mavjudligini kuzatish mumkin. Ko'pchilik tadqiqotchilar ziddiyatlar asosida turgan qarama-qarshiliklarnigina o'rganib qolmasdan, ularni turli asoslarga ko'ra tasniflashga intilganlar. Bu ta'lim oluvchilar orasidagi ziddiyatlarni o'rganish va ularning amaliy yechimlarini topish uchun nihoyatda zarur.

Ziddiyatlarning turli tasniflari mavjud. Mazkur tasniflar yordamida turli-tuman pedagogik muammolar hal etiladi. Shuning uchun ham, mazkur tasniflarning barchasi ta'lim oluvchilararo ziddiyatlarni tahlil qilish tizimida o'z o'rniga ega. Bunda pedagogik xarakterdagi aloqalar tizimi va ziddiyat ishtirokchisi bo'lgan ta'lim oluvchilar yoki ularning guruhlar muhim o'rin egallaydi. Pedagogik xarakterdagi barcha ziddiyatlar ta'lim oluvchilar va ularning guruhlar ichida vujudga keladi. Ular o'z navbatida alohida-alohida ko'rinishlarga ega. Mazkur ko'rsatkichlar pedagoglarda alohida qiziqish uyg'otib, ta'lim oluvchilararo ziddiyatlarni o'rganish nuqtai nazaridan o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, o'quv-tarbiya jarayonida vujudga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, - Т.: 2006 й. 146-бет.
2. Педагогик энциклопедия, 3-жилд /тузувчилар: жамоа. // Тошкент. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти 2016 йил.
3. Здравомыслов А.Г. Социология конфликта: Учебное пособие для студентов ВУЗов, (изд. в рамках программы обновления гум. образования), 3-изд. доп и пер. - М.: Аспект-Пресс, 1996. – 317 с.
4. Гидденс Э. Социология. – М.: Эдиториал УРСС, 1999. – С. 667.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA JISMONIY TARBIYA TA'LIMI VA SPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Q.A.SHARIPOVA,

NamDU Jismoniy madaniyat kafedrası o'qituvchisi

Maqolada uzluksiz ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sport samaradorligini oshirishdagi muhim jihatlarga to'xtalib o'tilgan, shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sport samaradorligini oshirishkutilgan pedagogik natijalarni tavsiya qilingan.

Tayanch so'zlar: jismoniy tarbiya, uzluksiz ta'lim, sog'lomlashtirish, sport to'garaklari, sport musobaqalari.

In this article, forming of health way of life is examined by means of the folk playing continuous education. As, the use of the folk playing lessons is developed education.

Key words: физическое воспитание, непрерывное образование, health protection, sporting clubs, sporting competitions.

В данной статье рассматривается формирование оздоровительного образа жизни с помощью народных игр в непрерывном образовании. Поскольку, использование народных игр в уроках развивают образование.

Ключевые слова: физическое воспитание, непрерывное образование, здравоохранение, спортивные клубы, спортивные соревнования.

Mustaqillik yillarida yurtimizda amalga oshirilayotgan misli ko'rilmagan islohotlar jamiyatimizning barcha jabhasida o'ziga xos yangilanishlarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish vositasida har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashga ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralib kelinayotganligi yurtimizda o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib borilayotganligidan dalolat beradi.

Jismoniy tarbiya deganda, eng avvalo, inson tanasining anatomik tuzilishi, a'zolarining shakllanishi, rivojlanishi va harakat faoliyatlarini (fiziologik) bajarish darajalari tushuniladi. Ularni tabiiy harakat malakalari va maxsus mashqlar bilan tarbiyalash, saqlash va o'stirish badantarbiya tushunchasini bildiradi.

Sport – jismoniy tarbiya vositasi sifatida ommaviy xususiyat va bilim darajasiga aylangan, ya'ni uning o'z nomi, turlari. Mazmunlari vatarbiyaviy jarayonlari bilan jahon xalqlari orasida yagona nom – “sport” bilan yuritiladi.

Ma'lumki, jismoniy tarbiya ta'limi tizimida sport turlari umumta'lim maktablari, akademik liseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim mauassasalarida tashkil etiladigan jismoniy tarbiya darslari, sport to'garaklari, seksiyalar va maxsus musobaqalarda, Bolalar va o'smirlar sport maktablari, olimpiya zaxiralari sport maktablarida, sport tashkilotlari jamiyatlari, uyushmalari va ularning quyi tarmoqlaridagi (viloyat, shahar, tuman) sport turlari bo'yicha terma jamoalarda, xalqaro miqyosdagi sport musobaqalariga tayyorgarlik jarayonlarida qo'llaniladi.



Ularning barchasida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini yuqori darajada tashkil qilish, o'quvchilarning jismoniy madaniyatini yuksaltirish, yoshlarni ham ruhan, ham jismonan barkamol etib tarbiyalash ko'zda tutilar ekan, bu borada jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari, sport murabbiylaridan:

- mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rish va ularni samarali tashkil qilish;
- o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqish va ishtiyoqini to'g'ri hamda aniq baholash;

- mashqlarni o'tkazishda xavfsizlik qoidalariga qat'iy amal qilish, ya'ni amaliy harakat jarayonlarida o'quvchilarning tan jarohati olishining oldini olish;

- mashqlarni amaliy bajarishdan oldin ularni nazariy asoslash;

- mashg'ulotlarni tashkil qilishda ko'rgazmalilikdan faol foydalanish talab qilinadi.

Shuningdek, mashg'ulotlarga pedagogik jihatdan to'g'ri raxbarlik qilish, o'rgatish va tarbiyaning maqbul uslubiyoti jismoniy mashqlarning rasional ta'sirini belgilaydigan omildir. Shu bilan birga, quyidagi omillarni ham hisobga olish zarur:

- shug'ullanuvchining o'ziga xos xususiyatlari (yoshi, jinsi, sog'lig'i tayyorgarlik darajasi, mexnat, o'qish, dam olish, turmush rejimi);

- jismoniy mashqlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning murakkabligi, yangiligi, yuklamasi, emosiya berishi va boshqalar;

- tashqi sharoitning aloxida xususiyatlari (meteorologik, maxalliy xususiyatlar, jixozlar va snaryadlarning sifati, mashg'ulot joyining gigiyenik xolati va boshqalar).

Masalan, mashq boshlanishidan oldin sport turiga qarab, O'zbekiston sport ustalarining mashg'ulotlariga oid lavhalami namoyish qilish orqali o'quvchilarda qiziqish, ishtiyoq uyg'otish, ularni mashg'ulot oldidan ruhiy shay holatga keltirish mumkin.

Sport mashg'ulotlari faqatgina amaliy mashqlardan iborat degani emas. Reja asosida tashkil qilinadigan tizimli amaliy mashq, avvalo, yoshlarni jismoniy tarafdin yoki tanlab olingan sport turi bo'yicha puxta tayyorlashni ko'zda tutadi. Ammo jismoniy tarbiya yoki sport insondan birinchi galda ruhiy-ma'naviy tayyorgarlikni talab qiladi. Buning uchun esa o'qituvchi, sport murabbiysi hamda o'quvchi yoki talaba yoshlar mashg'ulotlar vaqtida:

- sport ustalarining erishgan muvaffaqiyatlari sirlarini aks ettiruvchi maxsus teleloyihalar bilan tanishib, ularni o'zaro tahlil qilishlari;

- sport o'yinlariga bag'ishlangan kompyuter grafikalaridan foydalangan holda, o'zlarining taktik mahoratlarini oshirishlari;

- sportchining aqliy, ruhiy tayyorgarligini oshiradigan maxsus savolnomalar, test sinovlari hamda viktorinalarni tashkil qilishlari;

- sport ustalari bilan tez-tez uchrashuvlar o'tkazishlari, ularning maslahat hamda tavsiyalarini olishlari g'oyat muhim tadbirlardan sanaladi.

Mutaxassis nazariyotchilarning ta'kidlashicha, sportning rivojlanishi asosan quyidagi ko'rinishda kechadi:



– o‘quv predmeti (fan, darslik);
– ommaviy sport (turlar bo‘yicha shug‘ullanuvchilar hajmi);
– katta sport, ya‘ni yuqori darajadagi ko‘rsatkichlarni (sport ustasi, chempion, rekord va h.k.) o‘z ichiga olgan faoliyatlar. Bu o‘z navbatida professional turida ham mavjud bo‘ladi.

Jismoniy tarbiya darslarida yoki sport musobaqlarida yoshlarning mashg‘ulotlardagi ishtiroki turlicha kechadi. Ayrimlarida garchi jismoniy imkoniyatlari yuqori darajada bo‘lsa-da, o‘ziga nisbatan ishonch yetmaydi, imkoniyatlarini to‘g‘ri va aniq baholay olmaydi. Bunday yoshlar hatto ilk mag‘lubiyatlar onida mashg‘ulotlardan yuz o‘girish kayfiyatigacha borishi mumkin. Ularga nisbatan doimo ma‘naviy-ruhiy madad, qo‘llab-quvvatlash usullarini qo‘llash zarur. Ya‘ni ularga:

– “Sen, albatta, uddalaysan!”
– “Sen bo‘lajak chempionsan!”
– “Mag‘lubiyatsiz g‘alaba bo‘lmaydi!”
– “Yengilib turib yengish mumkin!” – kabi qarashlarni chuqur singdirish orqali o‘zlariga ishonchni tarbiyalash, ulardagi yashirin iqtidor imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish mumkin.

Ayrim o‘quvchilarda esa sport mashg‘ulotlari buning aksini namoyon qilishi mumkin. Ular o‘z kuchi va imkoniyaitiga yuqori baho berishi, buning natijasida atrofda qilargalarga, ayniqsa, sinfdoshlariga o‘z ta‘sirini o‘tkazishga urinishi, manmanlik xislatlariga berilishi mumkin. Bunday o‘quvchilar bilan ham yuqoridagi tartibda ruhiy-ma‘naviy ishlarni olib borish lozim.

Yoshlarni sportga qiziqtirishda yoki ularning jismoniy tarbiya va sportdagi ko‘rsatkichlarini oshirishda, mashg‘ulotlar samaradorligiga erishishda o‘qituvchi hamda murabbiylarning ota-onalar jamoalari bilan ishlashdagi usul hamda vositalari ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Oddiygina misol: mashg‘ulotda a‘lo baho olgan o‘quvchi, avvalo, buni ota-onasiga ma‘lum qiladi. Chunki u olqish-e‘tiborni birinchi galda ota-onasidan olishni istaydi. Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi va sport murabbiysi ayni nozik jihatni teran anglashi lozim. Shundan kelib chiqib, mashg‘ulotlarda muvaffaqiyatlarga erishayotgan o‘quvchilarning ota-onalari nomlariga maktab, mahalla, o‘qituvchi yoki murabbiylar nomidan yozilgan tashakkurnomalar o‘quvchilarning, avvalo, oilada, keyinchalik esa maktabimizda, kun kelib, jahonda tengsiz sportchiga aylanishiga munosib zamin bo‘lib xizmat qiladi. Shunday ekan, bu borada “Oila-mahalla-maktab hamkorligi” konsepsiyasi asosida ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish jismoniy tarbiya va sport ishlarining samaradorligini oshirishda qulay imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi.

Ma‘lumki, ta‘lim muassasasida o‘quvchilar jismoniy tarbiyasining maqsadi:

1. Sog‘lomlashtirish.



2. Har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash.

3. Vatan mudofaasiga hamda mehnatga tayyorlash kabi vazifalardan iborat. Bundan tashqari, sport mashg'ulotlari yoshlarni, avvalo, o'z oilasi, mahallasi, mamlakati nomini, nufuzini dunyoga taratishda yetakchi va asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Shunday ekan, ushbu vazifa yo'lida har bir fan o'qituvchisidan zimmasidagi mas'uliyatli vazifani amalga oshirmog'i, o'quvchi va talaba yoshlarga jismoniy ta'lim-tarbiyani izchil, puxta singdirmog'i, ularning orasidan iqtidorlilarini adolat, haqqoniylik, xolislik tamoyillari orasida saralagan holda, musobaqlar, tanlovlar va olimpiadalarga yo'naltirmog'i, buning uchun yurtimizda yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanmog'i shart va zarur hisoblanadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish kerakki, uzluksiz ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sport samaradorligini oshirishda:

– o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqish va ishtiyoqini to'g'ri hamda aniq baholash;

– mashqlarni amaliy bajarishdan oldin ularni nazariy asoslash;

– mashg'ulotlarni tashkil qilishda ko'rgazmalilik, shuningdek, sport o'yinlariga bag'ishlangan zamonaviy kompyuter grafikalaridan foydalangan holda, o'quvchilarning taktik mahoratlarini oshirish;

– sportchining aqliy, ruhiy tayyorgarligini oshiradigan maxsus savolnomalar, test sinovlari hamda viktorinalarni tashkil qilish;

– sport ustalari bilan tez-tez uchrashuvlar o'tkazish, ularning maslahat hamda tavsiyalarini olish;

– o'quvchilarga nisbatan ma'naviy-ruhiy madad, qo'llab-quvvatlash usullarini doimiy ravishda qo'llash;

– yoshlar orasidan sportga iqtidorlilarini adolat, haqqoniylik, xolislik tamoyillari orasida saralagan holda, musobaqlar, tanlovlar va olimpiadalarga yo'naltirish kabi tadbirlarni amalga oshirish kutilgan pedagogik natijalarni beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmatov M.S. «Uzluksiz ta'limda ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish». –T.: 2005.

2. Shakirjonova K.T. va b. "Jismoniy tarbiya va sportdagi uzluksiz ta'limni tashkil qilish". O'quv-uslubiy qo'llanma. –T.:2012.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHI-YOSHLARDA SOG'LOM TURMUSH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Z.PALIBAYEVA,
O'zDJTU doktoranti

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish bugungi kunda har qanday inson uchun - kattalar yoki bola, maktab o'quvchisi yoki talaba uchun dolzarb mavzudir. Demak, sog'lom turmush tarzi - bu insonning hayotiy faoliyatini har tomonlama (sog'liq, martaba, oila, bo'sh vaqt, do'stlik va boshqalar) munosib darajada ta'minlashga qaratilgan jismoniy va ma'naviy faoliyat tizimidir. Mazkur maqola o'quvchi-yoshlarning sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish va u bilan bog'liq muammolarga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: sog'lom turmush tarzi, o'quvchi va yoshlar, sog'lom hayot, sog'lom turmush madaniyati, ta'lim tizimi, o'quv jarayoni.

Creating a healthy lifestyle is a topical issue for anyone today - adult or child, schoolboy or student. So, a healthy lifestyle is a system of physical and spiritual activities aimed at ensuring a person's life in all respects (health, career, family, leisure, friendship, etc.). This article focuses on the formation of a culture of healthy living among students and the problems associated with it.

Key words: healthy lifestyle, students and youth, healthy life, healthy lifestyle, education system, learning process.

Ta'lim muassasalarida o'qitiladigan ijtimoiy-gumanitar, tabiiy va aniq, umumkasbiy, tibbiy-biologik fanlar mazmuni o'quvchi-yoshlarda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bunday fanlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'quvchi-yoshlarning sog'lom turmush madaniyati haqidagi bilimlarini boyitadi va dunyoqarashini kengaytiradi, sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish, jamiyatni sog'lomlashtirishga o'z hissasini qo'shishida, ijodiy faolligini, mustaqil fikrlash qobiliyatini o'sishida ijobiy ta'sir ko'rsatadi, turli bloklardagi fanlar mazmuni o'quvchi-yoshlarni sog'lom turmush tarziga nisbatan ongli faoliyatga yo'naltiradi.

Agar pedagogik jarayonda sog'lom turmush tarzi madaniyati tushunchasi, uning mazmun va mohiyati nazariy va amaliy jihatdan ochib berilsa, fanlar mazmuniga inson sog'lom turmush tarzi madaniyatini tashkil qilishning nazariy prinsiplari haqidagi zamonaviy qarashlar va g'oyalar singdirilsa, o'quvchi-yoshlarga sog'lom turmush tarzi madaniyati oliy o'quv yurtida samarali ta'lim olishi bilan birga kelgusidagi pedagogik faoliyati uchun zarurligini ko'rsatib bera olsa, fanlar mazmuni tibbiyot, gigiena, pedagogika, psixologiya, valeologiya, inson salomatligi bilan bog'liq boshqa fanlarning yutuqlari bilan boyitilsa, fanlar mazmunida turli materiallardan, qiziqarli ilmiy ma'lumotlar, dalillardan foydalanish ko'lami kengaytirilsa, nazariy bilim bilan amaliy faoliyatning uzviyligi ta'minlansa o'quvchi-yoshlarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishda pedagogik-psixologik,



tibbiy-biologik va ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati yanada oshadi.

Sogʻlom turmush tarzi madaniyati inson umumiy madaniyatining ijtimoiy bir jihati. Tadqiqotchilarning taʼkidlashicha, inson salomatligining 20%i nasliy omillarga, 20 foizi tabiiy omillarga, 7-10 foizi sogʻliqni saqlash darajasiga, 50 foizi turmush tarziga bogʻliq. Ijtimoiy, genetik, epidemiologik, tibbiyot sohalarida olib borilgan tadqiqotlar natijasiga koʻra, insonning salomatligi birinchi galda sogʻlom turmush tarzi bilan belgilanadi. Salomatlikni saqlash va uzoq umr koʻrish uchun nasliy salomatlikdan tashqari, bir butun jismoniy madaniyatni jamlagan tadbirlar kompleksi: faol harakat, chiniqish, mehnat, dam olish va ovqatlanishning ratsional tarkibi, zararli illatlardan oʻzini saqlash kabilar ham muhim. Soʻnggi yillarda hayotimizni STTM asosiga qurish, jamiyat hayotini sogʻlomlashtirishga erishish kun tartibidagi asosiy masala boʻlib turibdi.

Taʼkidlab oʻtilgan didaktik sharoit sogʻlom turmush madaniyatining turli jihatlariga nisbatan amaliy qiziqishni shakllantiradi, inson hayotida sogʻlom turmush tarzi madaniyatining oʻrni va roli haqida oʻylab koʻrishga undaydi, talaba kelgusidagi professional pedagogik faoliyatda avvalo oʻzi sogʻlom boʻlishi kerakligini tushunib yetadi.

Oʻquvchi-yoshlar turli fanlardan oʻqilgan maʼruzalar orqali “sogʻlom turmush tarzi”, “sogʻlom turmush tarzi madaniyati”, “salomatlik” tushunchalariga turlicha yondoshuv, turli fan namoyondalarining nuqtai nazarlari, insonning sogʻlom turmush tarziga erishish yoʻllari haqidagi mulohazalari bilan tanishadilar hamda fan oʻqituvchilarining sogʻlom turmush tarzi madaniyatiga qarashlarini solishtirish asnosida tahlil qiladi. Pedagoglarning sogʻlom turmush tarziga turlicha yondoshuvlari boʻlajak oʻqituvchilarda sogʻlom turmush tarzi madaniyati muammolariga turlicha yondoshuvlarni ilmiy tahlil qilish imkonini beradi.

Oʻquvchi-yoshlarda sogʻlom turmush tarzi madaniyatining shakllanganligi “Milliy istiqloq gʻoyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar”, “Maʼnaviyat asoslari”, “Hozirgi zamon tabiiy fanlar konsepsiyasi”, “Yosh fiziologiyasi va gigiena”, “Ekologiya”, “Pedagogik konfliktologiya”, “Pedagogik taqqoslash”, “Pedagogik korreksiya”, “Oilapedagogikasi”, “Xalq qiyosiy pedagogikasi”, “Umumiy psixologiya”, “Yosh va pedagogik–psixologiya”, “Oila psixologiyasi”, “Valeologiya”, “Tibbiy bilim asoslari” kabi fanlarni “Sogʻlom turmush tarzi madaniyati asoslari” maxsus kurslarini oʻtib boʻlganda keyin yuqori darajaga koʻtariladi.

Oʻquvchi-yoshlarda sogʻlom turmush madaniyatini shakllantirishda “Tibbiy bilim asoslari” kursining imkoniyatlarini alohida eʼtirof etish lozim. Mazkur kurs orqali oʻquvchi-yoshlar salomatlikning mohiyatini, turli zararli odatlarning inson organizmiga taʼsiri, turli jarohatlarda birinchi yordam koʻrsatish haqidagi bilimlarni egallab oladilar. Yoki “Yosh fiziologiyasi va gigiena” fani orqali turli yosh davrlarda bolalarning oʻziga xos xususiyatlari, ularda salomatlikni muhofaza qilish sogʻlom turmush tarzini shakllantirish uchun nimalar qilish kerakligini boʻlgʻusi oʻqituvchilar bilib oladilar.

«Valeologiya» kursi oʻquvchi-yoshlarda sogʻlom turmush madaniyatini



shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Valeologiya fani o'quvchi-yoshlarning salomatlikning ijtimoiy ahamiyati bo'

bilimlarini chuqurlashtirish, salomatlik masalalariga qiziqishlarini rivojlantirish, sog'lom turmush tarzi va salomatlik falsafasini shakllantirish ko'nikmalarini egallashga da'vat etadi. O'quvchi-yoshlarni jismoniy, psixologik salomatlik asosida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalariga o'rgatish, organizmning reproduktiv vazifalari bilan tanishtirish, bundan tashqari shaxs va millat salomatligini saqlash va mustahkamlash haqidagi bilimlar bilan qurollantiradi.

"Psixologiya" inson hayotining ruhiy jihatlarini ochadi, bo'lg'usi o'qituvchida o'zi va boshqalarni tushunishga qiziqishni shakllantiradi, o'zaro munosabatlar va shaxslararo muomala madaniyati haqidagi bilimlarini boyitadi. "Ijtimoiy psixologiya" o'quvchi-yoshlarni pedagogik muomala madaniyati, muammoli vaziyatlarda to'g'ri munosabatda bo'lish qoidalari bilan tanishtiradi.

"Pedagogika" kursi shaxs ma'naviyati, madaniyati, uning tarkibiy qismlari (axloqiy, jismoniy, diniy, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, fuqarolik va axborot madaniyati) haqidagi bilimlarni beradi va o'quvchi-yoshlarni o'qituvchilik faoliyatiga tayyorlaydi, yoshlarda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishning zamonaviy metodlari, vositalari, usullari, uslublari bilan qurollantiradi, o'quvchi yoshlarda STTMni tarbiyalash va rivojlantirish qoidalari bilan tanishtiradi.

Yuqorida nomlari keltirilgan fanlardan berilgan bilimlar bir-birini mazmunan boyitadi va o'quvchi-yoshlarning sog'lom turmush tarzi madaniyati haqidagi bilimlarini to'ldirib boradi. Turli fanlar mazmunida STTMni shakllantirishda ta'lim prinsiplariga amal qilish muhim omil hisoblanadi. O'quvchi-yoshlarda STTMni shakllantirishda quyidagi pedagogik prinsiplar muhim ahamiyatga ega:

ilmiylik, muammolilik va natijani oldindan ko'ra olish prinsipi;

integratsiya prinsipi;

insonparvarlik prinsipi;

uzluksizlik prinsipi;

shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish prinsipi;

faoliyatda tarbiyalash prinsipi;

mutaxassislikka yo'naltirish prinsipi va boshqalar.

O'quvchi-yoshlarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish va uni kundalik hayotga tatbiq qilishga erishish pedagogika oliy o'quv yurtida olib borilgan o'quv tarbiyaviy jarayonning natijasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев И.К. Турмуш тарзи ва инсон саломатлиги. –Т.: 2006.
2. Арзикулов Р.У. Соғлом турмуш тарзи асослари. –Т.: 2005.
3. Шарипова Д.Ж. ва бошқалар. Талабаларда соғлом турмуш тарзини шакллантириш. Фарғона, 2010.



UZLIKSIZ TA'LIM BOSQICHLARIDA MATEMATIKA FANINI O'QITILISHI

M.N.SOLAYEVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Ushbu maqolada matematika fanining rivojlanish bosqichlari, matematikaning asosiy bo'limlaridan biri bo'lgan differensiallash va integral hisob mavzularini rivojlanish bosqichlari va o'qitilishi hususida izlanishlar olib boriladi.

Kalit so'zlar: matematika fanining tarixi, hosila, differensial hisob, integral hisob, bo'limning o'qitilishi.

В данной статье проводится исследование этапов развития математической науки, этапов разработки и преподавания тем дифференциации и интегрального исчисления, которые являются одним из основных разделов математики.

Ключевые слова: история математических наук, дифференциальное исчисление, интегральное исчисление, преподавание на кафедре.

In this article, research is carried out on the stages of development of Mathematics Science, the stages of development and teaching of topics of differentialization and integral calculus, which is one of the main sections of mathematics.

Key words: history of Mathematics Science, differential calculus, integral calculus, department teaching.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4708-son qarorida ta'kidlab o'tilgan sohada yechimini topmagan qator masalalar matematika sohasidagi ta'lim sifati va ilmiy-tadqiqot samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini ko'rsatmoqda. Bundan tashqari umumiy o'rta ta'lim bosqichining 11 yillik sistemaga qayta o'tkazilishi uzluksiz ta'limda matematika fani o'qitish sohasidagi bir qancha kamchiliklar va talablar paydo bo'lishiga olib keldi. Jumladan:

birinchidan, matematika ta'limotining ta'lim olish bosqichlari o'rtasidagi uzviylik to'liq ta'minlanmagan;

ikkinchidan, umumta'lim maktablarida matematika darsliklari o'quvchilarning yoshiga nisbatan fanni o'zlashtirishni qiyinlashtiruvchi murakkab masalalardan iborat va boshqa fanlarda o'tiladigan mavzular bilan uyg'unlashtirilmagan;

uchinchidan, matematikaga qiziquvchan, xalqaro olimpiadalar g'oliblari bo'lgan aksariyat iqtidorli yoshlarimiz hududlardan bo'lishiga qaramasdan ularning kelgusi rivojlanishi uchun oliy ta'lim va ilm-fan sohasida zarur shart-sharoit yaratib berilmagan;

to'rtinchidan, matematika sohasidagi ilmiy-tadqiqotning amaliyot va ishlab chiqarish bilan bog'liqligi zaifligicha saqlanib qolmoqda;



beshinchidan, sohadagi olimlarning xorijiy ilmiy va ta'lim muassasalari bilan aloqalari milliy matematikani jahon miqyosiga olib chiqish, xalqaro hamjamiyatda nufuzini oshirish uchun yetarli emas [1].

Kabi mulohazalami aytib o'tadigan bo'lsak, hozirgi kunga kelib nafaqat matematika va balkim aniq fanlardan fizika, axborot texnologiyalari, tabiiy fanlardan esa kimyo, biologiya, geologiya va boshqa shu kabi fanlarning rivojiga juda katta e'tibor qaratilgan bo'lib, matematika fanining boshqa fanlar bilan bog'liqlik darajasi va hayotiy tadbirlarini o'rganish va yosh avlodga hayotiy tadbirlarini o'rgatish kabi bir nechta masalalar bugungi kundagi yosh kadrlar oldiga katta vazifa va maqsad qilib qo'yilgan.

Asosiy kism: yuqoridagilarni inobatga olgan holda biz quyida matematikaning boshqa fanlar bilan emas balki matematikaning bir bo'limi ya'ni differensial hisob bo'limining rivojlanish tarixi, boshqa fanlar bilan bog'liqligi va hayotiy tadbirlarini muhokama qilamiz. Shuningdek, matematikaning ushbu bo'limini umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilishining ilmiy va amaliy asoslarini ko'rib chiqamiz va taxlil qilamiz.

Matematika yunonchadan olingan bo'lib mathema, thematika - bilim fan, riyoziyot- aniq mantiqiy mushohadalarga asoslangan bilimlar haqidagi fan ma'nosini anglatadi. Matematika fanining dastlabki ob'ekti sanoq bo'lganligi uchun ko'pincha unga "hisob haqidagi fan" deb qaralgan. Bugungi matematikada hisoblashlar, hatto formulalar ustida amallar juda kichik o'rin egallaydi. Matematika eng qadimiy fan sohasi bo'lib, uzoq rivojlanish tarixini bosib o'tgan va buning barobarida "Matematika nima?" degan savolga javob ham o'zgarib chuqurlashib borgan. Yunonistonda matematika deganda geometriya tushunilgan. IX- XIII asrlarda matematika tushunchasini algebra va trigonometriya kengaytirgan. XVII- XVIII asrlarda matematikada analitik geometriya, differensial va integral hisob asosiy o'rinni egallaganidan so'ng, to XX - asr boshlarigacha u "Miqdoriy munosabatlar va fazoviy shakllar haqidagi fan" mazmunida ta'riflangan. XIX asr oxiri va XX - asr boshlarida turli geometriyalar (Lobochevskiy geometriyasi, proektiv geometriya, riman geometriyasi kabi), algebralar (Bul algebrasi, kvaternionlar algebrasi, Keli algebrasi kabi), cheksiz o'lchovli fazolar kabi mazmunan juda hilma hil, ko'pincha sun'iy tabiatli ob'ektlar o'rganila boshlanishi bilan matematikaning yuqoridagi ta'rifi o'ta tor bo'lib qolgan. Bu davrda matematik mantiq va to'plamlar nazariyasi asosida o'ziga xos mushohada uslubi hamda tili shakllanishi natijasida matematikada eng asosiy xususiyat- qat'iy mantiqiy mushohada, degan g'oya vujudga keladi.

XX - asr o'rtalarida Burbaki taxallusi ostida matematika ta'rifini qayta ko'rib chiqqan bir guruh fransuz matematiklari bu g'oyani rivojlantirib, "Matematika - matematik strukturalar haqidagi fan" degan ta'rif kiritdi. Bu yondashuv avvalgi ta'riflarga kengroq va aniqroq bo'lsada, baribir cheklangan edi. Strukturalar o'rtasidagi munosabatlar (masalan matematika, turkumlar nazariyasi, algebraik topologiya),



amaliy hamda tadbiqiy nazariyalar, hususan, fizika, texnika va ijtimoiy fanlarda matematik modellar bu ta'rif doirasiga sig'avermas edi. So'ngi asrda xilma - xil matematik ob'ektlar orasida juda chuqur munosabatlar mavjudligi va aynan shunga asoslangan natijalar matematikaning bundan buyongi taraqqiyotida asosiy o'rinni egallashini ko'rsatmoqda. Elektron hisoblash vositalari bilan birga matematika tadbirlarining kengayishi (biometriya, sotsiometriya, ekonometrika, psixometriya va boshqalar), matematik usullar hayotning turli sohalariga jadal sur'atlar bilan kirib borayotgani ham matematika predmetini ixcham ta'rif bilan qamrab bo'lmaydigan darajada kengaytirib yubordi [2].

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek XVII-XVIII asrlarda matematikaning differensial va integral hisob bo'limlari rivojlanib borgan bo'lib shu kungacha matematikaning hozirgi kundagi asosiy ilmiy ishlar va kashf kiliniyotgan yangiliklarining asosi bo'lib rivojlanib kelmoqda. Endilikda funksiya hosilasi, didderensial va integrali kabi tushunchalarini taxlil qiladigan bo'lsak, hosila tushunchasiga chambarchas bog'liq tushunchalar mavjud ya'ni differensiallash, funksiya limiti atamalaridir.

Differensial hisob matematikaning hosila va differensiallarini hisoblash ularni o'rganish, hamda funksiyalarni tekshirishga tadbir qilish bilan shug'ullanadigan bo'lim. XVII- asrga kelib Yevropada ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi, turli mashina va inshootlarning yaratilishi, kemasozlikning rivojlanishi, balistikalar umuman harbiy ishlar talablari aniq fanlar, jumladan matematika oldiga juda ko'p yangi masalalarni qo'yanligi munosabati bilan differensial hisob g'oyalari vujudga keldi. Differensial hisobning vujudga kelishidagi dastlabki ishlar egri chiziqqa urinma o'tkazish masalasini yechishda Ferma, Rene, Deskartes va boshqa matematiklar tomonidan qilingan. Isaak Nyuton va Goyfrid Leybnis o'zlaridan avvalgi matematiklarning bu boradagi ishlarini nihoyasiga yetkazganlar. XVII-asr ohiri XVIII asr boshlarida matematik analiz mustaqil fan sifatida shakllangan. Hosilalar bilan bog'liq bir nechta tushunchalar qadimdan ma'lum bo'lgan bo'lsa ham, ularning hozirgi holini fanga kiritgan deb Isaak Nyuton(1643-1727) [3,6,7,8,9,10] asosiy o'rinda ta'kidlanadi. Differensial va integral hisob masalalari va ularni yechish kabi masalalar hozirgi kunda ham fan texnika, axborot texnologiyalari kabi sohalarda juda katta o'rin egallagan bo'lib, ushbu mavzularni umumiy o'rta ta'limda o'qitishning ahamiyati va mazmuniga e'tibor qaratamiz.

Bugungi kunga kelib zamon rivojlanishi bilan umumiy o'rta ta'lim ham rivojlanib bormoqda. Ya'ni hozirgi zamon o'quvchilariga qo'yilgan talab bundan bir nechta yil oldin o'qigan o'quvchilarga qo'yilgan talabdan bir qancha farq qiladi. Shu o'rinda yana bir narsani ta'kidlaydigan bo'lsak, hozirgi kundagi OTM lariga kirish imtixonlaridagi savollar darajasi bundan 5-10 yillar oldingi kirish imtixonlaridagi savollardan bir qancha qiyinligi va shu kabi savollarni o'rganish hozirgi kundagi umumiy o'rta ta'lim maktablari bitiruvchilarining oldiga qo'yilgan vazifalardan biri bo'lib kelayotganini ta'kidlash lozim. Shularni va hozirgi kundagi halq ta'limining



o'quv dasturlarida differensial hisob va integrallash mavzularini ham o'qitilishiga juda katta talab qo'yilgan. Ammo bu talabni bajarish uchun etarli darajadagi darsliklar tayyorlanmagan, o'quv dasturlari to'la ishlab chiqilmagan, dars soatlari to'laqonli ajratilmagan ... kabi bir qancha muammolarga uchrab kelishmoqda [4].

Darsliklarning mavzuni yoritganlik darajasiga to'xtaladigan bo'lsak, ba'zi mavzular kiritilmagan yoki ortiqcha, ba'zi mavzular to'liq yoritilmagan yoki ma'lumot yetarli emas, yoki ba'zi mavzularga oid misollarning berilishida hammasi bir biriga o'xshash darajada berilgan. Differensial hisob va integrallash mavzulari to'liq yoritib berilish darajasidagi dastur mavjud emas. Mavzuga ajratilgan soatlar, ba'zi mavzular uchun yetarlicha, ba'zi mavzular uchun keragidan ortiqcha va ba'zi mavzular uchun juda kam darajada dars soatlari ajratilgan bo'lib, bu esa maktab o'quvchilarida mavzuni o'zlashtirishlarida bir qancha qiyinchilikka duch kelishlariga asos bo'lmoqda [5].

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning o'rinli bir aytgan gaplarini eslab o'tish joizdir, "Hozirgi kundagi umumiy o'rta ta'limdan olingan bilimlari bilan nega maktab o'quvchilari oliy ta'limga o'qishga kira olishmayapti? Nega qo'shimcha kurslarga qatnashga majbur bo'lmoqda?" kabi so'rov bergandi [6,7].

Xulosa: xulosa o'rinda shuni ta'kidlash lozimki yuqorida prezident karorida ta'kidlangan yechimini topgan masalalar, matematika fanini va matematika fanini o'qitishni yuqori bosqichga olib chiqish masalalari hozirgi kundagi ustuvor vazifalardan biri bo'lib, biz bu maqolada bir qismi va uning bir nechta kamchiliklari muxokamasi va yechimini topish yo'llarini ko'rib chiqdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://president.uz/uz/lists/view/3557_
2. https://ru.wikipedia_
3. A.A. Норматов Математика Тарихи Тошкент – 2007/
4. M.A.Mirzaahmedov, Sh.N.Ismailov, A.Q.Amanov. Matematika: - 11-sinf uchun darslik. Toshkent- 2018.
5. Seytov Aybek Jumayevich, Solaeva Mehribon Norimonovna, Tadjibayev Ikram Uralbaevich. The product of a function and its place in physics. Solid State Technology. Vol. 63 No. 4 (2020). (№5 scopus IF=0.3)
6. Mekhruban Salaeva, Kakhramon Eshkaraev, Aybek Seytov. Solving mathematical problems in unusual ways with excellent limits. European Scientific Conference. Пенза, 17 мая 2020 года pp. 254-257
7. Рахимов Ш. Х., Сейтов А. Ж., Кудайбергенов А. А. Критерии управления задач оперативного управления водными ресурсами объектов водохозяйственных систем. Abstracts of IX International Scientific and Practical Conference Kharkiv, Ukraine 2-4 August 2020. Стр. 125-131.



NUTQ KAMCHILIGIGA EGA BO'LGAN BOLALARDA LUG'AT BOYLIGINI SHAKLLANTIRISHDA KOMPYUTER DASTURLARINING AHAMIYATI

YO.Q.ABDULLAYEVA,

TDPU Logopediya kafedrası o'qituvchisi

Ushbu maqolada og'ir nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar faol lugat boyligini shakllantirishda kompyuter dasturlarining o'rni, ulardan foydalanish va uning samaradorligi haqida ma'lumot berilgan.

Tayanch iboralar: og'ir nutq nuqsonlari, dizartriya, alaliya, rinolaliya, «Yo'lbarlar uchun o'yinlar» («Игры для тигров»), «Baba Yaga o'qishni o'rganadi» o'yini.

В данной статье представлена информация о роли компьютерных программ в формировании активного словарного запаса, их использовании и эффективности у детей с тяжёлыми речью.

Ключевые слова: тяжёлыми нарушениями речи, дизартрия, алалия, ринолалия, «Игры для тигров», «Баба Яга учится читать».

This article provides information on the role of computer programs, their use and effectiveness in the formation of active vocabulary in children with severe speech disorders.

Key words: severe speech defects, dysarthria, alalia, rhinolalia, «Games for tigers», «Baba Yaga learns to read».

Maktabgacha ta'lim tizimidagi rivojlanish endi ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning kelajakda yetuk inson bo'lishi uchun qilinayotgan poydevor hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim tizimini rivojlantirish bu nutq jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir. Nutq inson hayotida katta ahamiyatga ega chunki inson nutqi orqali ijtimoiy muhit bilan aloqaga kirishadi. Shuning uchun yurtimizda tadqiqotchilar tomonidan nutq nuqsonlarini bartaraf etish ustida ko'pgina ilmiy ishlar olib borilmoqda. Biroq, nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning faol lug'at boyligini shakllantirishda axborot texnologiyalaridan, ya'ni kompyuter dasturlarini ishlab chiqish va foydalanish, xususan faol lug'at boyligini shakllantirish yuzasidan tadqiqot ishlari yetarlicha olib borilmaganligi tadqiqot mavzumizning dolzarbligini bildiradi. Shu sababli dissertatsiya uchun ushbu muammodan kelib chiqqan holda "Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning faol lug'at boyligini shakllantirishda kompyuter dasturlaridan foydalanish texnologiyalari" mavzusida o'z izlanishlarimizni olib borishga qaror qildik. Tadqiqot obyekti uchun og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan dizartriya (**dizartriya** — nutq talaffuzi tomonining nutq apparati innervatsiyasidagi yetishmovchilik bilan bog'liq holdagi buzilishidir.), alaliya (**alaliya** — bosh miya qobig'idagi nutq zonalarining bolaning ona qomidagi yoki ilk rivojlanish davrida organ shikastlanishi natijasida nutqning yo'q bo'lishi yoki rivojlanmay qolishi.),



rinolaliya (**rinolaliya** – tovush tembri va talaffuzining nutq apparatidagi anatomik-fiziologik nuqsonlar bilan bog‘liq holdagi buzilishdir.) nutq kamchiligiga ega bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni tanlab olindi.

G.V.Babin ko‘rsatganidek, og‘ir nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarda nutqning shakllanishi va rivojlanishi normal bolalarga qaraganda ancha kechroq sodir bo‘ladi. Og‘ir nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarda so‘z boyligi sezilarli darajada cheklangan, ko‘p sonli agrammatizmlar, fonemalarning shakllanishi va talaffuzida nuqsonlar mavjud. Har bir bola uchun nutqning rivojlanishi individual xususiyatga ega bo‘lib, faqat o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Maktabgacha yoshdagi og‘ir nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar bilan nutqning leksik tuzilishining buzilishi so‘zlarning noto‘g‘ri ishlatilishida, semantik maydonlar shakllanmaganida, turli xil og‘zaki parafazalarda ham namoyon bo‘ladi. Bunday bolalarda bo‘g‘inlarni tahlil qilish va sintez qilish ko‘nikmalari yaxshi rivojlanmagan va bu, o‘z navbatida, yozishni va o‘qishni o‘zlashtirishda asosiy to‘siq bo‘lib xizmat qiladi. Uy sharoitida muloqot qilish uchun nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarning so‘z boyligi yetarli. Ammo yaqindan o‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, bola kamdan-kam ishlatadigan so‘zlarni (masalan, tirsak, qovoq, to‘siq) to‘liq bilmasliklarini aniqlaydi. Maktabgacha yoshdagi og‘ir nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarning so‘z boyligi asosan otlardan iborat. Maktabgacha yoshdagi og‘ir nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarning nutqi va aqliy rivojlanishidagi yuqorida aytib o‘tilgan kamchiliklar bilan bog‘liq holda, ushbu toifadagi bolalar bilan rivojlanishning tuzatish ishlarining eng samarali usullari va shakllarini izlash kerak. Ta‘lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning ijobiy tomonlari, xususan og‘ir nutq kamchiligiga ega bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish jarayonida ular kommunikativ o‘zaro ta‘sirning samaradorligini sezilarli darajada oshirishi, bolalarning faol gapirish motivatsiyasini sezilarli darajada oshirishi, ayniqsa barcha bolalarning kompyuter resurslari assimilyatsiya uchun eng soddada formatda taqdim etilgan. Maxsus kompyuter dasturlaridan foydalanishga asoslangan barcha o‘quv materiallari bola uchun unga qiziqish uyg‘otadigan va diqqatni jalb qiladigan qulay va jonli shaklda tuzilgan. Ta‘lim jarayonida kompyuter dasturlaridan foydalanish nutq kamchiligiga ega bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun juda zarur, bu nafaqat o‘quv materialini yodlash jarayonini tezlashtiradi, balki nutqda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ham samarali hisoblanadi. Bolalar psixologlarining tadqiqotlariga ko‘ra 5-6 yoshdagi bola eng oddiy kompyuter ko‘nikmalarini egallashga qodir, bolaning bilim jarayonlarini jadal shakllantirish davriga to‘g‘ri keladi. Hozirgi kunda kompyuter bola rivojlanishining ushbu bosqichida turli xil faoliyat turlarining muammolarini hal qilish uchun maxsus intellektual vositadir. Ko‘plab tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, nutqni rivojlantirish jarayonida kompyuter o‘yinlaridan foydalanish bolalarning charchoqini kamaytiradi, ularning kognitiv faolligini qo‘llab-quvvatlaydi va umuman nutq terapiyasining samaradorligini oshiradi. Kompyuter texnologiyalari ta‘lim



jarayoniga kiritilishi bolalarning motivatsion faolligini oshiradi va logoped va otanalar o'rtasida yanada yaqin hamkorlikni yaratishga yordam beradi. Kompyuterdan foydalanish paytida bolalar qiyinchiliklarni yengib o'tishni, natijalarni baholashni va ularning faoliyatini nazorat qilishni o'rganadilar. Tadqiqotchilar tomonidan turli xil kompyuter mashg'ulotlari, o'yinlar va boshqa rivojlantiruvchi dasturlar allaqachon ishlab chiqilgan va ijobiy jihatdan ta'lim jarayoniga tavsiya qilingan. Ulardan eng mashxurlari: «Talaffuzni boshqarish», («Контроль произношения») «Ko'rinadigan nutq», («Видимая речь») «So'zning tarkibi», «Sizning derazangizdan tashqaridagi dunyo», «So'zning tarkibi», («Состав слова») «Yo'lbarlar uchun o'yinlar» («Игры для тигров») va boshqalar. Ushbu dasturlar ko'p funksionaliligi, ko'rinishi va o'qitishning soddaligi printsiplariga asoslangan. Ayniqsa nutq kamchiligiga ega bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun «Fonema», «Baba Yaga gapirishni o'rganadi» va «So'zlarni ovozi tahlil qilish» o'quv dasturlari qo'llaniladi. Yo'lbarlar uchun o'yinlar dasturi L.R. Lizunova tomonidan ishlab chiqilgan «Yo'lbarlar uchun o'yinlar» kompyuter dasturiga ega CD-ROM va batafsil ko'rsatmalarga ega o'quv qo'llanma turli xil nutq buzilishlarini, ya'ni duduqlanish, rinolaliya, dislaliya kabi nutq kamchiliklarini tuzatish uchun ishlatilishi mumkin. Ushbu dastur R.I. Lalaeva, N.S. Jukova, L.V. Lopatina, T.A. Kashe, E.M. Mastuykova, N.V. Serebryakova va T.B. Filichevalar tomonidan olib borilgan nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish usullariga asoslangan Dastur 4 ta tematik bloklarga birlashtirilgan, «Prosoditsa» «Просодика», «Fonematik», «Lug'at» va «Tovush talaffuzi», bolalar bilan logopedik ishning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. Dastur quyidagi asosiy printsiplarga asoslanadi: - nutq buzilishlarini tuzatishga faol va tizimli yondashuv; - mashg'ulotning o'yin shakli; - interaktivlik; - ma'lumotni eshitish qobiliyati ko'ruv idrok bilan to'g'ridan-to'g'ri kompensatsion ta'sir ko'rsatadi, bu esa buzilmagan analizatorlardan foydalanishga imkon beradi va kompensatsion mexanizmlarni faollashtirishga yordam beradi; - o'rganishga tabaqalashtirilgan yondashuv. Shuningdek, 6-7 yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan «Baba Yaga o'qishni o'rganadi» kompyuter o'yinini ham eslatib o'tish kerak, chunki bu yosh bolani o'qishni o'rgatish uchun eng qulay hisoblanadi. «Baba Yaga o'qishni o'rganadi» bolalarga asta-sekin intellektual rivojlanishning yangi bosqichiga - yozma nutqni rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, bu vaqtga kelib, bolalar yetarlicha shakllangan og'zaki nutq, fazoviy ifodalar, tovushli talaffuz va fonemik idrokka ega bo'lishlari kerak. Ushbu o'yin nutq buzilishini tuzatish bilan bog'liq barcha masalalarni hal qilmaydi, ammo bolalarni o'qishga o'rgatishdagi disleksiyaning oldini olish uchun uning samaradorligi isbotlangan.

Ushbu aspektda, og'ir nutq kamchiligiga ega bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda, maqolada muhokama qilingan kompyuter o'yinlari va mashqlardan foydalanish tovushning talaffuzi, artikulyatsion motivatsiyaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, faol so'z boyligini kengaytirish va boyitishga yordam beradi, shuningdek,



logopedik mashg'ulotlar katta maktab yoshidagi bolalar uchun ijobiy motivatsiya va qiziqishni shakllantiradi. Biz ham o'z tadqiqot ishimizda og'ir nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar lug'at boyligini shakllantirish maqsadida dastur ishlab chiqdik va dastur asosida nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar lug'at boyligini shakllantirish ustida ish olib borildi. Kompyuter dasturlaridan ta'lim jarayonida foydalanishning avfzallik tomonlaridan biri u logopedning ishini osonlashtirish va bolalar uchun qiziqarli mashg'ulot o'tish uchun samarali hisoblanadi. Taklif etilayotgan kompyuter o'yinlari, bizning fikrimizcha, logopedning ishlashini nutqning leksik tuzilishini shakllantirish bo'yicha bir necha jihatlarini aks ettiradi: lug'atni boyitish, talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish, grammatik tuzilmalarni rivojlantirish va izchil nutqni takomillashtirish. Yana bir ijobiy tomonni ta'kidlash kerak – og'ir nutq kamchiligiga ega bo'lgan maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilari uchun to'liq nutq faoliyatini o'rganish vaqtini sezilarli darajada qisqartirish, bu bolalarning boshqalar bilan muvaffaqiyatli o'zaro munosabatlari uchun asosdir. Kompyuter texnologiyalarini tuzatish dasturiga kiritish og'ir nutq kamchiligiga ega bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yanada qiziqarli va mazmunli qiladi va o'qituvchilar uchun yanada samarali va sifatli bo'ladi. Nutq rivojlantirishda kamchiligi bo'lgan bolalarda, avvalo, so'z boyligining kambag'alligidan aziyat chekadi. Lug'atning kambag'alligi, og'zaki va yozma nutqning leksik tomondan buzilishiga tilning umumlashtiruvchi funksiyasini cheklaydi. So'z boyligining yetarli emasligi, ko'pincha savollar, so'rovlar, ma'lumot olishda o'z fikrini bayon etishdagi qiyinchiliklarning sababi bo'lib chiqadi. Shu sabbabli, boshlang'ich sinflarda ham og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar faol lug'at boyligini shakllantirishda kompyuter dasturlaridan foydalanish orqali samarali natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бабина Г.В. Слоговая структура слова. Обследование и формирование у детей с недоразвитием речи: учебное пособие / Г.В. Бабина, Н.Ю. Шарипова. - Электрон. текстовые данные. - М.: ПАРАДИГМА, 2014. - 96 с.
2. Лалаева Р.И., Серебрякова Н.В. Коррекция общего недоразвития речи у дошкольников (формирование лексики и грамматического строя). - СПб.: СОЮЗ, 1999. - 160 с.
3. Гаркушина Ю. Ф., Черлина Н. А., Манина Е.В. Новые информационные технологии в логопедической работе. Логопед М., 2016. № 4. – 122 с.
4. Лынская М.И. Формирование речевой деятельности у неговорящих детей с использованием инновационных технологий: Пособие для учителя-дефектолога // М.И. Лынская; Под ред. С.Н. Шаховской. - М.: Парадигма, 2012. - 128 с.
5. Фатихова Л.Ф. Компьютерные технологии в психолого-педагогической коррекции детей / Л.Ф. Фатихова // Логопед. - 2014. - №2. – 87 с.



ОБУЧЕНИЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СИСТЕМ

Р.Х.ДЖУРАЕВ,
академик, УзНИИПН
Ф.Р.БАКИЕВА,
докторант УзНИИПН

Maqolada bo'lajak informatika o'qituvchilarini axborot va ta'lim tizimlaridan foydalanishga tayyorlashning dolzarbligi asoslanadi. Mualliflar ta'limni virtualizatsiya va axborotlashtirishning zamonaviy shartlari bilan belgilanadigan kasbiy va pedagogik vazifalarni hal qilishda nafaqat axborot va ta'lim tizimlarining o'zidan, balki ularning o'ziga xos texnologiyalaridan ham foydalanishning maqsadga muvofiqligini ko'rsatib o'tadilar. Zamonaviy o'qituvchining kasbiy faoliyat turlari bo'yicha vazifalari tasnifi keltirilgan.

Tayanch so'zlar: axborot-ta'lim tizimi, informatika o'qituvchisini tayyorlash, informatika o'qitish metodikasi, kasbiy-pedagogik vazifalar, kasbiy tayyorgarlik darajalari, ko'rsatkichlar va mezonlar, ta'limni virtuallashtirish va axborotlashtirish.

В статье обоснована актуальность подготовки будущих учителей информатики в области использования информационно-образовательных систем (ИОС). Авторы показана целесообразность использования не только самих информационно-образовательных систем, но и конкретных их технологий при решении профессионально-педагогических задач, определенных современными условиями виртуализации и информатизации образования. Представлена классификация задач современного учителя по видам его профессиональной деятельности.

Ключевые слова: информационно-образовательная система, подготовка учителя информатики, методика обучения информатике, профессионально-педагогические задачи, формирование профессиональной готовности к деятельности в области использования информационно-образовательных систем, уровни профессиональной готовности, показатели и критерии, виртуализация и информатизация образования.

The article substantiates the relevance of training future teachers of computer science within the use of the information and education systems (IES). The author describes the practical use of both information and education systems, as well as their concrete technologies when solving the professional and pedagogical tasks determined by modern virtualization of education.

Key words: information and education system, computer science teachers training, technique of computer science teaching, professional and pedagogical tasks, formation of professional readiness for performing in the field, of use of information and education systems, levels of professional readiness, criteria and indicators, virtualization and informatization of education.



Глобальная информатизация современного общества, затронувшая практически все сферы жизнедеятельности человека, привела к тому, что организация образовательного процесса в вузе или школе в большей мере опирается на использование информационных и телекоммуникационных технологий, включая информационно-образовательные системы (ИОС) [1 - 2]. Данное направление информатизации образования характерно не только как для реализации управленческих, так и прямых учебно-воспитательных функций образования. В качестве примера можно привести достаточно широкое использование различных электронных учебно-методических комплексов, цифровых образовательных ресурсов (ЦОР), образовательных порталов, сайтов (и др.) как в рамках осуществления дистанционного, так и в рамках традиционного обучения. В то же время следует отметить, что в последнее время достаточно актуальными становятся вопросы организации воспитательной работы и взаимодействия с родителями с использованием различных информационно-коммуникационных технологий (ИКТ).

В рамках нашей работы под информационно-образовательной системой мы (согласно С. Д. Каракозову) понимаем совокупность вычислительного и коммуникационного оборудования, программного обеспечения и системного персонала, обеспечивающего поддержку динамической (изменяющейся во времени) информационной модели системы образования для удовлетворения информационных потребностей личности, общества и государства. В то же время, говоря о педагогических технологиях ИОС, мы делаем акцент на изучении тех ее особенностей и технологических возможностей, которые будут являться актуальными и востребованными при использовании данной системы для реализации традиционного обучения. Что же касается проблемы формирования готовности будущего учителя информатики к использованию педагогических технологий ИОС обучения в профессиональной деятельности, то она до сих пор остается до конца не решенной.

Характерной особенностью действующих на сегодняшний день образовательных стандартов по направлению «Педагогическое образование» является наличие такого требования к будущему специалисту, как владение профессиональной компетенцией «способность использовать возможности образовательной среды, в том числе информационной, для обеспечения качества учебно-воспитательного процесса» независимо от конкретного выбранного профиля. Это, в свою очередь, позволяет нам высказать предположение об актуальности формирования готовности к использованию педагогических технологий ИОС не только для будущих учителей информатики, но и для учителей-предметников в целом.



Приведенная выше компетенция (ПК-4, образовательный стандарт по направлению «Педагогическое образование»), разумеется, не описывает всех профессиональных задач учителя (информатики в том числе) - его деятельность настолько многогранна, что весь спектр задач охватить в рамках одной работы невозможно. В связи с этим нами были проанализированы только преобладающие виды профессиональной деятельности учителя учебно-воспитательная и организационно-управленческая. На основе проведенного анализа были выделены следующие профессиональные задачи и подзадачи.

Все задачи мы представили в тесной взаимосвязи, разделив на четыре уровня. Первый (внутренний) уровень включает в себя преобладающие виды деятельности, о которых шла речь выше. Второй уровень показывает элементы процессуальной компоненты педагогической технологии, раскрывающие более детально выделенные виды деятельности. На третьем уровне показаны профессиональные задачи, выделенные на основе анализа видов деятельности учителя. И, наконец, четвертый (внешний) уровень представляет собой непосредственно учебные задачи, трансформированные из профессиональных задач.

На основании предложенных задач нами была разработана методика обучения будущих учителей информатики деятельности в области использования ИОС на основе контекстного обучения. В рамках предложенной модели мы выделили следующие компоненты методики обучения:

1. Целевой компонент является основополагающим и отражает непосредственно цель и предполагаемый результат обучения.

2. Содержательный компонент направлен на отбор и структуризацию содержания обучения в соответствии с ведущими принципами отбора содержания обучения и его дальнейшее преобразование в содержание учебной дисциплины. В нашем конкретном случае данный компонент базируется на двух составляющих: а) теоретических знаниях, как совокупности базовых понятий, правил, законов, принципов, суждений из теории, технологии и практики ИОС и отражающихся в теоретическом блоке содержания обучения, и б) технологических умениях, соответствующих основным видам деятельности учителя и определяющихся совокупностью практических умений и навыков из области ИОС, которые составляют практико-технологический блок содержания обучения, включая упражнения по технологиям - задачный материал.

3. Деятельностный компонент включает в себя отбор таких методов, средств и форм обучения, которые с наибольшей эффективностью будут соответствовать как поставленным целям обучения и отобранному в соответствии с этими целями содержанию, так и результативности обучения.



Деятельностный компонент предлагаемой нами модели методики обучения базируется на:

- контекстном обучении;
- модульной технологии организации процесса обучения;
- методах активного общения (классификация методов обучения по [5]

среди которых мы выделяем - метод целесообразно подобранных задач, который в рамках методики обучения информатики подробно рассматривался Н. И. Рыжовой, метод кейсов (case-study), игровые методы (деловая игра);

- технологии электронного портфолио студентов, как одном из альтернативных способов качественной оценки достижений. Обозначенные выше компоненты методики обучения мы представили в определенной взаимосвязи графически в виде схемы.

Как видно из предложенной схемы, в основе разработанной модели обучения лежит модель деятельности специалиста, при анализе которой вычленяются профессиональные задачи, составляющие в дальнейшем основу целей при разработке содержательного компонента. Каждая профессиональная задача подвергается детализации на более мелкие подзадачи (учебные задачи), показывающие, в принципе, каких именно результатов мы бы хотели добиться в ходе изучения того или иного содержания. На основе выделенных профессиональных и учебных задач строится содержательный компонент, представленный в виде отдельных модулей определенной структуры.

Освоение каждого модуля осуществляется с использованием кейс-метода (case-study), то есть студенты не просто изучают предложенный им теоретический материал и выполняют соответствующие практические и лабораторные работы, а анализируют и решают предложенную им ситуационную задачу (кейс-задачу). Полученные решения кейс-задач, выполненные обучаемым, комплектуют в дальнейшем его электронное портфолио.

Результатом обучения, ожидаемым в ходе использования предлагаемой нами методики, по сути своей является сформированная на определенном уровне готовность будущего учителя информатики к решению профессионально-педагогических задач различного уровня сложности в области использования ИОС.

Для проверки ожидаемого результата обучения нами была предложена методика определения сформированности указанной профессиональной готовности, включающая уровни формирования готовности специалиста (недопустимый, низкий, ограниченный, достаточный, высокий), а также ключевые критерии и показатели сформированности профессиональной готовности будущего учителя информатики в интересующей нас области



использования ИОС: 1) осознанность действий при решении профессиональных задач, в основе которого лежит использование ИОС в учебном процессе; 2) направленность на профессиональную педагогическую деятельность в предметной области в условиях информатизации и виртуализации современного образования; 3) сформированная научно-технологическая основа действий (необходимая система знаний в области дистанционных образовательных технологий, в области теоретических и прикладных знаний создания и использования ЦОР для решения основных профессиональных задач в области использования ИОС); 4) целесообразность - умение четко и правильно ставить цели своей деятельности (выполнять их композицию и декомпозицию, доводя до последовательности конкретных действий, в процессе решения профессиональных задач учителя информатики); 5) освоенность действий (умения, навыки и опыт в решении профессиональных задач); 6) результативность при решении профессиональных задач в области использования ИОС.

Использованная литература:

1. Литвиненко, М. В. Направления развития системы подготовки специалиста в условиях информатизации образования [Текст] / М. В. Литвиненко, Н. И. Рыжова // Информатика и образование. - 2007. - № 7. - с. 119-121.
2. Каракозов, С. Д. Подготовка системного аналитика информационно-образовательных систем [Текст] / С. Д. Каракозов, Н. И. Рыжова // Успехи современного естествознания. - 2004, - № 5. - С. 258.
3. Рыжова, Н. И. Направления формирования профессиональной готовности будущего специалиста к информационно-аналитической деятельности [Текст] / Н. И. Рыжова, В. И. Фомин, Е. В. Филимонова // Мир науки, культуры, образования. - 2009. - № 3. - С. 247-251.
4. Компетентностный подход в педагогическом образовании: колл. моногр. [Текст] / под ред. В. А. Козырева и Н. Ф. Радионовой. - СПб.: Изд-во РГПУ им. А. И. Герцена, 2004. - 392 с.
5. Смолкин, А. М. Методы активного обучения [Текст] / А. М. Смолкин. - М.: Высш. шк., 1991, - 176 с.
6. Педагогические технологии дистанционного обучения [Текст]: учеб, пособие для студентов высш. учеб, заведений / под ред. Е. С. Полат. - М.: Академия, 2006. - 400 с.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA AXBOROT XAVFSIZLIGI OMILI

A.D.ASKAROV,

*Termiz davlat universiteti,
p.f.f.d. (PhD), dotsent*

Ta'limning sifat va samaradorligini oshirish usullaridan biri zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Axborot texnologiyalari ijodkorlik, turli o'quv ko'nikmalarini hosil qilish va mustahkamlash uchun butunlay yangicha imkoniyatlar berib, hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali o'qitishning umuman yangi shakl va uslublarini amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

Tayanch so'zlar: *Axborot borlig'i, axborot xavfsizligini ta'minlash, axborot va telekommunikatsiya tizimlari, axborot sohasidagi intellektual mulkni xuquqiy himoyalash, axborot xavfsizligining ijtimoiy-siyosiy jihatlar, ta'lim tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari.*

One of the ways to improve the quality and effectiveness of education is the use of modern information technology. Information technology provides entirely new opportunities for creativity, the creation and strengthening of various learning skills, and allows for the implementation of completely new forms and methods of teaching through modeling of events and processes.

Key words: *Information availability, information security, information and telecommunication systems, legal protection of intellectual property in the field of information, socio-political aspects of information security, information security in the education system.*

Axborot borlig'ida tahdidlar xavfining oshishi hamda davlat axborot infratuzilmasining zaif himoyalanganligini birinchi navbatda axborot xavfsizligini ta'minlash bilan shug'ullanuvchi malakali kadrlarning yetishmasligi bilan izohlash mumkin. Bu jihatdan ta'lim tizimida axborot xavfsizligi bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratish, uning texnik va gumanitar tomonlarini uyg'un holda ta'lim tizimiga kiritish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Aytish joizki, qonunchilik sohasida qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda axborot xavfsizligini ta'minlashning bu ikki jihati ma'lum darajada o'z aksini topgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonun hujjati axborot resurslari va axborot tizimlari muhofazasini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etsa, «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi Qonun hujjati esa shaxs, davlat va jamiyatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlashning ustuvor tamoyillarini aniqlashda katta o'ringa ega[1].

Xorijiy tajribada ham ta'lim tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari, uning texnik va gumanitar jihatlariga keng e'tibor berilgan. Texnik tashkil etuvchilariga axborotlashtirish sanoatining rivojlanishi, axborot va telekommunikatsiya tizimlari xavfsizligini ta'minlash masalalari, gumanitar tashkil



etuvchilariga esa ma'naviy hayot va axborot faoliyati sohasidagi fuqarolar erkinligi va konstitutsiyaviy huquq me'yorlariga rioya qilish masalalari kiradi. Bu mafkuraviy, siyosiy, yuridik, ijtimoiy masalalar va boshqa axborot xavfsizligining gumanitar tashkil etuvchilari hisoblanadi. Respublikamiz o'quv yurtlarida axborot xavfsizligining texnik tashkil etuvchilarini o'qitishning uslubiy tizimi shakllanmoqda. Hozirda axborot xavfsizligini ta'minlashning texnik asoslariga nisbatan, uning gumanitar asoslarini yaratishda muayyan muammolar borligini aytish mumkin.

Bugungi kunda O'zbekistonda 14 ta texnik yo'nalishdagi mutaxassislar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari faoliyat yuritmoqda. Yaratilayotgan ta'lim standartlari, o'quv va uslubiy qo'llanmalar axborot xavfsizligining texnik tashkil etuvchilarini o'qitishga mo'ljallangan. Axborot xavfsizligi sohasidagi mavjud o'qitish tizimi ko'proq kasbiy faoliyati axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashgan yo'naltirilgan. Xususan, Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti va uning joylardagi filiallarida 2002 yildan boshlab «Elektron tijorat» va «Axborot xavfsizligi» bo'yicha bakalavr va magistr yo'nalishlarida mutaxassislar tayyorlanayapti. Mutaxassisliklar bo'yicha davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari, fan dasturlari yaratilgan va o'rnatilgan tartibda o'quv jarayoniga tatbiq etilgan. Bundan tashqari, 2006 yilda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining muvofiqlashtirish kengashi tomonidan «Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik» fani bo'yicha o'quv dasturi tasdiqlangan va hozirda bir qator oliy o'quv yurtlarining gumanitar fakultetlarida ushbu o'quv kursi bo'yicha darslar olib boriladi. O'quv kursi doirasida talabalarga axborot-psixologik xavfsizlikning ayrim jihatlarini qamragan o'quv rejasida ta'lim beriladi.

Kasbiy faoliyatida doimiy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanadigan gumanitar mutaxassisliklarda axborot xavfsizligini ta'minlashning gumanitar muammolarini o'qitish tizimi shakllantirish asosiy muammolardan hisoblanadi. Xususan, hozirda ayrim rivojlangan davlatlarda (AQSh, Rossiya, Koreya, Singapur va boshqalar) axborot xavfsizligi sohasi mutaxassislarga talab yuqori darajada bo'lib, ta'lim tizimning gumanitar yo'nalishlarida ham axborot xavfsizligi asoslari o'qitiladi. Chunki, ushbu davlatlarda boshqaruvning barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalari keng qo'llaniladi va axborot xavfsizligi masalasiga ham jiddiy e'tibor beriladi.

Respublikamizda elektron hukumat loyihasining joriy etilishi hamda xalqaro axborot jamiyatiga kirish bosqichlarida axborot xavfsizligining gumanitar muammolarini bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarga bo'lgan talab yanada ortadi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, axborot xavfsizligining texnik tashkil etuvchilari bo'yicha bilim va ko'nikmaga ega mutaxassislar kompyuter tarmoqlar orqali uyushtirilgan turli tahdidlarni biror apparat, dastur yoki kriptografik vositalar



yordamida bartaraf etadilar. Biroq, axborot xavfsizligini ta'minlashning gumanitar muammolarini hal etish, istiqbolli qarorlar qabul qilish mutaxassisidan chuqur bilim va ko'nikma talab etadi. Shu sababli, gumanitar yo'nalishdagi mutaxassisliklarda axborot xavfsizligining gumanitar tashkil etuvchilarini o'qitish bo'yicha ta'lim standartlari, o'quv dasturlari ishlab chiqish, ilmiy-tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Fikrimizcha, axborot xavfsizligini ta'minlashning gumanitar tashkil etuvchilari bo'yicha o'qitish tizimini takomillashtirish orqali respublikamizning global axborot borlig'idagi o'rmini yanada mustahkamlashga erishish mumkin. Shu maqsadda biror oliy o'quv yurti qoshida axborot xavfsizligining gumanitar tashkil etuvchilarini ilmiy jihatdan o'rganuvchi markazlar tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, axborot xavfsizligining ijtimoiy-siyosiy jihatlarini chuqur anglab yetish uchun har bir institut va universitetlarda mazkur masalalar yoritilgan ilmiy, uslubiy maqola va qo'llanmalarni tahlil qilish, ularni monitoringini yo'lga qo'yish talab etiladi.

Bizningcha, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ham axborot xavfsizligining gumanitar tashkil etuvchilari bo'yicha o'qitish tizimini joriy etishda mavjud ilmiy-tadqiqot ishlarini tizimlashtirish va navbatdagi ilmiy izlanishlarni quyidagi yo'nalishlarda olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. Jamiyat axborot xavfsizligi: ijtimoiy-siyosiy tahlil va istiqbolni belgilash usullari, iqtisodiy muammolar tahlili.

- milliy manfaatlar va axborot qarama-qarshiliklari;
- jamiyat axborot xavfsizligiga tahdidlar: manbalari, turlari;
- axborot xavfsizligi holatini baholashning majmual mezonlari va uni tekshirish usullari;
- axborot xavfsizligini ijtimoiy-siyosiy monitoring qilish model va mexanizmlari;
- axborot tahdidlaridan muhofazalanish chora-tadbirlarining samaradorligini baholash;
- axborotni yaratish, tarqatish va undan foydalanish jarayonida egalik huquqining iqtisodiy ta'siri va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilish;
- elektron biznesni rivojlantirishning iqtisodiy muammolari (axborot xavfsizligini ta'minlash jihatlari).

2. Axborot borlig'ida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoyalashni huquqiy tartibga solish.

- axborot borlig'ida konstitutsiyaviy huquq va fuqarolar erkinligini ta'minlashning huquqiy mexanizmlari;
- axborot sohasidagi intellektual mulkni huquqiy himoyalash va saqlashga yo'naltirilgan me'yoriy bazani rivojlantirish;



- axborot xavfidan sug‘urtalanish model va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- axborot texnologiyalari sohasidagi investitsiya siyosati masalalarini huquqiy tartibga solish muammolari;

- elektron hujjat aylanishni tartibga solishning xuquqiy mexanizmlari;
- axborot infratuzilmalarining o‘ta muhim bo‘g‘imlariga bo‘layotgan axborot xurujlari tahdidini monitoring qilish tizimini yaratish va faoliyatini huquqiy ta‘minlash;

- axborot va axborot resurslarining himoyalanganlik darajasini aniqlash va nazorat qilishning huquqiy-uslubiy bazasini yaratish va takomillashtirish;

- axborot xavfsizligi sohasiga oid standartlarni ishlab chiqish va xorijiy davlatlarning shu sohaga oid standartlari bilan uyg‘unlashtirish.

3. Shaxs, jamiyat va davlat axborot-psixologik xavfsizligini ta‘minlash muammolari.

- shaxs, jamiyat va davlatni axborot tahdidlaridan psixologik himoyalashning amalda qo‘llaniladigan usullari va mezonlarini ishlab chiqish;

- elektron OAV, xususan Internetda qo‘llanilayotgan turli tajovuzkor psixologik tahdidlardan himoyalash usullarini ishlab chiqish;

- axborot mahsulotlari ustida psixologik tekshirishlar o‘tkazish va tashkillashtirish;

- axborot mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va is‘temolchilar uchun psixologik konsalting tizimini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aripov M.M., Imomov T. Imuxamedova R.M., Sagatov M.V., Xaydarov A.T., Yakubov A.X. Informatika. Axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. 1-qism. -Toshkent: «TDTU». 2002. -320 b.

2. Almatov A.S., To‘rabekov M., Jalolov G‘. Genetikadan masalalar to‘plami va ularni yechish metodikasi. Toshkent, «Universitet», 1993. -82 b.

3. <http://2011.it-obrazovanie.rf/section/78/3957/>



SPORTCHI O'QUVCHI HAMDA TALABALARNI MA'NAVIY-AXLOQIY RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM MUASSASASI, OILA VA MAHALLANING HAMKORLIGI

I.X.ABDULLAYEV,
O'zMU o'qituvchisi

Ushbu maqolada o'quvchi-talaba sportchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan muammolar yoritilgan; ta'lim muassasasi, oila, maxallaning mazkur yo'nalishdagi xamkorligining ahamiyati ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: xamkorlik, sog'loq turmush tarzi, an'analar, milliy qadriyatlar, ahloqiy madaniyat, muomala malakasi, yutuq, mehnatsevarlik va sportga bo'lgan muxabbat, sog'liqni saqlash, oilaviy an'analar.

В статье рассматриваются вопросы духовно-нравственного воспитания студентов-спортсменов; Объясняется важность сотрудничества учебного заведения, семьи и общества в этой сфере.

Ключевые слова: сотрудничество, здоровый образ жизни, традиции, национальные ценности, нравственная культура, коммуникативные навыки, достижения, трудолюбие и любовь к спорту, здоровье, семейные традиции.

The article deals with the issues of spiritual and moral education of students-athletes; The importance of cooperation between the educational institution, family and society in this area is explained.

Key words: cooperation, healthy lifestyle, traditions, national values, moral culture, communication skills, achievements, hard work and love for sports, health, family traditions.

Mamlakatimizda bolalar sportini rivojlantirishda amaliyotga tatbiq etiladigan muhim pedagogik vazifalaridan biri – sportchi o'quvchi hamda talabalarni ma'naviy-axloqiy rivojlantirishda ta'lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligi samaradorligini ta'minlashdan iborat. Mazkur hamkorlik quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi kerak:

Ota-onalarning pedagogik madaniyatni rivojlantirish, shu maqsadda ota-onalarning anjumanlari, sport va salomatlik mavzularida kengaytirilgan davra suhbatlari, ma'ruzalar tashkil etish, ularning sog'lom turmush tarzi haqidagi bilimlari va tasavvurlarini kengaytirish maqsadida turli ma'lumotnomalar va axborotlar bilan qurollantirish, ta'lim muassasalarida esa har bir oilaning bolalar sportiga qo'shgan hissasini sinf rahbarlari tomonidan umumlashtirgan holda ma'ruzalar tashkil etish [2];

Pedagoglar, sport murabbiylari, ota-onalar, ta'lim oluvchilar orasidagi



shaxslararo munosabatlarni takomillashtirish, shu maqsadda, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, hamkorlikdagi sport musobaqalarini tashkil etish, bayramlar munosabatini bilan "Sport mening kelajagim" rukni ostida birgalikda musobaqalar o'tkazish;

Ta'lim oluvchilarni sport to'garaklari va klublariga keng ko'lamda jalb etish maqsadida ota-onalar bilan sherikchilik munosabatlarini yo'lga qo'yish, buning uchun ularni ta'lim muassasasi kengashlari faoliyatiga kengroq jalb qilish, ota-onalar qo'mitasi faoliyatini kengaytirish, ota-onalar va mahalla hamkorligida turli musobaqalarni tashkil etish kabilar.

Ta'lim muassasalarida "Men, otam, onam, akam va ukalarim – barchamiz sportchilar oilasi" mavzusida kechalar tashkil etish mumkin. Bunda ota-onalar o'z farzandlarini yangicha faoliyat vaziyatida ko'rishga muvaffaq bo'ladi. Ta'lim oluvchilarning o'zlarini hamkorlikdagi faoliyatda namoyon qilishlari, ular bilan ota-onalar orasidagi munosabatlarni yangi madaniy bosqichga ko'tarish imkonini beradi. Bunday tadbirlarni asosan ta'lim muassasalarining sport zallarida tashkillashtirilishi lozim. Bu jarayonda sport murabbiylari, o'qituvchilar o'z shogirdlarining ota-onalari bilan yaqindan tanishish, ular haqida tasavvur hosil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ota-onalar esa o'z farzandlarining layoqatlilik darajalari va imkoniyatlarini bilib oladilar.

Ta'lim muassasasi ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy rivojlantirish maqsadida sheriklari bilan samarali hamkorlik o'rnatishga muvaffaq bo'ladi. Buning natijasida ota-onalar o'z farzandlarining imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qarata boshlaydilar, sportning muayyan turi bilan shug'ullanishlariga ko'proq sharoit yaratib beradilar [1]. Shu tariqa, uzluksiz ta'lim muassasalarining barcha bosqichlarida hamkorlikda sportchi o'quvchi va talabalarni ma'naviy-axloqiy rivojlantirish dasturlari amaliyotga tatbiq etiladi. Ushbu dasturlarni amaliyotga tatbiq etish orqali quyidagi natijalarga erishish nazarda tutiladi:

1) Sportchi o'quvchi va talabalarda fuqarolik, fidoiylilik, O'zbekiston davlatining huquqiy me'yorlariga hurmat, inson erki va majburiyatlarini e'tirof etish ko'nikmalari shakllantiriladi. Buning uchun:

O'zbekiston davlati va jamiyatiga nisbatan qadriyatli munosabat, o'z xalqi, yashab turgan hududi, oilasi, ajdodlarimiz merosi, O'zbekistonning davlat razmlari, Davlat Qonunlari, O'zbekiston davlati, o'zbek tili, o'zbek xalqining asriy an'analari, kekxa avlod vakillariga mehr-muhabbatni qaror toptirish;

O'zbekistondagi fuqarolik jamiyati institutlari, ularning ijtimoiy faoliyati haqida dastlabki tasavvurlarga ega bo'lish;



O'zbekiston davlati va jamiyatining qurilishi, uning tarkibi haqidagi bilimlarga ega bo'lish;

O'zbekiston davlati tarixining diqqatga sazovor jihatlarini bilish;

O'zbek xalqining tarixiy-etnik xususiyatlari va yutuqlari haqida ma'lumotga ega bo'lish, o'zining fuqarolik burchini fidoiylilik bilan bajargan o'zbek xalqining etakchi farzandlari, jamoat arboblari, san'atkorlar, sportchilar haqidagi zarur ma'lumotlarni o'zlashtirishlari;

O'zlari egallagan qadriyatlarni fuqarolik jamiyati yutuqlariga tatbiq etishga oid dastlabki tajribalarga ega bo'lishlari, milliy tarix va madaniyat yutuqlaridan xabardor bo'lishlari;

Sport musobaqalari jarayonida fuqarolik, fidoiylilik sifatlarini namoyon etishlari;

Boshqalar bilan ijtimoiy-madaniy muloqotga kirisha olish tajribasiga ega bo'lishlari;

2) Axloqiy his-tuyg'ular va ongli munosabat tajribasini o'zlashtirgan bo'lishlari uchun:

Axloqiy xulq-atvor va madaniy me'yorlar haqida tasavvurga ega bo'lishlari, o'z kamandadoshlari, oiladagi kattalar, ta'lim muassasalaridagi sinfdoshlari va kursdoshlari bilan axloqiy munosabatga kirishish me'yorlarini bilishlari;

Sport musobaqalari jarayonida turli din va millat vakillari bilan o'zaro hamkorlikka asoslangan munosabatlarni o'rnatishlari;

Tengdoshlari, kattalar va kichik yoshdagilar bilan o'zaro munosabatga kirishishda axloqiy me'yorlarga amal qilishlari;

Kattalar, o'z o'qituvchilari va murabbiylari bilan qabul qilingan umumaxloqiy me'yorlar asosida munosabat o'rnatishlari;

Ota-onalari, murabbiylari, kattalar, o'qituvchilarga nisbatan o'zaro hurmatga asoslangan munosabatda bo'lishlari, kichik yoshdagilar sport olamiga kirib kelayotgan o'zlaridan kichik bolalarga nisbatan g'amxo'rlik qilishlari va yordam ko'rsatishlari [1];

O'z oilasi, ta'lim muassasalarining an'analari haqida bilishlari va ularga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishlari talab etiladi.

3) Sportchi o'quvchi va talabalar mehnatsevar, o'qish va sportga nisbatan ijodiy munosabatda bo'lish tajribasini egallashlari:

Ijod, mehnat va sport mashqlariga nisbatan qadriyatli munosabatda bo'lishlari;



O'zbek xalqi va butun insoniyatning yutuqlariga hurmat bilan qarashlari;
Sportga nisbatan qadriyatli ijodiy munosabatda bo'lishlari;
O'z faoliyatlarini amalga oshirish va ijodiy mehnat va sport turlari bilan shug'ullanish mayllariga ega bo'lishlari;

Bilish, amaliy hamda ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug'ullanishlari zarur [3].

4) Sportchi o'quvchi va talabalarda salomatlik va sog'lom turmush tarziga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish:

O'zlari, yaqinlari va atrofdagilarning salomatliklariga nisbatan qadriyatli munosabatda bo'lishlari;

Insonning jismoniy, axloqiy, psixologik, ruhiy, ijtimoiy-psixologik salomatligi orasidagi o'zaro aloqadorlik haqida tasavvurga ega bo'lishlari;

Inson salomatligining mustahkamlanishida axloq va ma'naviyatning muhim o'rin egallashini bilishlari;

Salomatlikni saqlashga oid dastlabki shaxsiy tajribalarni ega bo'lishlari;

Inson salomatligi uchun jismoniy tarbiya va sportning muhim o'rin egallashi haqida tasavvurga ega bo'lishlari zarur.

Sportchi o'quvchi va talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash ota-onalar va ta'lim muassasalari hamkorlarining xulosalariga tayanish; yashirin anketalar o'tkazish, bunda sportchi o'quvchi va talabalarining mashg'ulotlar va musobaqalar jarayonida qadriyatlarga amal qilish darajalarini aniqlash nazarda tutiladi; sportchi o'quvchi va talabalarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan turli testlar; sportchi o'quvchi va talabalarining qimmatli fikrlaridan foydalanish kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бачинин В.А. Духовная культура личности. - Москва, 1986. - 218с.
2. Лившиц Р.Л. Духовность и без духовность личности - Екатеринбург, 1999. -152с.
3. Usmanxo'jaev T.S. Bolalar va o'smirlar sporti. - Toshkent: 2006. 103 bet.



O'SMIRLARDAGI "OMMAVIY MADANIYAT"GA XOS SALBIY XUSUSIYATLARNI GENDER YONDASHUV ASOSIDA BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

X.M.TOJIBOYEVA,

O'zPFITI doktoranti, (PhD), k.i.x.

Ushbu maqolada o'smirlardagi "ommaviy madaniyat"ga xos salbiy xususiyatlarni gender yondashuv asosida bartaraf etishning pedagogik chora-tadbirlari, qiz va o'g'il bolalar tarbiyasidagi o'xshashliklar va farqlarni hisobga olish imkoniyatlari, yo'nalishlari haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: ommaviy madaniyat, o'smir, o'g'il bola, qiz bola, gender yondashuv, immunitet, madaniy dunyoqarash.

This article discusses the pedagogical measures to overcome the peculiarities of «mass culture» in adolescents on the basis of a gender approach, the possibilities and directions of taking into account the similarities and differences in the upbringing of girls and boys.

Key words: mass culture, adolescent, boy child, girl child, gender approach, immunitet, cultural outlook.

В статье рассматриваются педагогические меры по преодолению особенностей «массовой культуры» у подростков на основе гендерного подхода, возможности и направления учета сходства и различий в воспитании девочек и мальчиков.

Ключевые слова: массовая культура, подросток, мальчик, девочка, гендерный подход, иммунитет, культурное мировоззрение.

Bugungi kunda "ommaviy madaniyat" tarafdorlari shaxsning gender xususiyatlarini yo'qotishga qaratilgan stereotiplarni namoyon qilmoqda. Bunday stereotiplar ayniqsa o'smir yoshdagi o'quvchilar xatti-harakatlariga tez singib, ulardagi o'ziga xoslikning yo'qolishiga ko'maklashmoqda. Buning natijasida qiz bolalardagi o'ziga xoslik, sharm-hayo yo'qolib, qizlar va o'g'il bolalar orasidagi farqlar ko'zga tashlanmayapti. Chunki o'smir yoshdagi o'g'il va qiz bolalarda o'ziga xos madaniy dunyoqarash shakllana boshlaydi.

Aksariyat hollarda qizlarning soch turmaklari, kiyimlari, o'zini tutishi o'g'il bolalarga o'xshab ketayotgan bo'lsa, o'g'il bolalardagi ayrim sifatlar, jumladan, mardlik, qo'rqqanlik, qat'iyatlilik yo'qolib bormoqda. O'smir yoshdagi o'g'il va qiz bolalar birday ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolmoqdalar. Ular o'zlarining asosiy vazifalarini unutib, "ommaviy madaniyat" tarafdorlari ilgari surayotgan g'oyalar, qarashlarga asir bo'lmoqdalar.

"Pedagogika" ensiklopediyasida "Ommaviy madaniyat (arabcha ommaviy – umunga, umumxalqqa tegishli, oid) – 1. Xalq madaniyati, urf-odatlar, marosimlari, san'ati va shu kabilarni ifodalovchi tushuncha. 2. OAV rivoji bilan bog'liq hodisa.



3. Ommaviy ishlab chiqarish. 4. Madaniyatning murakkab, hammavaqt bir xil talqin qilinmaydigan o'ziga xos shakli" tarzida talqin etiladi[1; 49-b.].

Gender xususiyatlarni yo'qotish "ommaviy madaniyat" tarafdorlarining asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, ushbu maqsadni amalga oshirish uchun o'smirlar qatlamida targ'ibotlarni o'tkazish juda oson hisoblanadi. Chunki ularning ongini yuzaki jimjimador narsalar, qo'shiqlar, modalar, ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlar, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi o'yinlar juda tez band qiladi.

"Ommaviy madaniyat" tarafdorlari internet tarmoqlari orqali qizlar va o'g'il bolalarning tez tanishuvini targ'ib qilib, qizlarga nisbatan madaniy zo'ravonlik o'tkazish orqali ularning mentalitetiga xos bo'lgan sifatarni yo'qotishga harakat qilmoqdalar. Xorijdagi jimjimador hayotni targ'ib qilib, qiz bolalarni chet ellarda yashashga undamoqdalar. Bunday harakatlarning asosiy maqsadi odam savdosi tarafdorlari o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishishlari uchun qulay sharoit yaratishdan iborat. Odam savdosi tarafdorlari "ommaviy madaniyat" niqobi ostida harakat qilib, o'smir yoshdagi qiz va o'g'il bolalarning ongi va qalbini zabt etish orqali o'z maqsadlariga erishmoqdalar.

Qiz bolalarning jinsiy xususiyatlarini yo'qotish, bolalar nikohini uyushtirish kabi harakatlar ham "ommaviy madaniyat" tarafdorlari tomonidan targ'ib qilinmoqda. Ayrim oilalardagi kambag'allik ham "ommaviy madaniyat" tarafdorlarining qizlarga nisbatan niqoblangan zo'ravonlikni amalga oshirishlariga sharoit yaratmoqda. Shu bilan bir qatorda ko'plab ota-onalarning xorijda mehnat qilayotganliklari ham qarovsiz qolayotgan o'smir yoshdagi bolalarning "ommaviy madaniyat" ta'siriga berilishlarini ta'minlamoqda.

Gender zo'ravonliklar o'zbek xalqining milliy mentalitetiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda jamiyatdagi barqarorlikni izdan chiqarmoqda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Qiz bolalarga nisbatan "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi zo'ravonlik din tarafdorlari tomonidan ham amalga oshirilmoqda. Ular Islom dinining qonun qoidalarini buzib ko'rsatgan holda o'smir yoshdagi bolalar, ayniqsa qizlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqdalar.

O'g'il bolalarni ishonchsiz diniy buzg'unchi g'oyalar bilan qurollantirib, chet ellarga borishga, jangarilik harakatlarida ishtirok etishga targ'ib qilmoqda.

"Ommaviy madaniyat" tarafdorlarining turli xatti-harakatlariga qarshi kurash chora-tadbirlarining qo'llanilayotganligiga qaramasdan bu sohada samaradorlikka erishish imkoniyatlari yetarlicha emas. "Ommaviy madaniyat" tarafdorlari turli diniy tashkilotlar tuzish orqali o'g'il va qiz bolalarning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqdalar. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi hukumati yoshlar orasida sog'lom diniy e'tiqod va dunyoqarashni shakllantirish maqsadida 2018 yil 14 avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son[2], 2018 yil 12 maydagi "Buyuk allomalar, adib va



mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3721-son[3], 2018 yil 28 noyabrda "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son qaror[4]lari orqali diniy ta'lim-tarbiyani tartibga solish, yoshlar ongida sog'lom diniy dunyoqarash va e'tiqodni shakllantirish, jamiyat a'zolarining madaniyatini rivojlanshtirish, ajdodlarimiz diniy merosiga nisbatan hurmat uyg'otish kabi ustivor maqsadlarni amalga oshirmoqda.

Jamiyat hayotini sog'lomlashtirish, yoshlarning madaniy dunyoqarashini rivojlantirish maqsadida alohida chora-tadbirlar dasturi tuzilib, keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Nafaqat "ommaviy madaniyat" tarafdorlari, balki ularning ta'siriga berilgan ota-onalar ham o'z farzandlariga xorijdagi jimjimador hayotni targ'ib qilib, ularning dunyoqarashini buzmoqdalar.

Insonparvar jamiyatlarning barchasi, shu jumladan, O'zbekiston ham yoshlarning mentaliteti, gender xususiyatlarini saqlash va himoya qilishga harakat qilmoqda. Ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar yoshlarni diniy aqidaparastlik, buzg'unchi g'oyalarga berilish, "ommaviy madaniyat"ning salbiy oqibatlaridan ogoh qilishga yo'naltirilishi kerak. Pedagogik jamoaning barcha a'zolari o'g'il va qiz bolalarda o'ziga xos sifatlarining shakllanishiga harakat qilishlari va buning uchun zarur pedagogik chora tadbirlarni qo'llashlariga erishish alohida amaliy ahamiyatga ega. Chunki o'smir yoshdagi o'quvchilar ongini buzg'unchi g'oyalardan avaylab asrash oila bilan bir qatorda ta'lim muassasasining ham asosiy vazifalaridan biridir.

Gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarni "ommaviy madaniyat" xurujlaridan asrashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi lozim. Insonparvarlikka asoslangan madaniy faoliyatning gender zo'ravonlikka aylanishiga yo'l qo'ymaslik uchun ta'lim muassasasida o'quvchilarning milliy va umuminsoniy madaniy qadriyatlarini o'zlashtirishlari uchun qulay sharoit yaratish taqozo qilinadi.

Shu bilan bir qatorda bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy axborotlar ta'siriga berilgan o'smir yoshdagi o'quvchilarni mazkur ta'sirdan himoya qilishning pedagogik tizimini vujudga keltirish alohida ahamiyatga ega. O'quvchilar ongiga milliy madaniy qarashlarni singdirish uchun qat'iy chora-tadbirlar ishlab chiqish talab qilinmoqda. Bunday chora-tadbirlarning maxmun mohiyati o'smir yoshdagi o'quvchilarni "ommaviy madaniyat" ta'sirlaridan asrashga qaratiladi. "Ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'siri birinchi navbatda o'g'il va qiz bolalarda o'zlarining jinsiy mansubliklarini anglamaslik hissini shakllantirmoqda. Ta'lim muassasalarida o'g'il va qiz bolalarga nisbatan "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'sirini yumshatish uchun pedagogik jamoa a'zolari ham alohida faollik ko'rsatishlari lozim.

"Ommaviy madaniyat"ning salbiy oqibatlari ta'siriga berilgan o'smirlarni ogohlikka undash, ularning harakatlarida namoyon bo'ladigan "ommaviy



madaniyat” ko‘rinishlariga berilish holatlarini bartaraf etish maqsadida pedagogik jamoa a‘zolari bilan ota-onalar birgalikda faoliyat ko‘rsatishlari ham alohida ahamiyatga ega. Buning uchun qo‘llaniladigan chora-tadbirlar mazmunida milliy madaniyatga oid bilimlarning salmog‘ini oshirish talab qilinadi.

“Ommaviy madaniyat” ta’siriga berilgan o‘smirlarni o‘z vaqtida ogohlantirish talab qilinadi. Buning uchun ularga “ommaviy madaniyat”ning salbiy oqibatlarini bayon etish, milliy madaniyatning salbiy jihatlari ko‘rsatish zarur. “Ommaviy madaniyat” xurujlari haqida o‘smirlarni xabardor qilishda u haqidagi bilimlar va uning salbiy oqibatlarini bayon etish muhim ahamiyatga ega. Etnik xarakterdagi madaniyatga oid bilimlarda quyidagilar o‘z ifodasini topadi: xalqning milliy, madaniy an‘analari; qadriyatlar; urf-odatlar; mentalitetga xos bo‘lgan qarashlar.

Pedagogik tizim doirasida o‘zlashtirilishi talab qilinadigan bir qator yo‘nalishlarni ko‘rsatish lozim. “Ommaviy madaniyat” xurujlari qizlar va o‘g‘il bolalarning ruhiyatiga bir xilda zarar yetkazadi. Ularni loqaydlikka, xudbinlikka undaydi. O‘z maqsadiga zo‘ravonlik bilan erishish lozimligini targ‘ib qiladi. Ular shaxsiy hayotlarida erkin bo‘lish degan fikrni qat’iy himoya qiladilar.

“Ommaviy madaniyat” insonning bir qator huquqlarini poymol etishga xizmat qiladi. Qizlar va o‘g‘il bolalar orasidagi tengsizlik, qizlarni itoatda saqlash, odam savdosi qurbonlariga aylantirish, ularning ruxiy xotirjamligini buzish, o‘tmishdagi qotib qolgan stereotiplarni qo‘llab-quvvatlash asosida ularning huquqlari poymol etiladi.

O‘zaro rozilik asosida amalga oshiriladigan harakatlar “ommaviy madaniyat” tarafdorlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, aniq dalillarga tayanish asosida faoliyat ko‘rsatishni taqozo etadi. Bunday harakatni amalga oshirish uchun o‘smir yoshdagi o‘quvchilar uning oqibatlarini bilishlari va baholay olishlari lozim. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi tajovuzkor o‘yinlar o‘quvchilarning ruxiyatiga ta’sir qilib, ularning salbiy xulq-atvor me‘yorlarini o‘zlashtirishlariga sabab bo‘ladi. Buning natijasida qizlar ham o‘g‘il bolalar ham bab-baravar yovuzlikka nisbatan befarq bo‘lib qoladilar. Ularda raxmdilik, shavqatlilik sifatleri yo‘qolib, xudbinlik, tajovuzkorlik ko‘rsatishga moyil bo‘ladilar. Qiz bolalardagi iffat, nazokatlilik, xushmuomalilik, muloqotga kirishuvchanlik sifatleri o‘mini qo‘rslik, adovat, o‘z olishga moyillik, urushqoqlik kabilar egallaydi.

O‘smir yoshdagi o‘quvchilar birinchi navbatda kundalik turmush uchun zarur bo‘lgan qadriyatlar, ularga amal qilish qoidalari hamda o‘zlarining huquqlarini bilishlari lozim. O‘zining jinsiy mansubligini anglash “ommaviy madaniyat” targ‘ibotchilarining xatti-harakatlariga qarshi tura olishni ta’minlaydi. Aksariyat xollarda o‘smir yoshidagi bolalar o‘z xatti-harakatlarining oqibatlarini munosib baholay olmaydilar. Shuning uchun ham ular ijtimoiy tarmoqdagi o‘yinlar, muloqotlarga moyil bo‘lib, salbiy xulq-atvor stereotiplarini osongina o‘zlashtiradilar. Natijada ular rivojlanishdan orqada qolib, kognitiv faoliyatlarida buzilishlar vujudga keladi.

Jamiatda o‘z o‘mini topishga intilish, o‘z rollarini to‘g‘ri bajarishga harakat qilish,



o'z oldiga aniq maqsadlar qo'yish, o'smir yoshdagi o'g'il va qiz bolalarning madaniy dunyoqarashi qay darajada shakllanganligiga bog'liq. Aniq madaniy dunyoqarashga ega bo'lgan, "ommaviy madaniyat"ning salbiy oqibatlari haqida to'g'ri tasavvur hosil qila oladigan o'smirlargina o'z hayot yo'llarini aniq belgilab olishga harakat qiladilar. Qizlarga nisbatan madaniy tajovuzlar ta'lim muassasasi, jamiyat va oilada ularning bajaradigan rollarini to'g'ri belgilab bermaslik natijasida vujudga keladi.

Ota-onalar va pedagoglar o'smir yoshidagi o'g'il va qiz bolalarning xatti-harakatlari, ular amal qiladigan stereotiplar, qiziqishlar, ma'naviy madaniy qarashlari, e'tiqodlarini har tomonlama chuqur tahlil qilish natijasida baho berishlari hamda oilada, ta'lim muassasasida ularning mavqelari, bajaradigan rollarini to'g'ri belgilab berishlari, o'z rivojlanish traektoriyalarini tanlashlariga sharoit yaratishlari lozim. Shu bilan bir qatorda pedagoglar ham ota-onalar ham o'smirlarning madaniy dunyoqarashlari, sog'lom rivojlanishiga e'tibor qaratishlari zarur. Buning uchun ta'lim jarayonining barcha subyektlari o'zbek xalqining madaniy qadriyatlarini chuqur o'zlashtirishi, ularning "ommaviy madaniyat"dan ustun jihatlari aniq farqlay olishi va o'smirlar ongida madaniy qadriyatlarimiz haqida to'g'ri tasavvur hosil qilishlari talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, "ommaviy madaniyat"ning o'smir yoshdagi o'g'il va qiz bolalarga ko'rsatayotgan ta'sirini aniqlash, uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlarini izlash imkonini beradi. Bugungi kunga kelib gibrid madaniyatning ta'sir ko'lamini tobora kengayib borib ko'plab salbiy oqibatlarni namoyon etmoqda. Uning salbiy oqibatlarini kompleks ta'sir ko'rsatish asosidagina bartaraf etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogika: ensiklopediya. III jild. jamoa // Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 424-bet. B.49.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi PQ- "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" 3907-son qarori. <https://lex.uz>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 maydagi "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida" PQ-3721-son qarori. <https://lex.uz>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son qarori. <https://lex.uz>.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA KEKSA AVLOD TAJRIBASINI TADQIQ ETISH VA UNING AMALIYOTDAGI HOLATI

A. T. TURGUNOVA,

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent v.b.*

Maqolada keksa avlod vakillarining oila muhiti, ta'lim muassasalarida ta'limiy hamda tarbiyaviy funksiyalari yoritilgan bo'lib, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar va yurtimizda gerontopedagogika sohasida amalga oshirilayotgan ishlar muammo va yechimlar tadqiq etilgan.

Tayanch so'zlar: *xulq-odob qadriyatlari, pedagogika, gerontopedagogika, katta avlod, ajdodlar merosi, oilaviy ahvol, yoshlar tarbiyasi, nosog'lom muhit.*

В статье раскрыты проблемы и решения непрерывного взаимодействия и функций института семьи и образовательных учреждений, с точки зрения геронтопедагогике.

Ключевые слова: *ценности поведения, педагогика, геронтопедагогика, старшее поколение, наследие предков, семейное положение, воспитание молодежи, нездоровая окружающая.*

In this article, the problems and solutions in the implementation of the Family Institute, its educational and educational functions have been studied from the gerontopedagogical point of view.

Key words: *succession, ethical heirloom, behavioral values, pedagogy, gerontopedagogics, older generation, ancestral heritage, spiritual support, unhealthy ambient.*

Uzluksiz ta'lim – bu shaxsning jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda butun hayoti davomida bilim va solohiyatini oshirish jarayoni hisoblanadi. Bu jarayonni samarali amalga oshirishda yoshlarni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yangicha yondashuv, yangicha metodlar asosida tarbiyalash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda yurtimizda uzluksiz ta'lim tizimida ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Yosh avlodning oila muhitidan to'liq ta'limdan keyingi ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishgacha bo'lgan uzluksiz bilim olishlari, kasb o'rganishlari uchun shart-sharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor vazifalariga aylandi.

Ushbu siyosatning amaldagi isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori qabul qilindi. Qarorda homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi, uzluksiz ta'lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o'zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan[1].



Yurtimizda qadimdan milliy urf-odat va anʼanalarimizni yosh avlodga yetkazish, ularni jismonan baquvvat, maʼnan yetuk, mehr-oqibatli insonlar qilib tarbiyalashda oila muhiti muhim oʻrin egallab kelgan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev taʼkidlaganlaridek “Avlodlar davomiyligini taʼminlaydigan maʼnaviyat qoʻrgʻoni bu – oiladir”.

Uzluksiz taʼlim tizimining poydevori, tamal toshi oiladan boshlanadi. Har bir oilaning oʻziga xos taʼsir doirasi mavjud boʻlgani kabi milliy qadriyatlarni saqlab qolishda, oilalar muhitini yaxshi va yomon tomonga oʻzgarishida, bola tarbiyasida bobo va buvilarning roli muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada kattalarning oʻzaro samimiy munosabati, farzandlari bilan yaqin, doʻstona munosabatda boʻlishi, ularning kelajakdagi orzu-maqсадlarini tushunib olishlari, farzandlarning sogʻ-salomat voyaga yetishlari uchun asos boʻladi.

Bolaning ilk maʼnaviy-tarbiyaviy motivlarini shakllantirishda oilaning roli muhim hisoblanib, oila muhitida bobolar oʻgiti, momolar pand-nasihatlari orqali singdirib boriladi. Bu qadriyatlar bolaning ilk yoshlik yillaridan alla, ertak, maqollar va topishmoqlar orqali shakllantiriladi.

Koʻplab rivojlangan mamlakatlarda bolalarning maktabgacha taʼlim muassasalariga borishi majburiy hisoblanmaydi. Shu jumladan yurtimizda ham bu tizim oilaning kattalari bobolar va buvilar masʼulligida amalga oshiriladi.

Keksa avlod tajribalarini uzluksiz taʼlim tizimidagi tarbiyaviy funksiyalari:

- avlodlar vorisligini taʼminlash;
- milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash;
- estetik, huquqiy, ekologik, mehnat tarbiyasiga oʻrgatish;
- hayot haqidagi dastlabki bilimlarga oʻrgatish;
- yaxshi fazilatlar, halollik, xushmuomalalikka oʻrgatish.
- maʼnaviy -axloqiy ruhiy va jismoniy kamolot uchun zarur boʻlgan ijobiy fazilatlarini shakllantirish.

Maktabgacha taʼlim tizimi uzluksiz taʼlimning boshlangʻich qismi, eng asosiy boʻgʻinidir. Bu davrda bolalar umr davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi, ijtimoiy muhit haqida dastlabki tasavvurlarga ega boʻladi, oilaning taʼlimiy va tarbiyaviy faoliyatini davom ettiradi, rivojlantiradi, qoʻllab-quvvatlaydi va ragʻbatlantiradi.

Xalq taʼlimi tizimida olib borilayotgan islohotlar ayniqsa, yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini taʼminlashda maktabdan tashqari taʼlimning zamonaviy usullari va yoʻnalishlarini joriy etish, orqali yoshlarimizni katta hayotga tayyorlash masalalarida buvi bobolarning oʻrni katta. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 sentyabrdagi “Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi oʻrni va ijtimoiy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 816-sonli qarorida keksa avlod vakillari, nuroniyarning boy va ibratli hayot tajribasi, amaliy bilim va koʻnikmalarini yoshlarga



targ'ib etish uchun umumta'lim maktablarida uchrashuvlar va tarbiyaviy soatlarni tashkil etish bo'yicha reja ishlab chiqish va amalga oshirish belgilab qo'yilgan[2].

Ushbu qarorni ijrosini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablarida o'quvchilarning faol dunyoqarashi va ma'naviy-axloqiy ko'nikmalarini rivojlantirish, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida, ijtimoiy faol, jamiyatda turli sohalarida yutuqlarga erishgan keksa avlod vakillari jalb qilinib, o'z bilimlari, tajribalari, hayot yo'llari, erishgan yutuqlari haqida o'quvchilarga yetkazib, yoshlarimizning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida yordam berib kelmoqda.

Uzluksiz ta'lim shaxsni jamiyat ehtiyojlariga mos xolda o'qitishni nazarda tutar ekan, bugungi kunda fan texnikaning rivojlanishi keksa avlod vakillarini boy tajribalaridan samarali foydalanish bilan birga ularni zamon talablariga mos xolatda o'qitishni ham talab qiladi.

Dunyoda keksa avlod vakillarini turmush tarzini yaxshilash, ijtimoiy himoya qilish, sog'liqni saqlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, o'qitishga oid tadqiqotlar katta ahamiyatga ega. BMT tadqiqotlariga ko'ra umrguzaronlikning oshishi natijasida 2050 yilga kelib 100 yoshga yetganlar soni kamida 2,2 million kishini tashkil etadi. Tug'ilishlar sonining kamayishi natijasida 5 yoshgacha bo'lgan har bir bolaga 65 yoshdan oshgan ikki keksa to'g'ri keladi. Jamiyatda keksalar sonining oshishi ijtimoiy himoya siyosatini oshirish bilan birga ushbu aholining ijtimoiy faol qatlami tajribasidan samarali foydalanishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini hayotga tadbiq etishni talab qiladi. Bu texnologiya rivojlangan mamlakatlarda gerontopedagogika maktablari orqali amalga oshiriladi.

Gerontopedagogika – inson hayotining keksalik davri pedagogik xususiyatlarini o'rganadigan soha bo'lib, ijtimoiy faol keksa avlod vakillarining o'zlari va jamiyat manfaatlar uchun uzoq va mazmunli umr kechirishini nazarda tutadi.

Atama birinchi marta nemis tarixchisi K. Kapp tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, sinonim sifatida «uchinchi asr-avlodi» atamasi ishlatiladi.

Ba'zi manbalarda gerontopedagogika atamasiga nafaqa yoshidagi insonning pedagogikasi - tarbiyasi, o'qishi va rivojlanish tizimi deb ta'rif beriladi.

Rivojlangan mamlakatlarda, davlat va nodavlat tashkilotlarida ko'plab universitetlar, keksa avlod vakillarini ijtimoiy faollashtirish, gerontopedagogikani rolini oshirish maqsadida zamonaviy fan – texnologiyalariga o'qitish, malakasini oshirish bo'yicha ta'lim dasturlari joriy qilmoqda.

Yigirmanchi asrning 60-yillarida Yaponiya davlat tashkilotlarida keksalar faoliyat olib boradigan maxsus maktablar ish boshladi. Maktabda keksa avlod vakillari yoshlarga ta'lim va tarbiya berish bilan birga ularni hayotga tayyorlash, ayollarni oilaviy hayotga o'rgatish, bo'lajak onalarni bolalarni parvarishlashga o'rgatishdan tortib hayotda uchraydigan turli xil ijtimoiy



muammolarni hal qilishga o'rgatadigan o'quv dasturlari taklif qilindi. Ushbu tizim 1980 yildan beri bugungi kungacha zamon talablariga mos holda muntazam faoliyat olib bormoqda.

Finlyandiya, Daniya va Shvesiyada davlat universitetlari va kollejlari keksalar uchun maxsus ta'lim – akademiyalari faoliyat yuritadi. Akademiya faoliyati aholi, vazirlik va mahalliy hokimiyat tomonidan moliyalashtiriladi.

Niderlandiyada "Perspektiv" nafaqa loyihasi tashkil etilgan bo'lib, uning maqsadi nafaqaga chiqqan keksalar jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'lim olishlari uchun imkoniyat yaratishdir. Ular keksalarni bugungi fan-texnika yutuqlari, zamonaviy hayot sharoitida yangi munosabatlar o'rnatish, xulq-atvorni rivojlantirishga yordam beradi. Keksalar talablariga ko'ra kurslar besh yoki yetti kunlik qilib tashkil etiladi.

Italiyada keksalar uchun boshlang'ich va o'rta maktablar darajasida kurslar tashkil etilgan bo'lib, ularning vazifasi keksalar ta'lim darajasini qoplashdir, shuningdek, keksa avlod vakillaridan iborat havaskor xor va teatr gruppalari ham faoliyat yuritadi.

Rivojlangan mamlakatlarda keksalik davri, keksa avlod vakillarining jamiyatdagi maqomi to'g'risida tadqiqot olib borgan olimlarning fikrlariga ko'ra jamiyatda yangi "Yoshni kamsitish" atamasi paydo bo'ldi. Bu keksalar haqidagi salbiy fikrlarni o'z ichiga oladigan atama bo'lib, ya'ni qariyalar iqtisodiy yuk, jamiyatning rivojlanishi uchun hissa qo'sha olmaydi, qarilik bu kasallikdir deb tushuniladi. Sotsiologik so'rovlarga ko'ra zamonaviy yoshlar jamiyatda moddiy qadriyatlar ma'naviy qadriyatlardan yuqori turadi deb hisoblashadi.

Keksa avlod vakillarini barchasini ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlar deb xulosa qilish to'g'ri emas albatta. 60 va undan yuqori yoshni shoirlar yorqin kuz fasli deb atashsa, ba'zilar hayotning pasdu-balandini ko'rgan donishmandlik, donolik davri deb ham atashadi. Sababi, jamiyatimizda keksalik davrida o'zining jismoniy, aqliy va ijtimoiy faolligini saqlab qolgan faol qariyalar ko'plab topiladi.

Yurtimizda qadimdan yoshlarni tarbiyalashda faol ishtirok etib keladigan piru badavlat keksalarimiz doimo xalqning e'zozida, hurmatida bo'lib kelgan. Biroq, bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishi keksa avlod vakillariga nisbatan munosabatni o'zgartirishni, ularni jamiyatning muhim ijtimoiy qarorlarini qabul qilishda faol ishtirokini ta'minlashni, boy tajribalaridan samarali foydalanishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev o'z ma'ruzalarida farzand tarbiyasida keksa avlod vakillarining roli haqida gapirib, "Ilgari bir bolaga yetti mahalla ota-ona degan maqolga amal qilib yashardik. O'g'il-qizlarimizning axloq-odobi, o'qishi uchun nafaqat ularning ota-onalari, avvalo, mahalladagi nuroniylar,



kayvoni keksalar, ziyolilar o'zini mas'ul va javobgar deb bilardi. Shuning uchun ham mahallalarimizda urush-janjal, bezorilik, ichkilikbozlik qilib yuradigan yoshlar, oilaviy ajrimlar kam bo'lardi. Keksa avlod vakillari yoshlarni mehnatga, o'z uyini, ko'chalar, guzar va maydonlarni ozoda tutishga o'rgatardi, deb yoshlarda oilaviy qadriyatlarimizga zid bo'lgan turli ma'naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda, oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda keksa avlod vakillarining roli beqiyosligini ta'kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlik — go'zallik, keksalik — ulug'lik davri hisoblanadi. Keksalik umr daraxtining har jihatdan voyaga yetgan, hosili pishib yetilgan, birgina soyasining o'zi ming dardga davo, har bir so'zi ming ma'noga ega faslidir. Keksalari bor uyda qut-baraka, tinchlik-totuvlik, ahil-inoqlik bo'lishi ham shundan. Umrini halol mehnat bilan o'tkazgan, solih farzandlar tarbiyalab yetishtirgan, o'zidan ibratli amallar qoldirayotgan bunday insonlar bilan muloqot qilishning o'zi katta baxt.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda gi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori
2. 2019 yil 27 sentyabrda gi "Keksa avlod vakillarining jamiyatda gi o'rni va ijtimoiy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 816-sonli qarori
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. -Т.: Давлат илмий нашриёти, 2002. -703 б.
4. Ҳимматов Д. «Глобаллашув шароитида миллий мафкурани та-комиллаштириш муаммолари» номз. ... дисс. – Т.: 2006. Б.103.
5. Қуронов М.Қ., Қурбаниёзова З.К. Ижтимоий педагогика. – Тош-кент: РТМ, 2003, –48 б.
6. Ширшов В.Д. Духовно-нравственное воспитание молодежи [Элект-ронный ресурс] Режим доступа: <http://arhiv.oodvrs.ru/article/index>.



MUMTOZ ADABIYOTDA KOMIL INSON TARBIIYASINI O'RGANISHDA UZVIYLIK VA UZLUKSIZLIK

N.M.OYMATOVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti erkin tadqiqotchisi

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinflarida Alisher Navoiy asarlarining o'rganilishi va bunda o'quvchilar o'zlashtirishlari uchun murakkab bo'lgan jarayonlar, ularning yechimi uchun tavsiya etiladigan yangi interfaol usullarning tavsiya etilishi, o'zbek mumtoz adabiyotini o'rganishda va o'rgatishda mumtoz asarlarni bugungi fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq holda tushuntirish va buning samarali jihatlariga keng o'rin beriladi.

Kalit so'zlar: janr, ruboiy, badiyat, innovatsiya, tizim, integratsiya.

Статья посвящена изучению произведений Алишера Навои в старших классах общеобразовательных школ и процессов, которые трудно осваивать таким ученикам, рекомендации новых интерактивных методов, рекомендованных для их решения. В изучении и преподавании узбекской классической литературы большое место отводится интерпретации классических произведений в связи с развитием современной науки и техники и ее действенными аспектами.

Ключевые слова: жанр, рубай, художественность, инновация, система, интеграция.

The textbooks also include not only works dedicated to Alisher Navoi, but also examples of the great thinker's own works. The recommendation of new interactive methods, the interpretation of classical works in connection with the development of modern science and technology in the study and teaching of Uzbek classical literature, and its effective aspects.

Key words: genre, aesthetics, innovation, system, integration.

Xalq ta'limi tizimida so'nggi yillarda darsliklarga kiritilayotgan she'r va hikoyalar, ertak va rivoyatlarni saralashda ancha ishlar qilingan bo'lib, bu ishlar samarasi o'laroq bola ma'naviyati, tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiluvchi kichik janrdagi asarlar darsliklardan o'z o'rnini topdi. Ammo bugungi kunda, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda Alisher Navoiy ijodining o'rgatishini qoniqarli deb bo'lmaydi. Masalan, 1-sinf "O'qish kitobi"da "Biz buyuklar avlodi" rukni ostida Amir Temur, Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Zahriddin Muhammad Boburlar bilan bir qatorda "G'azal mulkining sultoni" mavzusida Alisher Navoiy haqida ham ma'lumot beriladi.[2,26-27] Bu ham bo'lsa, 4 ta gapdan iborat ma'lumot va mutafakkirning 4 ta aforizm (hikmatli so'zlar)i keltiriladi. To'g'ri, biz 1-sinf o'quvchisi 7 yoshli bola ekanligini yaxshi bilamiz. Ammo maktabgacha ta'limning "Ilk qadam" dasturida ham hatto Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror"



dostonidan “Sher va durroj” hikoyati 4 yoshli bolalarga o‘rgatiladi, bu hikoyatdan olingan xulosalarni tahlil qilinadi. Ammo 1-sinf o‘quvchisi uchun bu ma’lumotlar yetarli emas deb hisoblaymiz.

Rostgo‘ylikning afzal tomonlari, yolg‘onchilikdan salbiy oqibatlarini borasida tushunchalar beriladi. 4 yoshida o‘rganilgan bu mavzu yana 5-sinfda “Hayrat ul-abror” dostonidan “Rost so‘zlash” bobidagi maqolotida aynan takror o‘qitiladi. Xo‘sh, bir mavzuni qayta-qayta o‘rganish bola uchun qiziqarli bo‘ladi deya olamizmi?! Bunday mavzulardagi nomutanosibliklarni balki dasturlar tuzishda yana qayta ko‘rish lozimdir?!

Binobarin, maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab umumta’lim maktablarining yuqori sinflarigacha bo‘lgan DTS dasturida beriladigan A.Navoiy bilan bog‘liq mavzular va ajratilgan soatlar yanada takomillashtirilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Kuzatishlarimizni yana boshlang‘ich sinflardagi mavzu bilan bog‘liq jihatlar doirasida davom ettiradigan bo‘lsak, bu borada shunga guvoh bo‘ldikki, 2 -sinf “O‘qish kitobi” darsligida ham shu holatni kuzatamiz.[3,100-103] Ya’ni, darslikda Alisher Navoiy hayoti va ijodiga doir Zamira Ibrohimovaning “Kichkina Alisher” hikoyasi, Xurshid Davronning “Alisher Navoiy” nomli she’rlari berilgan. Bu juda yaxshi, albatta. Chunki A.Navoiy haqida qancha ma’lumot ko‘p bilishsa, shuncha yaxshi. Bu yoshda o‘quvchilarning xotiralari psixologik jihatdan eng rivojlanayotgan davrga to‘g‘ri keladi.

Mazkur darslikda Navoiy va uning ijodiga bag‘ishlab yozilgan asarlardan tashqari Navoiyning o‘zi yozgan asarlaridan ham berish foydadan xoli bo‘lmasdi. Masalan, osonroq ruboiylaridan yoki “Hayrat ul-abror”dan hikoyatlarning nasriy bayoni bo‘lsa ham bo‘ladi. Chunki ibratli hikoyatlar didaktik xarakterga ega bo‘lib, o‘quvchilar uchun juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, 3-sinf “O‘qish kitobi” darsligini olib qaraylik.

3-sinflar “O‘qish kitobi” darsligi garchi 9 yoshli o‘quvchilarga mo‘ljallangan bo‘lishiga qaramay, o‘quvchilarning savodlari, nutqlari ancha shakllangan bo‘lsada, A.Navoiy asarlaridan biror matn berilmaydi. Bu holatni ijobiy baholab bo‘lmaydi.[4,121-122]

4-sinf “O‘qish kitobi” darsligida ham shu ahvol.[5,31-33] Ya’ni, Oybekning “Alisherning yoshligi” hikoyasi. Alisherning bolaligi, qiziqishlari va zukkoligini ko‘rsatadi. Ammo A.Navoiyning o‘z asarlaridan namunalar berilmagan.

Nazarimizda, Navoiyga uning dahosiga, uning ibratli hikmatlariga oshno murg‘ak qalb o‘z shuurini, ruhiyatini, tafakkurini o‘stirishga yordam beradi. Endi yuqori sinflar misolida tahlilni davom etamiz. Alisher Navoiy asarlarining ta’lim jarayonida o‘qitilishi ham ana shunday oddiydan murakkabga qarab, janr



xususiyatlari jihatdan ham quyi sinflardan to yuqori sinflarga qadar o'sib, uzviylik kasb etadi. 5-sinf adabiyot fanidan "Hayratul abror" dostonining 10-maqoloti "Sher va durroj" hikoyati bilan boshlansa, (bu haqda fikrimizni yuqorida bayon etdik) 6-sinfda "Mahbub ul- qulub" asaridagi didaktik jihatlar bilan to'ldiriladi. 7-sinfda "Sab' ai sayyor" dostonidan 5 musofir hikoyati "Mehr va Suxayl" o'rganilsa, 8-sinfda ruboiy, tuyuq va fardlari, shuningdek, 9-sinfda "Farhod va Shirin" dostoni hamda dostonida komil inson g'oyasi, 10-sinfda Alisher Navoiy g'azallari, ruboiylari, qit'alari, 11-sinf darsligida esa mashhur tarixchi Xondamirning "Makorimul ahloq" asarida Alisher Navoiyga berilgan ta'rif va "Saddi Iskandariy" dostonidan parcha berilgan.

Shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishida ham, asosan, yuqoridagi mavzular deyarli takrorlanadi. Masalan, akademik litseylarning I-II kurs adabiyot darslarida o'zbek mumtoz adabiyoti uchun 24 soat vaqt ajratilgan bo'lib, shundan Navoiyning epik asarlari va xamsachilik tarixi uchun 4 soat, "Xamsa" asari, "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" dostonlari uchun 4 soat, "Sab' ai sayyor", "Saddi Iskandariy" dostoni uchun 4 soat vaqt ajratiladi.

To'g'ri, mazkur ajratilgan soatlarga ijtimoiy yoki aniq fanlar yo'nalishiga qarab 15%gacha o'zgartirish kiritish mumkin. Albatta, bu uzviylik oliy ta'lim va undan keyingi ta'lim jarayonlari va bosqichlarida uzviylik kasb etadi va mavzu qamrovi bilan murakkablashib boradi.

Yuqorida nomlari keltirilgan barcha asarlarni uzviy bog'lovchi bir tizim mavjud bo'lib, ya'ni Alisher Navoiy barcha asarlarida bosh g'oya sifatida komil inson mavzusi turadi. Bu uzviylik xuddi bir zanjir sifatida bog'lanadi. Zero, komillikka ham osongina erishish mumkin emas.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining DTS asosida darsliklardagi tavsiya etilgan asosiy mavzular Alisher Navoiy asarlari tahlilida, bosqichli izchillik tamoyiliga asoslanib, quyi sinflardan yuqori sinflarga qadar uzluksizlikda o'rganilib boriladi. Ammo, yuqorida aytganimizdek, boshlang'ich sinflarda, ya'ni 1-4 sinflarda Alisher Navoiy ijodini o'rganish talab darajasida deb bo'lmaydi. Shu bois, muammoni yana bir bor ko'rib chiqish va boshlang'ich sinflarda ham shoir ijodidan, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, namunalarni o'quv rejasiga kiritish zarur.

«Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik. Biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz. Biz hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo'rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu-shijoatli buyuk xalqmiz», - deyдилar yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev.[1]

Darhaqiqat, fanning birorta yo'nalishi yo'qki, bizning ota-bobolarimiz dunyo tamaddunida o'z nomini qoldirmagan bo'lsin. Navoiy bobomiz ham so'z



gulshanida ona tilimiz, milliy madaniyatimiz orqali buyuk tafakkur xazinasini o'laroq o'z nomlarini qoldirdilar. Shu jihatga alohida ahamiyat berish kerakki, mumtoz asarlarni o'qish, o'rganish va tushunish uchun, eng avvalo, nazariy tushunchalarni ham bilish juda zarurdir. Agar o'quvchilar ham nazariy jihatdan, ham badiiy jihatdan Alisher Navoiy asarlarini idrok eta olsalar, ularda yuksak estetik did shakllanadi, shuningdek, shaxs sifatidagi fazilatlar ham qaror topadi. Alisher Navoiy asarlarini o'rgatishda yana bir eng muhim jihatni ham esdan chiqarmaslik kerak, ya'ni adabiyot fani o'qituvchisi umumta'lim darsliklarida beriladigan Alisher Navoiy asarlaridan parchalarni yoddan bilishlari va ularni ifodali o'qiy olishlari lozim. Bu holat ham o'quvchilarda mavzuga qiziqishni uyg'otadi. O'quvchilarni Alisher Navoiy asarlariga qiziqtirishning yana bir jihati shundaki, bugungi fan yangiliklari hisoblangan Alisher Navoiy innovatsiyalari, ya'ni shoir asarlaridagi bugungi kun innovatsiyasi bilan bog'liq yangiliklarni tushuntirishdir. Masalan, televizor haqidagi ma'lumotlarga nazar tashlaymiz. Barchaga yaxshi ma'lumki, 1928 yil Toshkentda B.Grabovskiy va I. Belyavskiy elektr nur yordamida harakat qilayotgan tasvirni bir joydan uzatadigan va qabul qiladigan apparat yaratganlar. «Farhod va Shirin» dostonida ana shunday ifodani o'qiydiz:

G'aroyib ko'p Xuvaydo bo'lg'uvsidir,
Bas anda shakl paydo bo'lg'uvsidir.
Ko'runib har zamone ko'zga bir shakl,
Ko'z olg'och bo'lg'uvsidir o'zga bir shakl.

“Ekranida ham kadrlar bir soniyada 24 marotaba almashadi va jonli tasvir ko'rinadi. Alisher Navoiy bu qurilmani “oynai jahon” deydi.

“Yoki **“Robot”** haqida “Farhod va Shirin” dostonida ham bir temir jism haqida ifodalar beriladi”.[6,5]

Bo'lur darvoza ichra oshkora temir jismiki qilmish paykar aro,
Erur odamga monandu, mushobih, ilgida temurdin yoy qilib zix.
Va lekin ushbu paykar roy to farq,
Bo'lub o'tdik temir o'rchin aro g'arq.

Ma'nosi: u odamga o'xshaydi, qo'lida o'tkir o'qli temir yoy ushlab olgan, boshidan oyog'igacha temir qoplangan va ichidan yonib turardi.

Yoki **“Konditsioner”** haqida. Ma'lumki, konditsionerni 1915 yili fransuz olimi Jan Shabbanez ixtiro qilgan. Alisher Navoiy ta'rifida quyidagicha berilgan:

Ki har sori lavha erur tabiya,
Birida yelu, birida o't tamiya.

Ma'nosi: chohning ikki yoniga yaxshilab qarasa, biriga o't, ikkinchisiga havo deb yozib qo'yilgan.

“Farhod va Shirin” dostonida :



Keturdilar hakami nuqtadoni,
Pilik birla jahon ichra jahoni.
Qilib tunni yorug' kunni qorong'u,
Suvdin o't yondirib o'tdin sepib suv".[6, 5]

Albatta, yuqorida sanab o'tilgan timsollar, ramzlar o'z davri uchun g'ayrioddiy bo'lgan qurilmalar, bashoratlari Navoiy ijodida behisob.

Alisher Navoiy asarlariga o'quvchilarda qiziqish uyg'otish uchun ularni hayratga soladigan mana shunday ma'lumotlar, tushuntirish, albatta o'zlashtirishda yaxshi natija beradi. Demak, ta'lim jarayonida o'quvchilarni qiziqitirgan, hayratlantirgan oladigan har qanday ma'lumotni o'qituvchi me'yoriga yetkazib bera olar ekan, natija, albatta, yaxshi bo'ladi.

Bugungi kunda adabiyot ta'limining vazifasi o'quvchilarga qaysidir shoimning hayoti va ijodini yodlatish bo'libgina qolmay, balki dars jarayonidan berilgan badiiy asar mavzusidan kelib chiqqan holda yosh avlod qalbida umuminsoniylik fazilatlarini shakllantirish, uning komil inson g'oyalari bilan sug'orilgan dunyoqarashini o'stirish va shaxs sifatida jamiyatda o'z o'rniga, so'ziga, fikriga hamda qarashlariga ega bo'lgan inson qilib tarbiyalashni o'z oldiga qo'yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 22 oktyabr, 2019 yil. Toshkent.
2. Gafforova T., Shodmonov E., Eshturdieva G. O'qish kitobi. 1-sinflar uchun darslik. T.: "Sharq". NMAK bosh tahririyati. 2019, 26-27 betlar.
3. Gafforova T., Nurullaeva Sh., Mirzahakimova Z. O'qish kitobi. 2- sinf uchun darslik. T.: "Sharq" NMAK bosh tahririyati. 2018, 100-103 betlar
4. Umarova M., Xamraqulova X., Tojiboeva R. O'qish kitobi. 3-sinflar uchun darslik. T.: "O'qituvchi" nashr-matbaa ijodiy uyi. 2019, 121-122-betlar.
5. Матчинов С., Шожалилов А., Фуломова Х., Сариев Ш., Долимов З. Ўқиш китоби. 4-синфлар учун дарслик. Т.: "Янгийул – Полиграф сервис". 2020, 31-33-бетлар.
6. Абдиев И. "Маърифат саодати" газетаси 2018 йил 5-сон.



К ИЗУЧЕНИЮ ПОНЯТИЯ ПРИНЦИПА ПРИРОДООСОБРАЗНОСТИ В НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКЕ

Б.М.САИДОВ,

Термезский государственный университет

В статье анализируются вопросы развития и становления традиций народного воспитания, ориентированное на отношение к детям, природе, а также на нравственную ответственность перед окружающим миром. Также изучались вопросы народной педагогики, которая располагает многочисленными средствами, методами и приёмами для подготовки подрастающего поколения к самостоятельной жизни.

Ключевые слова: инфраструктура, природосообразность, народная педагогика, процесс воспитания, теоретические подходы, методологические исследования, этнокультура, культурасообразность, эстетические воззрения, этнос, материальная культура, предметы быта, окружающая среда, духовное осмысление.

The article analyzes the issues of development and formation of traditions of folk education, focused on the attitude to children, nature, as well as on moral responsibility to the surrounding world. They also studied the issues of folk pedagogy, which has numerous means, methods and techniques for preparing the younger generation for independent life.

Key words: infrastructure, natural conformity, folk pedagogy, the process of education, theoretical approaches, methodological research, ethnoculture, cultural conformity, aesthetic views, ethnos, material culture, household items, environment, spiritual understanding.

Мақолада болаларга, табиатга ҳамда ўраб турган олам олдидаги маънавий маъсулиятга қаратилган анъанавий ҳалқ тарбиясининг ривожланиши ва тикланиши масалалари таҳлил қилинган. Шу билан биргаликда ўсиб келаётган ёшларни мустақил ҳаётга тайёрлаш борасида турли воситалар усуллар ва услубиятларга эга бўлган ҳалқ педагогикаси янада чуқурроқ ўрганилган.

Таянч сўзлар: инфраструктура, табиат уйғунлиги, ҳалқ педагогикаси, тарбия жараёни, назарий ёндашувлар, методологик тадқиқотлар, этномаданият, маданият уйғунлиги, эстетик дунёқараш, моддий маданият, маиший предметлар, атроф муҳит, маънавий англаш.

Вступление Узбекистана в XXI- век сопровождается кардинальными изменениями социального, экономического, а также общественного развития. В связи с этим возникает потребность в людях интеллектуально развитых, талантливых, способных выдвигать идеи, направленные на прогрессивные изменения в различных сферах деятельности человека. Многие сферы деятельности человека (наука, промышленность, инфраструктура, строительство, архитектура и образование) не могут существовать без притока



новых идей, но намеренно их вырабатывать чрезвычайно трудно, проблема решается лишь в том случае, если человека с раннего возраста научить управлять творческой деятельностью.

Это становится возможным в том случае, когда выявление, воспитание и обучение, поддержка школьников образуют единую систему, способствующую реализации индивидуального педагогического-психологического потенциала каждого ребенка. Следовательно, такое понимание сущности человека предъявляет определенные требования к воспитанию, указывает на необходимость совершенствования современного воспитательного процесса. Решения данной проблемы лежат не только в плоскости поиска и разработки новых парадигм воспитания, но и в использовании природосообразных информационных и коммуникативных технологий, созданных путем активного обращения к опыту народного воспитания.

Еще до теоретического осмысления принципа природосообразности философами и педагогами, его сущностное значение содержалось в опыте народного воспитания, в частности, в природосообразных средствах воспитания, т.е. принцип природосообразности находился в опыте народного воспитания в имплицитном состоянии.

Изучением многих литературы и научно-исследовательских работ определено, что в педагогической теории и практики нет специальных работ по природосообразному воспитанию средствами народной педагогики.

Возникновение объективного противоречия между необходимостью в природосообразном воспитании учащихся средствами народной педагогики и недостаточной обоснованностью педагогических условий, путей и средств организации этого процесса, как в учебной, так и внешкольной формах в школах Республики Узбекистан.

В формировании духовной культуры подрастающего поколения природосообразность трактуется как фундамент, в котором первоначально видится единение природы со всем сущим, со всем мирозданием. По справедливому утверждению А. Дистервега, «принцип природосообразности вечен и неизменен, как неизменны назначение и природа человечества». Однако по нашему мнению необходимо также считаться с условиями места, где находится тот или иной этнос, и с той ступенью культуры, которая достигнута им. Поэтому состояние культуры в тот или другой момент требует своего рассмотрения как явления естественного, которое также неизбежно, с такой же необходимостью возникает, как тот или иной характер растительного и животного мира на определенной территории земной поверхности.

Принцип культуросообразности предполагает, что воспитание должно основываться на общечеловеческих ценностях и строится с учетом особенностей региональных и этнических культур. Тем самым актуализируется дальнейшее развитие



этнопедагогики как «науки об эмпирическом опыте этнических групп в воспитании и образовании детей, о морально-этнических и эстетических воззрениях на исконные ценности семьи, рода, племени, народности, нации». Народную педагогику, являющуюся предметом этнопедагогики Г.Н. Волков называет природосообразной и жизнесообразной, демократической и гуманистической педагогией и в своих работах руководствуется двумя основными заповедями (положениями) - природосообразностью Я.А. Коменского и народностью К.Д. Ушинского, основанной на культуросообразности А. Дистервега потому как «народная культура воспитания представляет собой основу всякой культуры». Г.Н. Волков тем самым подчеркивает взаимосвязь принципов природосообразности и культуросообразности в этнопедагогической науке. Однако «до сегодняшнего дня является дискуссионной проблема соотношения принципов природосообразности и культуросообразности. История возникновения и развития этих педагогических принципов показывает их взаимообусловленность как категории сущности и явления», и в их взаимоотношениях сущностную функцию несет природосообразность, что определяет ведущее положение принципа природосообразности.

Содержащаяся традиционная народная педагогическая культура, является результатом деятельности своего творца этноса (сформировавшаяся на определенной территории общности людей, характеризующаяся общим этнонимом, языком и культурой, с присущим ему психическим складом. Поэтому, этнологи А.П.Садохин и Т.Г.Грушевицкая, исходили из понимания культуры как «вне биологически выработанного (незакрепленного генетически) и передаваемого способа человеческой деятельности». Такое комплексное понимание культуры на основе деятельностного подхода позволяет найти адекватные формы объяснения феномена этнической культуры как «совокупность присущих этносу способов освоения условий своего существования, направленных на сохранение этноса и воспроизводство условий его жизнедеятельности. Главным здесь является функциональный аспект культуры, понимание ее как адекватного механизма, облегчающего человеку жизнь в окружающем мире» [С.А.Арутюнов]. С.А. Арутюнов также считает, что «культура выступает для человека в целом средством его адаптации к планетарным природным условиям Земли (а также к тем социальным последствиям, которые вытекают из прогрессирующего освоения этой планетарной среды)». Так как именно природная (географическая) среда - неперемненное условие возникновения этноса и его функционирования. Культура каждого этноса развивается не только во времени, но и в пространстве, образуя локальные варианты, выражающиеся в отдельных различиях в материальной и духовной сферах культуры. Примеры воздействия природных условий можно обнаружить в самых разных областях этнической культуры, начиная с орудий труда, предметов быта и заканчивая воспитанием подрастающего поколения.

Для наших исследований представляется интересным своеобразное



видение природосообразности (этно) культуры культурологом Г.Д.Гачевым.

Однако мы не можем опираться на его идею «Природины», так как наше исследование проводится в совершенно ином ракурсе: принцип природосообразности воспитания и его реализация средствами народной педагогики. Что касается «мистического свойства» природы родины, то этнопедагог Г.Н. Волков вслед за К.Д. Ушинским утверждает, что «природа родины имеет неизъяснимую власть над человеком». Данное свойство способствует выявлению сути следующих определяющих «лицо» этноса души (Психея) и мышления (Логос) данного народа: «Подобно тому, как каждое существо есть троичное единство: тело, душа и дух, так и всякая национальная целостность есть единство местной природы (Космос), характера народа (Психея), склада мышления (Логос)», где Психея и Логос определяются Космосом.

Например, влияние окружающей природы на восприятие, познание, мышление отмечал еще русский историк В.О.Ключевский. Он видел в среднерусском ландшафте источник своеобразия русского национального характера. В.О. Ключевский выделял значение образов леса, степи и реки в русской культуре и их роль в формировании психологических черт личности (степь олицетворяла широту натуры, река воспитывала порядок и умение совместных действий). Мистическое свойство природы, ее сознательные, животворящие силы стали самым ранним объектом поклонения в этнокультуре. Это выразилось в «мифопоэтическом понимании, в изображении живого посредством линии, цвета, звука. Искреннее желание сохранить живое оборачивалось созданием его дубликатов: свет в природе, природные ритмы, мера, гармония, которые человек ощущал в окружающем мире, становились средствами его понимания природы, но вместе с тем и фундаментальными основаниями культуры».

Потому что, как считает М.С. Каган, придание природным явлениям определенной ценности говорит о том, что их «вбирает в себя и тем или иным образом претворяет культура. Тем или иным - значит, во-первых, материальным, перерабатывая природное «сырье», неорганическую и органическую материю; во-вторых, духовным, осмысляя природу - в философских теориях, религиозных представлениях, научных концепциях, нравственных принципах; в-третьих, художественным, переводя природную реальность в «реальность» искусства, образно моделирующего пространственно-временные формы бытия, течение человеческой жизни и ее разрешения в смерти, значение пола и возраста в жизнедеятельности личности».

У каждой нации и национальности есть своя культура, развитие культуры того или иного этноса ограничено рамками местных, территориальных, этнических, региональных связей и отношений между людьми. Отсюда пестрота и многообразие культурных форм, их кажущаяся несводимость друг к другу, отсутствие какого-либо унифицирующего начала, их своеобразие и



самобытность. «Характер этнической общности (как и отдельной личности) проявляется, главным образом, в действиях. Поэтому он обнаруживается и в отдельных памятниках материальной культуры, и в различных областях духовной культуры, и в языке».

Этикет регулирует, структурирует поведение людей в обществе. Он видоизменяется, но не умирает, выполняя как на общественном, так и на индивидуальном уровне гуманистическую функцию организации и регламентации коммуникационных процессов. Как и всякое социальное явление, этикет противоречив, многоаспектен и многообразен, его многовековая история свидетельствует о наличии особой человеческой потребности и ритуализации определенных форм поведения и общения на уровне более общих нравственно -культурных феноменов развития эпохи, социума, определенной группы или индивида.

Специфической особенностью второй стадии инкультурации становится способность индивида к самостоятельному освоению социокультурного окружения в пределах, установленных в данном обществе.

Взрослым, индивид считается в случае приобретения им определенной совокупности качеств, из которых наиболее важными являются следующие:

- достижение необходимой степени физической зрелости организма;
- овладение навыками собственного жизнеобеспечения в сферах домашнего хозяйства и общественного разделения труда;
- овладение достаточным объемом культурных знаний и социального опыта;
- принадлежность к одной из социальных общностей, состоящей из взрослых участников системы разделения труда.

Таким образом, гармоничное и последовательное развитие обоих этапов инкультурации завершается формированием менталитета личности, т.е. «совокупности установок и предрасположенности костей индивида действовать, мыслить, чувствовать и воспринимать мир определенным образом». Вместе с тем семья утверждается как естественная, имеющая оптимальные условия для решения задач инкультурации (воспитания) среды.

Литература:

1. Акбашев Т.Ф. Первые шаги в педагогику жизни. Челябинск: Версия, 1995.
2. Каменский Я. А. Избранные педагогические сочинения. М., 1996.
3. Кушнир А. педагогика грамотности // Школьные технологии. 1996.
4. Штейнер Р. Искусство воспитания. М., 1996.



INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

I. T. CHARIYEV,

Termiz davlat universiteti, p.f.d., professor

O'quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda yagona jihat kommunikativ ta'lim va tarbiya maqsadining birligi. Bu esa, maktab boshqaruvining yangicha sifat natijasiga erishish uchun ta'lim–tarbiya jarayonining istiqbol rejasini tuzish imkonini beradi.

Tayanch so'z va iboralar: *Ijodiy individuallik, intellektual–axloqiy erkinlik, uzluksiz ma'naviy tarbiya, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, kommunikativ kompetentlik.*

Единственный аспект в развитии коммуникативной компетентности студентов – единство цели коммуникативного обучения и воспитания. Это позволит администрации школы разработать долгосрочный план учебного процесса для достижения нового качественного результата.

Ключевые слова: *творческая индивидуальность, интеллектуальная и нравственная свобода, непрерывное духовное образование, обще среднее, средне специальное, профессиональное образование, коммуникативная компетентность.*

The only aspect in the development of students' communicative competence is the unity of the purpose of communicative education and upbringing. This will allow the school administration to develop a long-term plan for the educational process to achieve a new quality result.

Key words: *Creative individuality, intellectual and moral freedom, continuous spiritual education, general secondary, secondary special, vocational education, communicative competence.*

Yangi O'zbekiston ta'lim siyosatining mazmun-mohiyati to'g'risida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishishi tantanali marosimga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida "Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"[1], - deb ta'kidlaganlar.

Shaxs ijodiy individualligi va intellektual–axloqiy erkinligining rivojlanishini namoyon etuvchi instrument sifatida belgilangan kommunikativ kompetentlik mamlakatimizda qabul qilingan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi"ning "mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy kompetensiya va fazilatlarining odatlarga aylanishi" prinsipi nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga molik[2]. Bu esa, maktab



ta'limining amaldagi DTS mazmunida ijtimoiy buyurtmaning majburiy komponentlari doirasida tayanch vakolatga ega kommunikativ kompetensiyaning tuzilmasi, mezonlari va didaktik ta'minotini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonlari va 2019 yil 16 yanvardagi "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4119-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son "Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida", 2019 yil 31 dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarorlari hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Kommunikativ kompetentlik mamlakatimiz umumta'lim maktablarida joriy etilgan DTSning tayanch vakolatlari doirasida yetakchi hisoblanadi. Bu esa, umumta'lim maktablari o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish tuzilmasi, komponentlari, mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlash, uning modeli va didaktik ta'minotini takomillashtirishni taqozo etdi.

Ma'lumki, o'quvchi rivojlanishning "tashuvchisi" bo'lib, keyin uning tashkilotchisiga aylanadi va o'quvchining o'z yo'lini belgilashi, o'zini anglashi hamda rivojlantirishini hayotning o'zi talab qiladi. O'z yo'lini belgilash va ijtimoiylashuv sharoitida faoliyatga oid kommunikatsiyalarni qidirish shunday bir tushunchaga olib keladiki, unda shaxsning o'z yo'lini belgilash jarayoni hayot faoliyatining barcha jabhalarida yuzaga keladi va u shaxsni mustaqil ijodiy faoliyatga mos ravishda shakllanishga yo'naltiradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchini ta'lim tizimiga moslashtirishni emas, aksincha, uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda shaxs sifatida voyaga yetishi, o'z-o'zini rivojlantirishi, mustaqil bilim olishi, o'zining ichki imkoniyati, qobiliyatini to'la namoyon eta olishi, bilish faolligini oshirishi uchun zarur sharoitni vujudga keltirishi zarur. Shu o'rinda shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim bir-birini to'ldiradi, unisi ham, buni ham ijtimoiy ahamiyatga va o'zaro ta'sirga ega.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelini kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning eng munosib didaktik vositasi sifatida baholab, bu biz uchun ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy jihatdan qanchalik foydali ekanligini izohlaymiz. Shu bilan birga, biz uchun muhimroq narsa: shaxsga yo'naltirilgan ta'lim



kompetensiyaviy yondashuvning ikki jihati: ijtimoiy moslashuvchan va ekzistensial rivojlanishni integrativ bog‘lash imkonini beradi.

Ekzistentsiya shaxsning o‘z-o‘ziga beradigan bahosi, o‘z-o‘zini qadrlash darajasi. Demak, shaxsning o‘zini o‘zi baholash darajasi qancha past bo‘lsa, uning ijtimoiy foydali bo‘lmagan holatlarga, jamoalarga integratsiya bo‘lishi shuncha yuqori bo‘ladi.

O‘zbek olimlari N.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Sayfurov, A.To‘raevlar “Innovatsion ta’lim o‘quvchining ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma’lum maqsadga yo‘naltirish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to‘ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi“, – deb yozgan edilar[3]. Innovatsion yondashuvning asosiy maqsadi shaxsning o‘z-o‘zini anglashi, tashxislashi va uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish.

O‘quvchining intellektual rivojlanishi, fe‘l-atvori, hissiyotlari va shaxsiyatining shakllanishi bevosita nutqqa bog‘liq va ulg‘ayayotgan o‘quvchining ko‘zlagan maqsadlariga erishishga asoslangan o‘z-o‘zini anglash motivi uning o‘qishga bo‘lgan munosabatlarini o‘zgartiradi.

Katta hajmdagi ma’lumotlar qurshovida qolgan o‘quvchi shaxsiy “matn yaratish”da o‘zini anglash usuliga aylanadigan makonga tushib qoladi. Matn yaratish natijasida o‘quvchi “mustaqil shaxs sifatida o‘z “men”i, o‘zida mavjud bo‘lgan ijobiy xislatlar va salbiy xususiyatlarni anglab yetish, o‘zida ma’naviy barkamollik xislatlarini tarbiyalash va shaxs sifatida shakllanishga, mustaqil fikrlash va fikr mahsulini to‘g‘ri, o‘rinli, ravon ifodalashga yordam beradi”[4]. Ushbu ifoda e’tibori bilan maktab ta’limi muhofaza qilingan ijtimoiy institut emas, balki o‘zini rivojlantirish va ishlash mexanizmiga ega bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar elementi.

“Kommunikativ kompetentlik” tushunchasi bugungi kunga kelib turlicha qarashlar, qarama-qarshi fikrlar, g‘oyalar ta’sirida qolayotganini guvohimiz. Kommunikativ jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan va ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ko‘plab nazariy yondashuv, ta’riflar, mulohazalar o‘quvchini ijtimoiy kommunikatsiyalarga munosib tayyorlash jarayonining nazariy qobig‘iga o‘tib, noqulay semantik kontekstdan o‘rin olgan. Binobarin, bu tushunchaning pedagogik mohiyatini kommunikatsiya nazariya bilan funksional bog‘liqligi va fanlararo (falsafa, amaliy tilshunoslik, psixologiya, iqtisod) aloqalarini sinergetik tahlilsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. “Kommunikativ kompetentlik”ni o‘rganish jarayonida sinergetik yondashuvning o‘ziga xosligi shundaki, unda tadqiq ob’ektiga o‘zaro bog‘liqlik va hamkorlik asosida munosabat bildiriladi. Bugungi kunda o‘quvchilarning ta’lim yutuqlariga erishish ko‘rsatgichlari sifat jihatdan yaxshilanishi va fanlar mazmunini o‘zlashtirishda dinamik o‘sish jarayoni kuzatilishi



ilmiy–metodik asoslangan.

Hozirgi kunda ta’lim muassasalarida o’quvchilar ta’lim yutuqlarini egallashini tahlil qilishda ko’proq ta’limiy-axboriy vositalarga e’tibor berilayotganligi yoki maktabda keng tarqalgan og’zaki so’rash jarayonining ustuvorligi, umuman, ta’limning sifat va miqdori, asosan, ta’lim ko’rsatgichlariga yo’naltirilganligi sababli ta’lim–tarbiya uyg’unligi masalasiga kamroq e’tibor berilmoqda.

O’quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda yagona jihat kommunikativ ta’lim va tarbiya maqsadining birligi. Bu esa, maktab boshqaruvining yangicha sifat natijasiga erishish uchun ta’lim–tarbiya jarayonining istiqbol rejasini tuzish imkonini beradi.

O’quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish ishiga alohida kasbiy yondashuv agar butun maktabning ta’lim muhitini boshqarish tizimi bilan aloqa o’rnatilmasa, u kafolatgan natija yoki pedagogik samara bera olmaydi. Bu o’z navbatida mazkur yondashuvga yagona ilmiy–metodik boshqaruv lozimligini taqozo etadi.

Innovatsion yondashuvning tarkibi va mazmuni kommunikativ didaktika prinsiplari asosida amalga oshiriladigan pedagogik dialog g’oyalari bilan belgilanadi. Bu esa, o’z navbatida diskursiv kommunikativ yondashuvdan innovatsion foydalanishga imkon beradi.

Dialogik aloqa o’quv materialini semantik va ritorik tashkil etishning maxsus usullarini ishlab chiqishga imkon beradi, ular yordamida “psixologik-pedagogik munosabat ma’lum predmet bilan organik o’zaro aloqasi ta’minlanadi”[5].

Dialog ijtimoiy xususiyatga ega bo’lib, u insonning muloqot, o’zaro va hamkorlikka bo’lgan asosiy ehtiyojini amalga oshiradi. Ta’lim jarayonidagi dialog gapirish, tanlash, harakat qilish va o’zini o’zi belgilashga qodir shaxs rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Zero, faqatgina muloqot muhitida inson shakllanadi, ma’naviy hayot qadriyatlarini yaratishga qodir bo’ladi. Shu ma’noda dialogni «o’quvchi shaxsining fikrlash va o’zini anglashini ta’minlaydigan didaktik–kommunikativ muhit» deb atash mumkin, texnologik ma’noda dialog kommunikativ didaktika vositasi.

Kommunikativ didaktika texnikasi va uslublarini tahlil qilishda “diskurs” tushunchasi qo’llaniladi. Dars kommunikativ hodisa sifatida o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasida til, madaniyat, mentalitet, qadriyatlar va boshqalar bilan ajralib turadigan umumiy kommunikativ makonga aylansa, buning jami diskurs sifatida gavdalanadi.

Diskursga oid mohiyatan to’liq tushunchani G. Toirovaning “Pragmalingvistika” lug’atidan o’qiyimiz: “Diskurs – (fikir almashtirish, nutqiy muloqot) so’zlovchi va tinglovchi orasida o’zaro suhbat, savolga yarasha javob berish. Muloqot jarayonida



soʻzlovchi (diskurs nazariyasida bu “kommunikator” deb ataladi) tinglovchi (adresant) ga oʻz nutqi yoki muloqot jarayoni orqali oʻzini tanishtiradi. Diskurs fikrni bayon qilish jarayoni, lisoniy imkoniyatlarning yozma yoki ogʻzaki shakli moddiy voqelanishi, lisoniy va nolisoniya vositalarning birgalikda ishlatilishi, lingvo-etnopsixologik omillar majmui. Diskurs turli lisoniy va nolisoniya omillar butunligidan hosil boʻlgan oʻziga xos murakkab bir tizim. Diskurs lisonning yaratuvchanlik sohasi (namunasi), oʻz navbatida, tugʻilgan gʻoya, kommunikativ maqsad (intensiya) natijasi. Diskurs matnga nisbatan nomoddiy obʼekt sanaladi”.

Oʻquvchilar kommunikativ kompetentligini rivojlantiradigan pedagogik oʻzaro munosabatlar jarayonida diskurs darsda kommunikativ makonni tashkil qilishning didaktik usuli sifatida namoyon boʻladi. Maqsadli, qasddan taʼsir qilish natijasida kommunikativ didaktik diskurs oʻquvchi ongining vositasiga aylanadi va subʼektiv ravishda bilish asosida matn yaratishga olib keladi.

Tahlillar bizga oʻquvchilar kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning oʻzaro bogʻliq komponentlari (motivatsion, kognitiv, faoliyatli, texnologik, reflektiv)ni shahodatlad. Shunga koʻra, biz maktab taʼlimining oʻquv–bilish faoliyati uchun oʻquvchilarning kommunikativ kompetentligini innovatsion rivojlantirishga yoʻnaltiradigan modelni motivatsion, kognitiv, faoliyatli, texnologik, reflektiv komponentlar doirasida asosida ishlab chiqish vazifasini qoʻyidik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2016. –B. 14.
2. Uzluksiz maʼnaviy tarbiya konsepsiyasi. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda 1059-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/4676839>.
3. Innovatsion taʼlim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., Toʻraev A.B. – Toshkent, 2015. 5 b.
4. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. Monografiya. Toshkent. OʻzFA, “Fan” nashriyoti. 2007.
5. Toirova G. “Pragma-lingvistik” lugʻati. Toshkent, «Akademnashr», 2016., 9b.



PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI JARAYONIDA TALABALARNING IJTIMOY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH

M.K.RAXMANOVA,

*Chirchik davlat pedagogika institut
Psixologiya kafedrası p.f.f.d(PhD)*

Ma'lumki, kasb tanlashga maqsadli yo'naltirish, kasbiy ijtimoiylashuv orqali ijtimoiy hayotga tayyorlash, tabiiy fanlarni kasbga yo'naltirib o'qitish orqali ta'lim oluvchilarda hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur maqola ham bevosita talabalarning ijtimoiy faolligi asosida kasbga yo'naltirish masalalariga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy faollik, pedagogik klaster; kasbga yo'naltirish, talabalar; oliy o'quv yurti, ta'lim jarayoni, kasb-hunarga yo'naltirish.*

It is known that a number of scientific researches are carried out on the development of life competencies in students through targeted orientation to the choice of profession, preparation for social life through professional socialization, vocational training of natural sciences. This article is also devoted to the issues of vocational guidance based on the social activity of students.

Key words: *social activism, pedagogical cluster; career guidance, students, higher education, educational process, career guidance.*

Respublikamizda milliy ta'limni modernizasiya qilish, yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda kasbga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etish, uzluksiz ta'limda kasb-hunarga yo'naltirish samaradorligini oshirish, egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha "professional ta'lim" darajalarini amalga oshirish, psixologik-pedagogik tashxisning ahamiyatini oshirish sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, "Professional ta'lim dasturlari YuNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashmagani, o'quv jarayoniga O'zbekistonning Milliy kvalifikasiya tizimi to'laqonli joriy etilmaganligi tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o'rin egallashiga to'sqinlik qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirish ishlarining samarali metodikalarini ishlab chiqish, bu jarayonda o'qituvchilarning kasbga yo'naltirish sohasida metodik tayyorgarligini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Talabalarda kasb tanlashga maqsadli yo'naltirish, kasbiy ijtimoiylashuv orqali ijtimoiy hayotga tayyorlash, tabiiy fanlarni kasbga yo'naltirib o'qitish orqali ta'lim oluvchilarda hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu esa, talabalarning kasbga yo'naltirib o'qitishning tashkiliy-pedagogik mexanizmini takomillashtirish, refleksiv yondashuv asosida



ularning ilmiy-tabiiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishni taqozo etildi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida shunday yangi mexanizm yaratilishi hayotiy zaruratga aylandiki, unda ta'lim turlari o'rtasida o'zaro nazorat ham, raqobat ham, manfaatlarning qondirilishi ham ta'minlanishi zarur. Oliy ta'limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda ta'lim, fan va ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasidagi tarqoqlik bugungi kunda uzluksiz pedagogik ta'limni klaster rivojlanish modeliga o'tkazish zaruratini taqozo etmoqda.

Pedagogik ta'lim klasteri – muayyan geografik hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida sub'ektlarning, texnologiya va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm.

Pedagogik ta'lim klasteri – muayyan geografik hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida sub'ektlarning, texnologiya va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm. O'zbekiston sharoitida pedagogik ta'lim klasteri modelining sub'ektlari sifatida quyidagilarni qayd qilish mumkin: –? talabalar, magistrantlar va doktorantlarning ta'limiy, ilmiy tadqiqotchilik, innovatsion va loyihalashtirish faoliyatini olib boradigan, pedagogik amaliyotlar olib boriladigan, o'quv va tajriba-eksperimental baza vazifasini o'taydigan barcha turdagi maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy va qo'shimcha ta'lim muassasalari;

–barcha turdagi maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy va qo'shimcha ta'lim muassasalari pedagogik kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalari;

Ta'lim jarayonini loyihalash tamoyillari

1. Markazlashtirish tamoyili texnologik jarayonda talabalar faoliyati modelini loyihalashning bosh elementi sifatida ifodalanadi. Ta'lim jarayoni tuzilmasida asosiy tizimlashtiriluvchi ta'lim mazmuni va talaba faoliyati texnologik jarayon hisoblanib, uning mazmunini talabalarning ijtimoiy tajriba asoslarini o'zlashtirib olishga yo'naltirilgan o'quv faoliyati tashkil etadi. Har bir o'quv fani bo'yicha ta'lim mazmuni umumiy ta'lim maqsadi va vazifalariga muvofiq belgilanadi. Faoliyatli yondashuv nuqtai nazaridan umumiy o'rta ta'lim mazmunini tashkil etuvchi har bir unsur (element) sub'ekt faoliyatining turlaridan biriga muvofiq kelishi kerak. Sub'ekt faoliyatining turlari, o'z navbatida, aniq modellar yig'indisi sifatida umumlashgan faoliyat modellari orqali ifodalanishi zarur. Talabalar faoliyati modeli tizimlashtiriluvchi element bo'lib, talabaning yaxlit faoliyati mazmunini aniqlashga xizmat qiladi. Markazlashtirish tamoyili loyihalashni quyidagi tartibda amalga oshirishni talab



etadi: faoliyat modellarini maqsadga muvofiq yaratish, ularni talabalar tomonidan o'zlashtirish usullari, vositalarini tanlash (texnologik operatsiyalar), o'quv faoliyatini boshqarish usullari (o'qituvchi faoliyatini)ni asoslash.

2. Refleksivlik tamoyili sub'ektning o'ziga, shaxsiy faoliyatiga va bilimiga baho berishi, o'zgalarning u haqidagi fikrlari va ular o'rtasidagi hamkorlik faoliyatiga oid munosabatlarni tavsiflaydi. Loyihalash jarayonida o'qituvchiga doimo ta'lim jarayoni, uning aniq va ideal sharoitlari, talabalarning bilishga bo'lgan ehtiyojlari, ularni to'ldirish imkoniyatlari, shaxsiy sifat va qobiliyatlari, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish imkoniyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq. Refleksivlik tamoyili yaratiladigan ta'lim jarayonining loyihasini ta'lim jarayoni ishtirokchisi – sub'ektning ehtiyojlari va imkoniyatlarini tahlil qilish asosida uzluksiz tuzatib, to'ldirib borishni talab etadi.

3. Natijaviylik tamoyili pedagogik shart-sharoitlarning qulayligi, oz vaqt va kuch sarflash evaziga samarali natijalarga erishishni tavsiflaydi. Natijaviylik- ijtimoiy tajriba faoliyat modellari mazmuni, texnologik operatsiyalar, ularni o'zlashtirish, boshqarish usulbarini tanlash, o'quv faoliyatining muvofiqligi, ta'lim-tarbiya vositalari, texnologik jarayonda sub'ektning qisqa vaqt va kuch sarflashi vositasida belgilangan maqsadga erishishni nazarda tutishi lozim.

4. Ko'p omillilik tamoyili. Har bir ta'lim jarayoni bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida amalga oshadi. Ular sirasiga o'qituvchi va talabalarning ijtimoiy-iqtisodiy hayot sharoitlari, ta'lim muassasalari atrofidagi ijtimoiy ishlab chiqarish va tabiiy iqlim muhiti, o'quv muassasasining o'quv-moddiy bazasi, o'qituvchilarning kasbiy malaka darajasi, ta'lim muassasasi yoki ma'lum sinfdagi ma'naviy-psixologik muhit, talabalarning o'quv imkoniyatlari, sinfning intellektual salohiyati, jamoaning shaxslararo munosabatlari kiradi. Ta'lim jarayonini loyihalashda o'qituvchi ana shu omillarni hisobga olishi zarur.

5. Talaba shaxsini ta'lim jarayoniga moslashtirish tamoyili. Bola maktab ostonasiga qadam qo'yganidan boshlab uning faoliyat ko'lami (o'z-o'ziga xizmat, mehnat, dam olish tarzida) kengayadi. Bu kabi faoliyat ko'nikmalarini egallashi natijasida ijtimoiy tajribaga ega bo'lib boradi. Shuning uchun ta'lim jarayonining samarali bo'lishi, uni loyihalashda ta'lim mazmuni va boshqa faoliyat modellari hisobga olinishi, ularni talabalar kundalik hayot faoliyatida egallab borishi ta'minlanishi zarur. Ayni vaqtda umumiy ta'lim muassasalarida shaxsni rivojlantirish va uni ijtimoiy hayotga moslashtirish muayyan qonuniyatlarga muvofiq psixolog va sotsiologlarning ishtiroklari (psixopedagogik tashxis xulosasi) asosida amalga oshiriladi. 6. Ta'lim jarayonida tabiiy rivojlanish va ijtimoiylashuv tamoyili. Tabiiy jarayonlar mohiyatini bilish ta'lim jarayonini samarali, talabalarning yosh xususiyatlari, senzitiv rivojlanish davrlari, rivojlanishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini hisobga olgan holda



tashkil etish imkonini beradi. Tamoyilning mazmuni ta'limni ijtimoiylashtirish, talabalar tomonidan ijtimoiy tajribani individual qonuniyatlar asosida o'zlashtirilishi bilan izohlanadi. Ta'lim jarayonini loyihalashda o'qituvchi loyihachi va bajaruvchi sifatida loyihani amalga oshirishning qulay yo'lini tanlaydi. Loyihalashda talabani o'quv faoliyatiga yo'naltiruvchi usullar, mustaqil ta'lim shakli, o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini hurmat qilish imkoniyatlarini aniqlash zarur. "Pedagogik texnologiya" tushunchasi esa o'z mohiyatiga ko'ra pedagogik faoliyatning eng muhim ikki jihati, ya'ni, ta'lim hamda tarbiya jarayonining texnologiyalashtirilishini ifoda etishi zarur. Barkamol shaxsni shakllantirish muammosining ijtimoiy zaruriyat sifatida e'tirof etilayotganligini nazarda tutadigan bo'lsak, ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni qaror toptirish, mazkur jarayonni texnologiyalashtirishga erishish muhim pedagogik vazifalardan biri sanaladi. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish – aniq maqsad va ijtimoiy g'oyaga asoslanib, talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning tashkiliy-texnik jihatdan uyushtirilishi Ta'lim jarayonidan farqli tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda bu jarayonning samarasini qisqa muddat oralig'ida ko'ra olish imkoniyati yo'q. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, talaba va o'qituvchi o'rtasida yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ziddiyatlar tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirishga nisbatan ijodiy va mas'uliyatli yondoshish zarurligini taqozo etadi. Zamonaviy sharoitda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'tkazilishiga rasmiyatchilik nuqtai nazardan voz kechish maqsadga muvofiqir. Zero, tayyor ssenariy asosida muayyan tadbirni tashkil etish jarayonida uning asosiy sub'ektlari bo'lgan talabalar faol ishtirokchi, tadbir natijasini belgilovchi shaxs sifatida emas, balki oddiy ijrochi sifatida qatnashadi. Bu holat esa bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Xususan: 1) talabalarda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishiga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi; 2) talabalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlikqobiliyatining tarbiyalanishi uchun imkoniyat yaratilmaydi; 3) talabalarda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishi ularning shaxs sifatida kamol topishlarini ta'minlashga yo'naltirilganligi haqida emas, balki sinfning ta'lim muassasasi jamoasi oldida "soxta obro'" o'ttirishi uchun xizmat qiluvchi vosita ekanligi to'g'risidagi xulosaning shakllanishi uchun sharoit yuzaga keladi Ta'lim muassasalarida tashkil etiluvchi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishga texnologik yondashuv quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi: - tadbir mavzusi va g'oyasini talabalar tomonidan bildirilgan shaxsiy tashabbuslar, ularning xohish-istaklariga ko'ra belgilash; - tadbir ssenariysini ishlab chiqishda talabalarning mustaqil faoliyat yuritishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish; - tadbir mazmunida o'z ifodasini topgan rollarning majburiy tarzda emas, balki talabalarning layoqati, qobiliyati, shuningdek, qiziqishlarini inobatga olish asosida taqsimlanishiga erishish; - tadbirning tashkil etilishi va o'tkazilishida o'qituvchining roli buyruq berishdan iborat bo'lmay,



aksincha, talabalarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, ularning faoliyatini yo‘naltirib turish hamda zarur o‘rinlarda maslahat berish sifatida aks etishiga erishish; tadbir maqsadining natijalanganligini sinf, guruh talabalarining faol ishtirokiga tayangan holda muhokama qilish Muhokama jarayonida o‘qituvchi tomonidan turli tanbehlarining berilishiga yo‘l qo‘ymaslik, aksincha yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarning talabalarining o‘zlari tomonidan aniqlanib, ularni bartaraf etish (keyingi tadbimi o‘tkazish jarayonida ularning takrorlanishini oldini olish) yo‘lida chora-tadbirlarni belgilash muhim ahamiyatga ega.

Talabalar o‘rtasida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etishga texnologik yondashuv mohiyati talabalar mustaqilligini ta‘minlashda quyidagi omillarning mavjudligiga e‘tiborni qaratishni ham taqozo etadi: talabalarda tarbiyaviy tadbirlarning o‘tkazilishiga nisbatan ichki ehtiyoj, qiziqish va rag‘batning mavjudligi; talabalarining tarbiyaviy tadbirlarni mustaqil tashkil etish borasida muayyan tajribalarga ega ekanliklari; tadbir g‘oyasining talabalar ichki ehtiyojlariga mos kelishi.

Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda bu jarayonni loyihalashtirish hamda uning asoslarini belgilash muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayonini loyihalash quyidagi bosqichlarda kechadi: 1) tadbir mavzusiga doir materiallarni yig‘ish; 2) tadbir maqsadi va vazifalarini belgilash; 3) tadbirning mazmunini ishlab chiqish; 4) tadbir shakli, metodlari va vositalarini tanlash; 5) tadbimi tashkil etish va o‘tkazish (davomiyligi) vaqtini belgilash; 6) tarbiyaviy tadbir ssenariysini ishlab chiqish; 7) talabalar faoliyatini nazorat qilish, ularning faollik darajalarini norasmiy (ularni bu haqida xabardor qilmasdan) baholash; 8) loyihani amaliy faoliyatda qo‘llash; 9) tadbimi tashkil etish jarayoni; 10) tadbirning o‘tkazilish holati (samarali, samarasiz, muvaffaqiyatli, muvaffaqiyatsiz kechganligi)ni muhokama qilish va yakuniy xulosa chiqarish shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года // Народное слово. - Т., 2017. - 21 апреля. - С. 1-2.

2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айлонмоқда. - Т., 2021. - 184 б.



OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV JARAYONI NIZOLARI PROFILAKTIKASI TIZIMINI PEDAGOGIK HAMKORLIK ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

T.E.ESHQUVATOV,
SaMDU katta o'qituvchisi

Maqolada OTMda o'quv jarayoni nizolari, o'rganilganlik darajasi, sabab va motivlari, ko'rinishlari, "o'qituvchi-talaba" tipidagi nizolar va ularning tahlili, ularni boshqarish san'atini o'rganishlarni o'z ichiga olgan bo'lib, ular oliy maktabga psixologik xizmat ko'rsatish maqsadida bajarilgan va bo'lajak pedagoglarga metodik yordam qiladi deb o'ylaymiz

Kalit so'zlar: O'quv jarayoni nizolari; nizolarning yaratuvchanlik imkoniyati; nizolarning funksiyalari; boshqaruv uslublari; nizo belgilari.

В статье рассмотрены конфликты образовательного процесса в вузе, степень изученности, причины и мотивы, проявления, конфликты типа «учитель-ученик» и их анализ, изучение искусства управления ими, которые, по нашему мнению, выполняются в целях психологического обслуживания высшей школы и оказывают методическую помощь будущим педагогам

Ключевые слова: конфликт образовательного процесса; возможность конфликтотобразования; функции конфликта; стили управления; признаки конфликта.

The article deals with the conflicts of the educational process at the university, the degree of study, causes and motives, manifestations, conflicts of the «teacher-student» type and their analysis, the study of the art of managing them, which, in our opinion, are performed for the purpose of psychological service of higher education and provide methodological assistance to future teachers

Key word: conflict of the educational process; the possibility of conflict formation; conflict functions; management styles; signs of conflict.

Oliy ta'limda ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi va ular tayyorlayotgan talabalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir xarakteri bilan belgilanadi, bu o'zaro bog'liqlik, hissiy ko'rinishlar va shu kabilardan iborat xilma-xil munosabatlar majmuasini o'z ichiga oladi. Tabiiyki, bu o'zaro ta'sir jarayonida doimo qiyinchilik, muammo va ziddiyatlar yuzaga keladi. Misol uchun, an'anaviy ta'limda o'qituvchi va talaba ko'pincha bir-biriga qarshi talablarni qo'yadi, ya'ni birinchi tomon doimo o'z talablarini ilgari suradi, ikkinchisi ularni bajarish kerak. Talabni bajarilmasligi esa bir sub'ekt boshqa sub'ektni "dushman" sifatida qabul qilishiga olib keladi.

"O'qituvchi-talaba" va "talaba-o'qituvchi" nizolarining o'ziga xosligi talaba pedagogik jarayonning ancha mustaqil sub'ekti hisoblanishi bilan izohlanadi. Aslida u ta'limning "buyurtmachi" turi vazifasini bajaradi va "unga taklif etilayotgan mahsulot" ni ongli ravishda baholay oladi.

Talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda nizolarning quyidagi sabablari keng tarqalgan:



- qadr-qimmat yo‘nalishidagi farqlar;
- munosabatdagi qo‘pollik, odobsizlik;
- hamkorlikdagi natijalardagi farqlar;
- o‘qituvchilarning kasbiy darajasi va talabaning o‘zlashtirishi.

Ta’lim jarayonidagi ziddiyatlarning asosiy muammolaridan biri, didaktika sohasida ham mavjud, jumladan [4; 118-b]:

- talabalarga taklif etilayotgan o‘quv materialining murakkabligi, tafakkurni shakllantirish darajasiga mos kelmasligi;
- materialning ortiqcha nazariyalanishi, asoslantirilmaganligi, amaliy faoliyat bilan bog‘lanmaganligi;
- talabalarning muayyan mavzuni o‘rganishi va muayyan kasbni egallashi uchun motivatsiyani yetishmasligi kabi.

Ta’lim jarayonida yuzaga kelgan nizoli vaziyatni hal qilishda oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchisining faolitdagi o‘z harakatlari tabiati va natijalarini tushunishi, salbiy holatlarning tub sabablarini o‘z xato va kamchiliklaridan izlay olishi, buning uchun aniq sharoitlarda sinchkov bo‘lishi, talabaning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini aniqlashtirishi, taklif etilayotgan o‘quv axboroti mazmunini idrok etishlariga erisha olishlari kerak bo‘ladi.

Aniqlovchi-ta’kidlovchi tajriba-sinovlarda o‘tkazilgan so‘rovnomalarda qatnashgan talabalarning(jami talaba respondentlar 220 ta) 37 foizi talaba-o‘qituvchi nizolarining salmoqli qismi o‘qituvchilarning kasbiy saviyasi yetarli emasligi tufayli yuzaga keladi, deb hisobladilar. Aksariyat talabalar fanlar mazmunining real hayotdan ajratilganligiga, 32% talaba o‘quv kursi dasturlari tuzilishiga salbiy munosabat bildirdi. O‘z navbatida professor-o‘qituvchilar (jami o‘qituvchi respondentlar 86ta) ta’lim jarayonining past samaradorligi va muloqotdagi nizoli vaziyatlarni quyidagi sabablar bilan izohladilar:

- bilim olishga bo‘lgan salbiy munosabat, dangasalik, o‘rganishni istamaslik (34%); -mustaqil fikrlash yo‘qligi, umumiy ta’lim va siyosiy madaniyatning pastligi, fanlarning ahamiyatini anglamaslik (12%); - bo‘ljak kasbiga qiziqishning yo‘qligi yoki o‘z istiqbolini ko‘rmaslik (56%); - o‘ta izzattalablik (27%).

Ishtirokchi respondentlar “O‘qituvchi-o‘qituvchi” munosabatidagi nizoli vaziyatlarni aksariyat hollarda hamkasblarning ishchanlik salohiyatini yetarli emasligi (22%), o‘zgalarning faoliyat natijalari soyasiga o‘tib olish (27%), o‘quv materiallari mazmuniga shaxsiy xissa qo‘shmaslik (24%), faoliyatdagi o‘zaro hamkorlikning yetishmasligi bilan bog‘ladilar.

Shu bilan birga “Universitet-o‘qituvchi” munosabatlaridagi noqulay vaziyatlar omili sifatida oliy ta’lim muassasasi tomonidan o‘qituvchidagi tashabbuskorlikning yetishmasligi, dars o‘tishdagi bepisandlik, jamoat ishlaridagi mas’uliyatsizlik, muassasa rivojlanishi va istiqboliga befarqlik, o‘z ustida ishlamaslik, axborot texnologiyalari bilan ishlash va tillarni o‘rganishga bo‘lgan harakatning yetarli



emasligi kabilar keltirilgan bo'lsa, professor-o'qituvchilar tomonidan bildirilgan asosiy e'tirozlar muassasadagi infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi (38%), o'qituvchilarning mehnatiga yarasha munosabat ko'rsatilmasligi (44%), tashabbus qo'llab-quvvatlanmasligi (36%) kabilarda namoyon bo'ldi.

Tadqiqotning "Universitet-talaba" munosabatlariga qaratilgan qismida o'tkazilgan so'rovnomaga natijalariga ko'ra amaldagi vaziyatda oliy ta'lim muassasasi talabalarning ichki tartibga rioya qilmasliklari, shaxslararo muloqotlardagi mas'uliyatsizliklari va madaniy saviyaning pastligi, bilim olishga nisbatan dangasalik, shijoat va tashabbuskorlikning pastligi, axborot texnologiyalari va til o'rganishga bo'lgan motivatsiyani yetishmasligini ta'kidlagan bo'lsalar, talabalar tomonidan oliy ta'lim muassasasidagi ichki tartib-qoidalarining o'rnatilganligi (72%), erkin muloqot va harakatning cheklanganligi (64%), infratuzilmaning qoniqarsizligi (64%), anonim tarzda esa ayrim hollarda yashirish korruptsiyaning davom etayotganligini bildirib o'tdilar.

Mazkur tahlil oliy ta'lim muassasalarida o'rganilgan sub'ektlarning o'zaro munosabatlarida ma'lum nizoli vaziyatlarni yuzaga kelishi uchun sharoit yaratayotganligini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida "Universitet-jamiyat" munosabatlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Oliy ta'lim muassasalarining bevosita ishtirokchi sub'ektlari munosabatlaridagi yuzaga keluvchi nizoli vaziyatlar profilaktikasiga oid tashkiliy-pedagogik shart-sharoit yaratish orqali yuqorida ta'kidlangan "Universitet-jamiyat" munosabatlaridagi talablarni yagona o'lchamli ko'rinishga keltirish, ya'ni maqbullashtirish asosida o'quv jarayonlari samaradorligini oshirish, kutilayotgan ta'lim sifatini ta'minlash imkoniyatlari ortadi. Bundan tashqari talabalarni pedagogik faoliyatga samarali tayyorlanishiga ham ahamiyat qaratish, jumladan, ularning o'quv-tarbiya jarayonidagi nizoli vaziyatlarda tegishli pedagogik pozitsiyaga ega bo'lib yetishib chiqishlariga ta'sir etuvchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni inobatga olish maqsadga muvofiq.

Tayyorlanayotgan o'qituvchi-murabbiylarning nizoli vaziyatlarga tayyor emasligi, bu boradagi layoqatsizligi, past malaka darajasi uning obro'si hamda kasbiy va shaxsiy imidjiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilarning pedagogik faoliyati nizoli vaziyatlarga boy bo'lib, ular profilaktikasiga yetarlicha e'tibor qaratilmagligi natijasida pedagogik jarayonning yaxlitligi buziladi. O'qituvchilarni kasbiy faoliyatlaridagi ziddiyatlarning oldini olish va hal qilishga tayyorligini shakllantirish oliy pedagogika sohasi oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

Aniqlovchi-ta'kidlovchi tajriba bosqichi natijalariga ko'ra yuqoridagi mezonlar bo'yicha talabalarning ko'pchiligi past darajada (41,3%), o'rta darajada – 42,4%, yuqori darajada faqat 16,3% qayd baholandi.

Pedagogik munosabatlarda bir ishtirokchi tashkiliy muammoni hal qilish, ikkinchisi esa uni amalga oshirish uchun harakatlarini qat'iy yo'naltiradi. Bunda shaxslararo va shaxsning o'zida muntazam ravishda qondirilmagan ishtiyoq, yechilmagan masala, taqsimlanmagan moddiy ob'ekt yoki ish va boshqa yechimi



ochiq qoldirilgan holatlarga bo'lgan reaksiyasi – tushunmovchilik, axborotni turlicha qabul qilish va talqin qilinishi kabilar nizodan avvalgi – “qo'shilmaslik” holatini yuzaga keltiradi.

Faoliyat sustlashuvi. Pedagogik munosabat jarayonida faoliyat bilan bog'liq biror bir masala (ob'ekt)ning tartiblanmaganligi, izohlanmaganligi, sharhlanmaganligi, tushuntirilmaganligi, ochiqatlanmaganligi yoki shunday deb anglanishi va qabul qilinishiga sabab bo'luvchi yondashuvlar sub'ektning navbatdagi faoliyatini (muloqot, hatti-harakat, fikrlash, ishtirok etish, tashabbus va h.k.) sustlashuviga olib kelishi, amalga oshirilayotgan harakatga nisbatan ishonchsizlikni vujudga keltirishi mumkin.

E'tirozlar. Pedagogik munosabatlarda ochiq qoldirilgan masala sababli yuzaga kelgan “qo'shilmaslik” holati faoliyat ob'ekti (taklif, xulosa, qaror, axborot, ma'lumot va boshqalar) ga nisbatan sub'ekt tomonidan e'tirozlar va rad etuvchi fikrlar bildirilishi, muhokama etilishi, o'z mulohazasini himoya qilinishi kabilarni keltirib chiqarishi mumkin.

Muloqotdagi og'ishuv. Har qanday oydinlik kiritilmagan masala sababli “qo'shilmaslik”ning yuzaga kelishi natijasida ko'p hollarda o'zaro muloqot sifatining buzilishi kuzatiladi, bunda muloqot mavzusidan chetlashish, muloqot odobining buzilishi, noo'rin so'zlar va jestlar (imo-ishora) dan foydalanish kabi holatlar ko'zga tashlanadi.

Natijasizlik. O'zaro munosabatlar doirasida munosabat ishtirokchisida biror ob'ekt (tavsiya, ko'rsatma, topshiriq va boshqalar)ni bajarmaslik, mehnat, o'quv faoliyatida mas'uliyatsizlik kuzatiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, nizolar asosini bu sub'ektlar o'rtasidagi qarama-qarshilik ortida yuzaga keluvchi belgilar tashkil qiladi. Nizolar profilaktikasiga oid mavjud ilmiy izlanishlar nizo belgisini idrok qilish, uning nizoga aylanish chegarasini anglash va erta bartaraf etish masalalariga yo'naltirilgan.

Tadqiqotimiz doirasida olingan ilmiy natijalarga tayanib, nizoli vaziyat belgilari paydo bo'lganda yoki harakatga aylanganida va yoki to'laqonli nizoli vaziyatda tegishli choralar ko'rish emas, balki ushbu choralarga qadar sub'ektlarning ma'lum funksiyasini shaxslararo munosabatga quriladigan har qanday faoliyat yakuni o'ta ochiq va tushunarli bo'lishiga erishish nuqtai nazaridan tartibga solish taklif etiladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. G. To'ychieva. Yoshlar va konfliktlar: Konfliktlar yechimiga o'rganish. Toshkent 2008 y.
2. D.Q.Yergeshova, M.K.Najimov. Yuridik konfliktologiya. Toshkent 2007. -129b.
3. Засоби́на Г. А., Кабы́льни́цкая С. Л., Савин Н. В. Практикум по педагогике: учебное пособие. – Москва: Просвещение, 1986. – 111с
4. Баныкина С.В., Степанов Е.И. Конфликты в современной школе: Изучение и управление.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA XORIJIY TILLARNI O'RGATISHNI TAKOMILLASHTIRISH DOLZARB MASALA SIFATIDA

SH.A.ATADJANOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU

Mazkur maqola uzluksiz ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish masalasiga qaratilgan. Chet til o'rgatish o'quvchilarni nafaqat dunyoqarashini kengaytiradi, balki bo'lajak mutaxassislarni kasbga yo'naltirib, kasbiy malakalarini rivojlantirishda vosita vazifani o'taydi.

В данной статье описывает роль и важность обучения иностранному языку в системе непрерывного обучения. Обучение иностранным языкам развивает не только мировоззрение у учащихся, но и направляет их к улучшению профессиональных навыков.

The provided article describes the role and Importance of teaching foreign languages in the system of continuous education. Teaching teaching foreign languages develops not only learners viewpoint but also directs them to the Improvement of professional skills.

Yangilanayotgan O'zbekistonning barcha ta'lim muassasalarida chet til o'rgatishga ham yangi talablar qo'yildi. Bularning zaminida yurtimiz jahon standartiga javob bera oladigan kadrlar tayyorlash masalasi yotar ekan va unga erishishda avvalom bor ta'lim tizimini tubdan rivojlantirish, modernizatsiya qilish, takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanib kelinadi. Bu borada xozirgi kunga kelib, qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda xususan, uzluksiz ta'limning birinchi sinfidan boshlab chet tillarni (fransuz, nemis, ingliz, xitoy va xk) o'qitish yo'lga qo'yildi, 11 yillik ta'lim qayta tiklandi, tilga ixtisoslashtirilgan maktablarning tashkil etilishi, oliy ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitishga jiddiy e'tibor qaratilib kelinishi shular jumlasidandir.

Ta'lim va tarbiyaga e'tibor O'zbekiston buyuk kelajagiga e'tibordir. Ta'lim va tarbiya o'zaro uzviy bog'langan jarayondir. Umumo'rta ta'lim maktablarida "Tarbiya" fani darslarini 1-11 sinflargacha joriy etilishi ham shular jumlasidandir.

"Aslida ta'lim - tarbiya sohasidagi islohotlarning chegarasi yo'q. Toki hayot davom etar ekan, ta'lim ham, tarbiya ham zamon o'rta qo'yayotgan yangi-yangi talablarga ko'ra muttasil ravishda o'zgarib, yangilanib boraveradi"[1]. Demak, bundan shunday xulosaga kelishimiz kerakki, haqiqatan zamon va davr talabiga ko'ra ta'lim ham tarbiya ham o'zgarib yangilanib borishiga o'zimiz bugungi kunda guvoh bo'lmoqdamiz.

Shularni e'tiborga olib, 2021 YIL 19 mayda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni



ommashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari “ to‘g‘risidagi **PQ- 5751** qarori ham o‘ta muhim va dolzarbdir. (2) Mazkur farmoishga ko‘ra, xorijiy tillarni o‘rgatishni ta‘lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish hamda ta‘lim sifatini tubdan oshirish , aholini xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularni mukammal o‘zlashtirish uchun zarur sharoilar yaratish kabi masalalar ko‘zda tutilgan. Mazkur qarorga ko‘ra, chet tillarni o‘rgatish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish, chet til ta‘limini sifatini tubdan oshirish va eng asosiysi aholining chet tillarga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularni mukammal o‘zlashtirish uchun zarur sharoilar yaratish kabi masalalar ko‘zda tutilgan.

Shuni alohida ta‘kidlab o‘tishimiz joizki, muhtaram prezidentimiz tomonidan uzluksiz ta‘lim tizimida barcha fanlarning o‘qitilishiga alohida e‘tibor qaratib , bugungi yoshlarimiz nafaqat ingliz tili ,balki bundan buyon fransuz,nemis, xitoy kabi tillarni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar deb ta‘kidlagan so‘zlari biz chet til o‘qituvchilariga mas‘uliyat yuklatiladi. Aslida bunday e‘tiborning zaminida yangi O‘zbekiston yoshlarining ta‘lim tarbiyasiga, ularning dunyoqarashiga qaratilayotgan jiddiy e‘tibor desak mubolag‘a bo‘lmas.

Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlarimiz orasida ko‘pchiligi bitta xorijiy tilni (masalan: fransuz tili yoki ingliz tili yoki nemis tili va xk) o‘zlashtirganliklari bo‘yicha sertifikatlariga ega bo‘lib bormoqdalar. Shunisi quvonarliki, Yangi O‘zbekiston sharoitida bitta xorijiy tilni yaxshi o‘zlashtirgan ,yaxshi egallagan talaba yoshlar orasida ikkinchi xorijiy tillarni egallash istaklari ham kundan kunga ortib borayotganligi quvonarli xolatdir. Masalan: ingliz tilidan ILTS sertifikatiga ega bo‘lgan yoshlar orasida fransuz tili yoki nemis tilini va xk tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Bugungi ko‘p tillilik zamonda o‘quvchi yoki talaba bitta xorijiy tilni o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmayapti. Ularda tilga bo‘lgan motivatsiya kundan kunga oshib bormoqda. Bu albatta quvonarli xolatdir. Donolar bejiz bitta tilni bilgan odam bitta odam ,ikkita tilni bilan odam ikki odam deb bejiz aytishmagan.

Til ta‘limi pedagogik muammo bo‘lib, ta‘lim mazmunining tarkibiy qismini tashkil etadi. Chet til ta‘limining mazmuni ta‘lim va tarbiyaning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalariga ko‘ra aniqlanadi. Chet til ta‘limi doimo olim va tadqiqotchilarning diqqat e‘tiborida bo‘lib kelmoqda. Zamonaviy chet til ta‘limi yangi O‘zbekistonning ustuvor masalalaridandir.

I.V.Raxmanov chet til ta‘limining ikki qonuniyatini ko‘rsatgan edi : 1) chet tilni o‘qitish ona tili asosida bo‘lishi 2) chet tilni o‘rganish qanday maqsadda bo‘lmasin tinglab tushunish va gapirish mashqlarini bajarish evaziga bo‘lishi shart [3]

Faoliyatga yo‘naltirilgan chet til ta‘limi chet tilni turli sohada integratsiyalashning natijasidir. Til –eng muxim tarbiyaviy faktorlardan biri bo‘lib, u bilim egallashni tezlashtiradi va yengillashtiradi. Chet tilni o‘rganish talabalarning mantiqiy tafakkuri



(fikrlash, fahmlash, taxlil umumlashtirish) ni oʻstiradi, mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Otlarda kredit taʼlimning joriy etilishi zaminida yoshlarning zamonaviy taʼlim talabi asosida taʼlim tarbiya berishdek ulkan vazifa turadi.

Xar bir taʼlim muassasida chet til taʼlimi oʻziga xos xususiyatlarga ega. Taʼlim muassasalari xususiyatlaridan kelib chiqib maxsus oʻquv dastur va oʻqitish metodikasini koʻllash talab etiladi. Zamon talabidan kelib chiqib nofilologik oliy taʼlim muassasalarida chet til taʼlimi eng dolzarb masallardan biridir. Chunki mazkur oliy taʼlim muassasalarida turli soha egalari tayyorlanadi va ularda chet til oʻqitish masalasi oʻziga xos xususiyatga ega. Mazkur oliy quv yurtlarida chet til oʻqitish vaqti chegaralangan, nutqiy faoliyat oʻrgatiladi (tinglab tushunish, tinglab tushunish, oʻqish, gapirish va yozuv). Eng asosiysi boʻlajak mutaxassislar (biolog, ximik, geografik, matematik, injener va xk). Chet til taʼlimini kasbga yoʻnaltirilgan holda oʻrganib boradilar. Talaba chet tilda axborot olishi va axborot uzata olishi talab etiladi. Bugungi SEFR talabiga koʻra mazkur OTM bitiruvchi talabalari kamida V2 darajani egallashlari talab etiladi. Demak, OTMd chet tilni umumtaʼlim oʻquv predeti maqomida oʻrganuvchilar uchun til haqidagi bilimlarni maxsus oʻrganishmaydi, faqat tildan amaliy foydalana olish malakasiga ega boʻladilar. Shuningdek mazkur OTM talabalari oʻzlarining mutaxassisliklari boʻyicha chet tilida yangi va foydali ilmiy maʼlumotlarni oladilar.

Bunday marrani egallashda oʻqituvchidan mahorot talab etiladi. Chunki, auditoriyada taʼlim olayotgan talabalarining avval oʻzlashtirgan bilimlarining turli xilligi, qisqa belgilangan vaqtda tilni egallashdagi qiyinchiliklarni (interferensiya) mavjud xolatlar va ularni yenga bilishlari, atamalar ustida ishlashning murakaablik jihatlari va xakozolar oʻqituvchiga ham talabaga ham qiyinchilik tugʻdiradi. Bunday holatda dastavval oʻqituvchini oʻzi bu soha, yoki bu yoʻnalish haqida maʼlum darajada xabardor boʻlishi lozim. Chet til talabaning kasbiy malakasini rivojlantirishda vosita vazifasini bajaradi. Bu borada oʻqituvchi darsni tashkillashtirishda kasbiy malakani shakllanishiga qaratilgan turli qiziqari zamonaviy metodlardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Uzluksiz taʼlim tizimining barcha boʻgʻinlarida chet til oʻqitilish masalasiga jiddiy eʼtibor qaratilar ekan, natijada, bir necha yillab oʻzi istagan xorijiy tilni oʻrganib kelgan talabaning maʼnaviy, madaniy rivojlanishiga, uning dunyoqarashini kengayishiga, oʻzining boʻlajak kasbining yetuk mutaxassisi boʻlishiga va nihoyat kognizant shaxs boʻlib yetishishiga chet til muhim omildir. Xorijiy tilni mukammal egallagan talaba chet ellik hamkorlari bilan oʻzlari erkin emin muloqot qiladilar, fikr almashadilar va raqobatbardosh boʻla oladilar.

Nofilologik otmd chet til quyidagi maqsadda oʻrgatiladi va oʻzlashtiriladi, erishilgan boʻlishi kerak: -amaliy –oʻz sohasi boʻyicha chet tildan foydalana olish; -taʼlimiy –chet el adabiyotlaridan yangi axborot ola bilishi; -tarbiyaviy –xalqaro madaniy aloqalarda ishtirok eta olish; -rivojlantiruvchi; –talabalar dunyoqarashini kengayib borishi bilan izohlanadi.



Bugungi kunda turli soha mutaxassislariga chet til ta'limi jarayonida kasbiy maqsad muhim hisoblanmoqda. Xususan, kasbga yo'naltirilgan chet til ta'lim jarayonida talabalarning kasbiy malakalarini shakllantirib va rivojlantirib borish ham talab etiladi. Demak, bunday vaziyatlarda chet til vosita vazifasini o'taydi. Kasbiy malakaga ega bo'lish ijtimoiy, shu bilan birga shaxsiy ahamiyatga egadir. Shu sababli kadrlarning kasbiy malakalarini rivojlantirish ta'lim tizimining muhim yo'nalishi bo'lib kelgan. Malaka va kasbiy rivojlanish, avvalo, maxsus bilim, so'ngra uzoq vaqt qayta-qayta takrorlanadigan mashqlar tufayli egallanadigan tajriba va ko'nikmalarning ongli ravishda aql-idrok hamda tafakkur chig'irig'idan o'tkazilgan holda mujassamlashuvi hisoblanadi. [4].

Ta'limda ko'zlangan maqsadga erishishda fanlararo bog'lanishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bir fanning boshqa fan masalalarini hal qilishda vosita bo'lib xizmat qilishi fanlararo aloqadir. Har bir fanning o'zida xususan uning tizimida o'zga fanlardan ham ma'lumotlar bo'ladi. Masalan: geografiya, tarix, biologiya kabi fanlarda O'zbekiston, Fransiya kabi mamlakatlar haqida ularning geografik joylashishi, yetuk olimlari va hakazolar haqida ma'lumotlarning berilishi chet til ta'limi jaryonida ularni yanada to'liq o'rganib borilishi shular jumlasidandir.

Shuni qayd etishimiz lozimki, fanlararo aloqa talabalarning tafakkurini kengaytiradi va ma'lum darajada talabalarning kasbiy malakalarini shakllantirib boradi. Bu borada G'oziev E: "Ta'lim jarayonidagi turli fanlarni o'qitish tufayli, keng ko'lamli bilimlar tizimi o'zlashtirilishi orqali ta'lim oluvchilarda tafakkurning faolligi, mustaqilligi, mazmundorligi, mahsuldorligi ortadi. Ularda nazariy tafakkurning tarkib topishi natijasida voqelikning ichki bog'lanishlari, munosabatlari, jamiyat rivojlanishining qonunlarini bilish va anglab olish ko'nikmasi yuqori pog'onaga ko'tariladi[5].

Shiddat bilan rivojlanish kechayotgan O'zbekistonda hozirgi paytda Uchinchi Renessans(qayta o'yg'onish) davmi boshlanishi deb muhtaram prezidentimiz o'z ma'ruzalarida ta'kidlab o'tadilar. Yangi O'zbekistonda bir qancha yangi oliy o'quv yurtlarining, akademik litseylarning tashkil etilib borilishi zaminida Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Al Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy kabi buyuk allomalarimizning davomchilariga ta'lim va tarbiya berishdek ulkan vazifa turibdi. Bunday maqsadga erishishiida har bir pedagog mutaxassislardan mahorot talab etiladi. Shu o'rinda kasbiy pedagogik mahorot haqida to'xtalib o'tsak.

K.Zaripov tomonidan kasbiy pedagogik mahorotni mazmunini kengaytirib izohlab bergan. Ta'limda "Ilg'or o'qituvchi,"Ijodkor o'qituvchi", "Novator o'qituvchi" larni alohida ta'riflaydi[6].

Ilg'or o'qituvchi –boshqa o'qituvchilarga nisbatan o'z ishiga mas'uliyat bilan qaraydi. Sohadagi ijobiy tajribalarni o'rganib, dars jarayonida, ta'lim muassasi va guruhdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda qo'llaydi. Shu orqali o'qituvchi ta'lim tarbiya sohasida muayyan yutuqlarni qo'lga kiritadi.

"Ijodkor o'qituvchi"da "ilg'or o'qituvchi"dagi xususiyatlar bo'lishi mumkin.



Ularning farqi shundaki, ilg'or o'qituvchi mavjud manbalarni o'rganib, shular asosida ta'lim-tarbiya bo'yicha muayyan ishlarni amalga oshirsa, ijodkor o'qituvchi mavjud manbalarga tanqidiy ko'z bilan qaraydi. Ko'p hollarda mavjud metodik yo'l-yo'riqlarga o'z munosabatini bildirib, sharoit va vaziyat taqozosiga o'z imkoniyatlariga qarab, mavjud tartiblardan farqli ravishda, zamonaviy metodik usullardan foydalaniladi.

“Novator o'qituvchi” (yangilikka intilish) o'zining pedagogik vosita va usullari mavjudligi bilan farqlanib turadi. Shuningdek, ilmiy taxlil, o'ziga tanqidiy qaray bilish xususiyatlariga ham ega bo'ladi. Bunday o'qituvchilarda o'z ishlarining to'g'riligiga ishonch yuksak darajada bo'ladi. Bizningcha, bunday toifaga kiruvchi o'qituvchilar o'zlarining yangi g'oya va yangicha qarashlari bilan ajralib turadi.

Demak, bizning fikrimizcha, har uchchala toifani o'zida mujassamlashtirgan o'qituvchini tom ma'noda mahorotli pedagog deb atashimiz mumkin. Jamiyatimiz bugungi kunda ana shunday o'qituvchilarga har doimgidan ko'ra ko'proq ehtiyoj sezmoqda.

Shuni eslatib o'tishimiz joizki, o'z davrida Abu Nasr Farobiy 70dan ortiq tilni o'zlashtirgan va muloqot qilganligi tarixdan ma'lum bo'lsa, Al Xorazmiy 9ta tilni mukammal o'rgangan. Abu Rayxon Beruniy esa sanskritdan ilmiy asrlarni arab tiliga tarjima qilgan. Demak, ko'plab tillarni o'rganish bizning millatimizga, yurtimizga xos bo'lgan xususiyatlardan biridir desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shularni e'tiborga olib, uzluksiz ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitishni o'rgatishni takomillashtirish Yangi O'zbekistonning yangi talablaridan biridir. Xususan bugungi yoshlarimiz kamida ikkita chet tilni o'zlashtirmishlari shular jumlasidandir. Chunki, dunyo hamjamiyatida O'zbekistonning alohida o'rnini ta'minlash va mustahkamlashga xizmat qilish uchun ham chet tillarni o'rganish lozim bo'ladi. Bunday o'ta muhim, o'ta dolzarb bo'lgan zamon talablarni bajarishda pedagog kadrlar zimmasiga ulkan mas'uliyatlar yuklatiladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoevning 2021 yil 19 mayda “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rgatishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari” to'g'risidagi PQ- 5751.

2. И.А. Каримов. Ўзбекистон буюк келажак сари. Ўзбекистон 1998.-62

3. И.В.Рахманов Обучение устной речи на иностранном языке.-М., Высшая школа 1980.-120 с.

4. N.A. Yuldasheva. Kasb mahoratini oshirishda rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasining mohiyati// Zamonaviy ta'lim / sovremennoe obrazovanie 2014, №4. (3).

5. E.G'oziev. Psixologiya. Yosh davrlari psixologiyasi.-T.: O'qituvchi, 1994.-224 b.

6. K.Zaripov. O'qituvchilar malakasini oshirishda maktab rahbarining roli.-T.: “O'qituvchi”, 1993.-97 b.



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НЕПРЕРЫВНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К АКМЕЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

З.Р.ДЗУГАЕВА,
преподаватель УфТМА

Ushbu maqola tilshunos bo'lmagan universitetda bo'lajak tibbiyot mutaxassislarining kompetentsiyasining nutq muammosini shakllantirish muammosini o'rganadi.

Kalit so'zlar: *texnologiya, neyrolingvistika, psixolingvistika, ta'lim, mantiq, ma'no.*

В данной статье исследуется проблема формирования речевой проблемы компетентности будущих специалистов-медиков в неязыковом вузе.

Ключевые слова: *технология, нейролингвистика, психоллингвистика, обучение, логика, смысл.*

This article examines the problem of the formation of the speech problem of the competence of future medical specialists in a non-linguistic university.

Key words: *technology, neurolinguistics, psycholinguistics, training, logic, meaning.*

В указе Президента Республики Узбекистан от 5 мая 2017 года за номером № УП-2956 «О мерах по дальнейшему реформированию системы медицинского образования в Республике Узбекистан» [1]. Наблюдается устойчивая тенденция к росту количества студентов, которые заинтересованы в изучении иностранного языка, поскольку проявляющаяся важность указанного процесса приобретает очевидный характер в разрезе сложившейся ситуации в экономике и социуме. Важная роль в подготовке квалифицированных кадров принадлежит изучению ими иностранных языков.

Совершенствование акмелингвистической компетентности студентов, изучающих иностранный язык, как показывает практика, является не из легких задач. Компетенции правильно четко формировать и высказывать мысли на иностранном языке является одной из приоритетных целей всей подготовке квалифицированных кадров. В этом контексте возникает необходимость усовершенствования методики обучения будущих врачей английскому языку, обеспечивающих подключение под сознания обучаемого. Такой технологией, с нашей точки зрения, нейролингвистическое программирование, базирующееся на основе нейропсихологии, теория эффективной коммуникации, способствующая повышению результативности деятельности и позитивному изменению личности, в основе которой лежит определенная система понятий и убеждений. Техники нейролингвистического про-



граммирования – это особым образом организованная последовательность действий, отобранные из практики приемы, поведенческие образцы, приводящие к успеху и предназначенные для достижения результата.

Техники нейролингвистического программирования обращены к форме процесса, следовательно, обладают универсальной применимостью, так как пошаговый характер техник делает их доступными для освоения. Эффективной техникой нейролингвистического программирования является техника применения психолингвистических формул (ПЛФ) в период преподаванию английскому языку, способная заменить традиционное преподавание иностранным языкам. Данный подход резко отличается от традиционного, который базируется на знаниях готовых речевых формул родного языка и сопоставления этих речевых формул иностранного языка. считаем, что в качестве основных приемов обучения английскому языку в медицинском высшем образовательном учреждении необходимо применять проблемную направленность, которая помогает трансформировать материалы для обучения в некую инновационную форму логических и смысловых конструктивов. Последние имеют под собой цель, направленную в отношении смысла предоставляемой информации, ориентированной на конкретную личность. Само по себе выражение «логико-смысловая модель» было апробировано и внедрено в прикладную психологию, благодаря работам ученого В.Э. Штейнберга. Его мотивация в разработке данного понятия – это создание определенно многоуровневой модельной системы, составляющие которой, включают в себя логические и смысловые разделы.

Представленные модели могут включать в себя сочетания опорных и узловых элементов с учебным материалом, имеющие свой код задачи.

Собственно, основное целеполагание в представлении любой модели смыслового или логического уровня – это создание единой и цельной картины, которая направлена на объединение разрозненной информации. Особенно примечателен тот факт, что изначальным параметром является задание некого критерия, задающего корреляцию. Она возникает между определенными фрагментами информации, а также между тем смыслом, который они несут. Обратите внимание на присутствие отдельного вида связующих элементов в паре «объект-явление», что является зеркальным отражением указанных взысканий.

Представляется определённая константа логики и смысла в модели, что



в целостном представлении формирует своеобразную ячеистую структуру, которая охватывает всю область проблемы [2]. Кроме этого, модель включает в себя элементы логики и смысла для определенной области выделенного предмета может быть представлена как некий массив текстовой информации, интерпретированной сквозь призму естественного языка.

Будущий врач создает свой собственный ЛСМ-юнит, в свою очередь, выступающий, как некая коммуникативная единица в паре «преподаватель – студент», позволяя произвести полный синтез процесса пояснения и запоминания. Первый шаг, который всегда запускает процесс позитивной трансформации компетентности акмелингвистического типа обязательно всегда коррелирует с познавательной деятельностью стартового уровня.

Задача преподавателя для указанного процесса – это вычленив логическую и смысловую модель, а также дать описательскую составляющую функционирования данной модели. Следующий (вторичный) шаг – это, соответственно, и второй уровень, характеризующий познавательную деятельность.

Задача преподавателя для данного уровня – это помочь студентам-врачам в конструировании логических и смысловых моделей, каждая из которых имеет тематическую направленность. Это достигает следующий позитивный момент, когда студент одновременно, и работает с восприятием информации на слух, и также выстраивает цепочку организации знания в структуру. Соответственно появляется возможность контролировать сам процесс усвоения новой информации [3]. Финальный этап имеет устойчивую корреляцию с завершающим (третьим) уровнем познавательской деятельности студента. Соответственно, преподаватель дает такое задание, где в самостоятельной форме необходимо осуществить конструирование логической и смысловой модели, определенной в персональной тематике, которая должна быть поддержана исключительно персональными особенностями мыслительного процесса студента. Уже необходимо формирование строгой ориентации, где каждый студент понимает, где базисная, а где дополнительная часть изучаемой тематики. Когда происходит работа с моделями, которые несут в своем наполнении информацию учебной направленности, то для студентов характерно выполнение таких шагов – аналитическое исследование материала по предложенной тематике, составление описания, основанного на вербальном принципе, отделение базовой составляющей те-



матики от дополнительных элементов, обработка всего полученного массива данных в разрезе логики и смысла, сжатие до уровня наиболее важной информации, концентрация все в виде формулы.

Логические и смысловые модели помогут интерпретировать в виде формулы любую конструкцию из английского языка, а кроме этого также и конструирование синтаксической конструкции, либо же использование временного приема. Несомненно, различные языковые группы имеют различия между собой, что особенно ярко проявляется в способах сопряжения слов или, иными словами, конструкциями.

В английском языке все предложения состоят из подлежащего и сказуемого, которое составляют определенное смысловое значение всего предложения. В русском языке предложения могут существовать и без подлежащего и без сказуемого. В английском языке отношения между членами предложения выражаются главным образом при помощи, строго определенного порядка слов. Поэтому перестановка слов в предложении в английском языке может привести не только к изменению смысла предложения, но и к бессмыслице. Второе основное отличие вытекает из первого и заключается в том, что в английском языке ни одно предложение не может существовать без главных членов – подлежащего и сказуемого [4, 5].

Литература:

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 5 мая 2017 года № УП-2956 «О мерах по дальнейшему реформированию системы медицинского образования в Республике Узбекистан».
2. Гриндер Дж., Бендлер Р. Нейролингвистическое программирование. – Воронеж: НПО «МОДЭК», 2004. – 240 с.
3. Румянцева Л.Н. Технология обучения иностранным языкам третьего тысячелетия с позиции акмелингвистики. – СПб., 2003.
4. Фролов Ю.В. Компетентностная модель как основа оценки качества подготовки специалистов // Высшее образование сегодня. – М.: Логос, 2004. – № 8. – С. 34-41.
5. Рискулова К.Д. Система формирования социолингвистической компетенции будущих учителей английского языка: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – Т., 2017. – 60 с.



*Jurnalning ushbu sonini
tayyorlashda qatnashganlar:
L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan
03.01.2007 yilda № 0101 tartib raqami bilan
ro‘yxatdan o‘tgan.*

*«Uzluksiz ta’lim» jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK
rayosatining 2013 yil 30 dekabrda 201/3-sonli qarori bilan
pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar
ro‘yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to‘liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagi
6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi
bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 20.04.2021 y. Qog‘oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$
Ofset bosma usulida bosildi. 8-bosma taboq.
Adadi 120 nusxa. Buyurtma

«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.
Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko‘chasi, 28-uy.